

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

A.Nomozov, N.Allayorova

ONA TILI
(o'quv qo'llanma)

*SamDU Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi, № 5-sonli bayonnomasi
bilan nashrga tavsiya etilgan*

Samarqand – 2021

UDK

KBK

O

A.Nomozov. N.Allayorova. Ona tili. O'quv qo'llanma –
Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 148 bet

Mazkur o'quv qo'llanma ona tili fanining qator mavzulari bayoniga bag'ishlangan bo'lib, u sirdan tahsil olayotgan I bosqich talabalariga mo'ljallangan. O'quv qo'llanma ma'ruza matnlari va amaliy mashg'ulot topshiriqlari jamlanmasidan iborat.

O'quv qo'llanmadan ona tili fanini o'rghanuvchilar, umuman, nazariy ma'lumotlar va ularning amaliy ifodasi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

dots. G.Rahimova

Taqrizchilar:

dots. N.Sulaymonova, dots. Z.Qurbanov

ISBN 978-9943-7276-9-4

©Samarqand davlat universiteti, 2021

KIRISH

Ma'lumki,bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ijobjiy o'zgarishlar,islohotlar amalga oshirilmoqda.Islohotlarning ko'p jihatdan muvaffaqiyati xalqimizning unga ishonch ko'zi bilan qarashiga bog'liq bo'lmoqda.Ta'lim jarayonida uzoq yillar qo'llanilgan,samarasi kun sayin pasayib ketayotgan mashg'ulot shakllari orqali tub o'zgarishlar yasab bo'lmasligi kun sayin ravshanlashmoqda.An'anaviy dars o'tish shaklidan ijobjiy tomonlarini olish,undan o'rinni foydalanish zarurligini ham unutmaslik kerak.Ayni paytda hayot, ijtimoiy turmushdagi ijobjiy o'zgarishlar nafasi ta'lim jarayonida ham nimanidir o'zgartirish,yangilash zarurligini taqozo etayotganini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Tan olish kerak,boshqa sohalarga qaraganda ta'lim jarayonida sifat jihatdan o'zgarishlar,islohotlar sur'ati nisbatan sekin borayotgani haqiqat.Fikrimizcha,sifat va samaradorlik birdan ko'zga tashlanmayapti.,bu – tabiiy hol.Muhimi,bu jarayonda ta'lim oluvchida ham,ta'lim beruvchida ham qilayotgan ishidan mamnunlik hisi shakllantirishga erishildi.

Barcha fanlar qatori ona tili fanini ham chuqurroq o'rgatish,tilni qadriyat sifatida e'zozlash,unga og'zaki va yozma savodxonligimizning asosi deb qarash ta'limning barcha bo'g'inlarida,xususan,boshlang'ich ta'limda juda muhim vazifadir.

Biz mazkur o'quv qo'llanmani yozishda ona tili fanining zimmasiga qo'yilgan vazifalarning talabiga muvofiq yondoshdik.O'quv qo'llanma hozirgacha ona tili fani bo'yicha mavjud ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganish,qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish va munosabat bildirish asosida yaratildi.Shu bilan birga talabalarga mazkur fandan yillar davomida o'tilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan holda chiqarilgan xulosalar,fikr-mulohazalar qo'l keldi.Sirtqi ta'limning o'ziga xos tomonlari,xususan unda ko'proq mustaqil ishslash jarayonida bilim va ko'nikmalarning hosil qilinishi,nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmunan umumiy hamda yo'nalish berish xarakteriga ega ekanligi o'quv qo'llanmada o'z ifodasini topdi.

1-MAVZU: UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA'LUMOT.

FONETIKA VA FONOLOGIYA

(ma'ruza)

Reja:

1. Tilshunoslik fani va uning bo'limlari.
2. Til ijtimoiy hodisa. Tilning rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari. Adabiy tili va uning shakllari.
3. Fonetika va uning o'rganish sohasi.
4. Fonologiya haqida ma'lumot.

Tayanch so'zlar: umumiyl tilshunoslik, tilning taraqqiyot bosqichlari, adabiy til, fonetika, fonetik hodisalar, nutq tovushlarining tasnifi, tovush, fonema, fonetik birliklar, fonologiya.

Tilshunoslik fani til va uning qonuniyatlarini, dolzarb masalalari bilan shug'ullanadi. Unda o'rganiladigan masalalar quyidagilardan iborat:

- tilning ijtimoiy mohiyati, tilning tafakkur bilan munosabati;
- tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot qonunlari;
- tilning qurilishi, tarkibi;
- til haqidagi fanning bo'limlari: fonetika va fonologiya, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuasiya;
- til qurilishini o'rganish metodlari;
- jahon tillarining tasnifi.

Tilshunoslik fani sohadagi yechimini topmagan masalalarni ilmiy jihatdan hal etishda tarix, etnografiya, arxeologiya, psixologiya, fiziologiya kabi fanlarning materiallaridan foydalanadi. Masalan, tilning paydo bo'lishini to'g'ri anglash, tushuntirish uchun tarix, arxeologiya, etnografiya fanlarning xulosalariga tayanish zarur bo'ladi. Yoki yozuvning paydo bo'lishini ilmiy asosda tushuntirish uchun jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'sib borgan iqtisodiy va madaniy talablarni tarix, psixologiya, mantiq singari fanlarning yutuqlariga asoslangan holda izohlash maqsadga muvofiq. Nutq tovushlarining hosil

bo‘lishini va ularning xususiyatlarini to‘g‘ri anglamoq uchun esa odam anatomiysi va fiziologiyasi fanining asoslarini bilish lozim bo‘ladi. Nutq tovushlarining akkustik tomonini tushuntirish fizika fani natijalari orqali idrok etiladi.

Til ijtimoiy hodisadir. Til jamiyatda paydo bo‘lganidan hozirgi kungacha hamisha ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lgan, chunki kishilar jamoasida ijtimoiy mehnat jarayonida paydo bo‘lgan til o‘zaro aloqa bog‘lash, fikr almashishga xizmat qilgan. Til kishilik jamiyatida odamlar jamoasi ichida mavjud bo‘lgan ijtimoiy quroldir. Til bo‘limganda aloqa-munosabat, o‘zaro fikr almashish mumkin bo‘lmash edi.

Til tafakkur bilan, odamning fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Bizning fikrlarimiz til orqali ro‘yobga chiqadi, boshqalarga tushunarli bo‘ladi. Shuurimizdagi fikrlar oldindan tayyor holda mavjud bo‘lmaydi, ular so‘z vositasida shakllanadi. So‘zlar tushunchalarni ifodalaydi, fikr ana shu so‘zlar yordamida bildiriladi. Biroq til va tafakkur bir xil hodisa emas, tafakkur ongimizda paydo bo‘ladi, chunki u bosh miya faoliyatining mahsulidir. Til so‘zlar, gaplar bilan ish ko‘radi. Shu sababli uning qonun-qoidalarini tilshunoslik fani tekshiradi.

Til hamisha o‘zgarib turuvchi hodisadir, u jamiyatning rivoji bilan bog‘liq holda taraqqiy etadi. O‘zbek adabiy tili tarixiy jihatdan ikki bosqichga bo‘linadi:

1. Eski o‘zbek adabiy tili.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

Eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan yozma yodgorliklar o‘zbek xalqining tarixini hamda o‘zbek tilining rivojlanish darajasini o‘rganishda beqiyos manbadir. Yusuf Xos Hojib, Durbek, Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Hamza kabi ijodkorlarning barchaga tanish bo‘lgan mashhur asarlari tilimizning boyligi va jozibasini ko‘rsatishi bilan birga uning rivojlanish bosqichlaridan ham xabardor qiladi. Eski o‘zbek adabiy tili rivojida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Navoiy o‘zining ilmiy asarlarida, birinchi navbatda «Muhokamat-ul lug‘atayn» kitobida turkiy (o‘zbek) tilning so‘z boyligini fors-tojik tili bilan muqoyasa qilish orqali ilmiy asoslashga harakat qilgan. Alisher Navoiygacha turkiy (o‘zbek)

tilida badiiy asarlar yaratilgan bo‘lsa-da, hyech kim shu tilning boyligi va jozibadorligini dalillar yordamida ilmiy asoslab beruvchi kitobni yaratmagan edi. Ilmiy manbalardagi, xususan, Navoiyning badiiy asarlari tilini maxsus tadqiq etgan olimlarning e’tiroficha, shoir «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarida tilimiz boyligini dalillashda sinonim (ma’nodosh) so‘zlardan juda ko‘p foydalangan, pishiq-puxta xulosa va fikrlarni bayon etgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili eski o‘zbek adabiy tilining davomi bo‘lib, asrlar davomida ishlangan, sayqallangan va hozirgi talab va ehtiyojlarimizga mos bo‘lgan shaklidir. Odatda, umumxalq tilining yuqori shakli adabiy til sanaladi, u tilning mavjud qonuniyatlarini me’yorga solib turadi. Bu qonuniyatlar tilning fonetik, leksik va grammatik qurilishiga daxldordir. Ana shu qonuniyatlar shu tilda so‘zlovchi barcha kishilar uchun umumiylashtirilishi zaruriy hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili yozma va og‘zaki shakllarga ega. Bular idrok etishning ikki turi – ko‘rvuva shakli va eshituv uchun mo‘ljallangan, shunga ko‘ra ular leksik tarkib va grammatik vositalardan foydalanishi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Adabiy tilning ikki shakli orasidagi farq, avvalo, gapning sintaktik qurilishida ravshan ko‘rinadi. Sodda gaplarni, to‘liqsiz gaplarni ishlatish ko‘proq adabiy tilning og‘zaki shakli uchun xos. Bu shaklda ohang, imo-ishora va nutq vaziyati muhim ahamiyatga ega. Adabiy tilning yozma shakli esa o‘zining sintaktik qurilishi murakkabligi bilan ajralib turadi. Unda ergashgan qo‘shma gaplar, kirish so‘z va kirish gaplar, uyushiq bo‘laklar keng qo‘llaniladi. Yozma adabiy tilda kitobiy so‘zlar, atamalar, ruscha-baynalmilal so‘zlar ko‘p ishlatiladi.

Adabiy tilning og‘zaki shakli o‘zaro muloqotlarda, uning yozma shakli esa ilmiy va adabiy asarlarda, rasmiy ish qog‘ozlarida ishlatiladi. Biroq adabiy tilning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari orasida keskin chegara yo‘q. Ma’ruzalar, nutq va har xil chiqishlar o‘z xususiyati bilan yozma adabiy tilga yaqin turadi. Ayni paytda yozma adabiy tilda, badiiy asarlarda qahramonlarning nutq xususiyatlarini ishonarli ifodalash maqsadida oddiy so‘zlashuv nutqiga xos so‘z va iboralar ham ishlatiladi.

Adabiy tilning og‘zaki shakli oldin tashkil topgan, chunki u ashula va qo‘sishqlar, maqollar va hikmatli so‘zlar, dostonlar, topishmoq va ertaklar singari xalq og‘zaki ijodi asarlari zamirida taraqqiy etgan, og‘izdan og‘izga o‘tib ixchamlashgan, uning yagona umumiyligi me’yorlari asta-sekin shakllangan.

Adabiy tilning yozma shakli esa yozuv bilan bog‘liq bo‘lib, og‘zaki adabiy til asosida yuzaga kelgan umumiyligi me’yorlarni rivojlantirgan, sayqallashtirgan, qat’iy qolipga solgan.

O‘zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi kengayishi sababli uning lug‘at tarkibida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Adabiy til leksikasining taraqqiyot jarayoni uning yangi yasalgan va boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar hisobiga boyib borishi asosida davom etgan.

O‘zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti ichki qonuniyatlarini asosida grammatik qurilishining takomillashishi, lug‘at tarkibining boyishi, imlo va talaffuz me’yorlarining qat’iyashib borishi, uslubiy ifoda vositalarining yanada kengayishi bilan chambarchas bog‘liq holda davom etgan.

Tilshunoslikda nutq tovushlarini o‘rganadigan soha fonetika hisoblanadi. Fonetika yunoncha phone – «tovush» so‘zidan olingan. Agar nutqimizni mayda bo‘laklarga ajratadigan bo‘lsak, uning oxirgi bo‘linish nuqtasi tovushlar hisoblanadi. Demak, bo‘linishning oxirgi nuqtasi bo‘lgan, boshqa bo‘laklarga bo‘linish imkonini bo‘lmagan nutq bo‘lagi tovush hisoblanadi, u bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo‘limida o‘rganiladi. Tovush fonetik birlik hisoblanadi. Fonetika har qanday tovushni emas, balki ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan inson nutq tovushlarini o‘rganadi. Fonetika nutq tovushlarining hosil bo‘lishi, nutq apparati, nutq a’zolari, umuman tilimizdagi nutq tovushlari bilan bog‘liq fonetik o‘zgarishlarni o‘rganar ekan, tovushning uch tomoniga e’tibor qaratadi:

– nutq tovushlari nutq a’zolari harakati natijasida paydo bo‘ladi. Bu holat nutq tovushlarining fiziologik belgisi hisoblanadi.

– har qanday nutq tovushi havoning tebranishi natijasida paydo bo‘ladi. Tovushlarning bu jihatni akustik tomon hisoblanadi.

– nutq tovushlari bemaqsad talaffuz qilinmaydi, tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishi orqali ma'lum axborot uzatiladi. Bu nutq tovushlarining eng muhim vazifaviy tomoni hisoblanadi.

Fonetika bo'limida nutq tovushlari va ularning tasnifi, so'zning fonetik bo'linishi, so'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar, fonema, umuman bo'limga aloqador bo'lgan fonetik birliklar o'rganiladi. Fonologiya (grekcha phone – «tovush», «ovoz», logos – «ta'limot») tilshunoslikning bir bo'limi hisoblanib, unda nutq tovushlarining so'z va morfemalarni bir-biridan farqlash vazifasi o'rganiladi. Nutq tovushlarini fonologik jihatdan tekshirish muhim ahamiyatga ega. Nutq tovushlarini fiziologik-akustik tomondan o'rganish fonologiya bilan uzviy bog'liqdir.

Fonologiya sohasi nuqtai nazaridan qaralsa, nutq tovushlari fonema deb yuritiladi. Fonema eng kichik til birligi bo'lib, so'zlarni, morfemalarni o'zaro farqlashga xizmat qiladi. Masalan, dil va til, gul va kul so'zlarining tarkibidagi *d*, *t*, *g*, *k* tovushlari ularning boshqa-boshqa so'z ekanligini ko'rsatib turibdi. Ana shu ma'no farqlash vazifasini bajargan nutq tovushlari fonemalar sanaladi. Odatda fonemaning tovushga yoki tovushning fonemaga munosabati bir xil bo'lmaydi. Barcha fonemalar tovush hisoblanadi, biroq har bir nutq tovushni fonema deb bo'lmaydi. Masalan, tuz so'zida uchta nutq tovushi ishtirok etgan, unda uchta fonema ishtirok etgan deb hisoblash ham mumkin. Biroq tuz va buz so'zları qiyoslangan holatda har bir so'zda uchtadan fonema bor deb bo'lmaydi. Bunday holatda ikki so'zning ma'nosini bir-biridan farqlash uchun xizmat qilgan *t* va *b* tovushlarigina fonema sanaladi. Demak, o'quvchilarga fonema atamasini tushuntirishda qiyosiy jihatdan yondoshish samarali yo'ldir. Farqlovchi tovush (fonema) so'zning turli o'rinalarida bo'lishi mumkin: *soz* – *so'z*, *qol* – *ol*, *rasm* – *razm*, *qayt* – *qayd*, *otalik* – *otaliq*.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Umumiyl tilshunoslik fanining o'rganish sohasi nima?
2. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini hayotiy misollar asosida izohlang.
3. Tilning rivojlanishi nimalarga bog'liq?

4. O‘zbek adabiy tili atamasiga izoh bering.
5. O‘zbek adabiy tili tarixiy jihatdan necha bosqichga bo‘linadi?
6. Og‘zaki adabiy tilni izohlang.
7. Yozma adabiy tilni izohlang.
8. Eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan adabiy yodgorliklar?
9. Eski o‘zbek adabiy tili rivojida Alisher Navoiyning xizmatlari qanday?
10. «Muhokamat-ul lug‘atayn» kitobining ilmiy qimmati nimada?
11. Fonetika atamasining ilmiy izohi?
12. Fonologiya atamasining ilmiy izohi?
13. Fonema va tovush: umumiy va farqli jihatlar.
14. Fonetik birlik deganda nimani tushunasiz?
15. Fonetik birliklardan sanang va ularni izohlang.
16. Adabiy til, umumxalq tili, milliy til atamalarini izohlang.
17. Fonetik o‘zgarishlar deganda qanday hodisalarini tushunasiz?
18. Fonema atamasini izohlashda qiyosiy tahlilning o‘rni?
19. Tovush va harf: ularning munosabati va farqli tomonlari
20. Tilshunoslik fanining ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot bering.
21. Tilning boyligini namoyon etishda ma’nodosh so‘zlarning o‘rni?
22. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning bo‘limlari?
23. Adabiy tilni boyituvchi ichki manbalar nimalardan iborat?
24. Adabiy tilni boyituvchi tashqi manbalar nimalar?
25. Til birlamchimi, tafakkur?
26. Nutq apparati, faol va nofaol nutq a’zolari haqidagi tushunchalaringiz.
27. Nutq tovushlarining tasnifi haqida ma’lumotingiz.
28. Qo‘srimcha qo‘shilishi bilan so‘z asosida bo‘ladigan o‘zgarishlarga misollar keltiring.
29. Til oilalari va guruhlari haqidagi bilimlaringizni misollar bilan dalillang?
30. Sheva va adabiy til: aloqadorlik va farqlar.

**2-MAVZU: GRAFIKA (YOZUV) VA GRAFIK VOSITALAR.
ORFOGRAFIYA VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI.
ORFOEPIYA QOIDALARI**

(ma’ruza)

Reja:

1. Grafika – harf shakllarini o‘rganuvchi soha.
2. Grafik vositalar haqida tushunchalar. Harf va tovush orasidagi munosabat.
3. Orfografiya bo‘limi va uning o‘rganish sohasi. Orfografiya qoidalari va tamoyillari.
4. Orfoepiya qoidalari haqida ma’lumot. Talaffuz me’yorlari.

Tayanch so‘zlar: grafika, grafik vositalar, harf, orfografiya, orfografiya tamoyillari, imlo qoidalari, fonetik, morfologik, shakliy yozuv tamoyillari, orfoepiya qoidalari, talaffuz me’yorlari.

Grafika nutq tovushlarining yozuvdagagi ifodasi bo‘lgan harf shakllarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi. Lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuvida 30 ta shakl mavjud bo‘lib, shulardan 29 tasi nutq tovushlarini yozuvda ifodalovchi harflardir. Bittasi – tutuq belgi grafik shakl hisoblansa-da, tovush ifodalamaydi. Savod o‘rganish jarayonida o‘quvchilar harf shakllari bilan birga nutq tovushlari haqida ham muayyan bilimlarga ega bo‘lishadi. Ana shu bilim va hosil qilingan ko‘nikmalar ta’limning keyingi bosqichlari uchun poydevor hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda harf nima, tovush nima degan savollarga javobni e’tiborli o‘quvchi albatta topadi. O‘qituvchi tomonidan berilgan asosli javobni yaxshi o‘zlashtira olmagan ayrim loqayd o‘quvchilarning harf o‘rniga tovush, tovush o‘rniga harf atamasini noo‘rin qo‘llashi tabiiy hol. Vaholanki, mazmunan bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladigan bu ikki atama tilshunoslikning ikki bo‘limiga daxldor tushunchalarni anglatadi. Tovush harfning talaffuzdagi ifodasi, harf esa tovushning yozuvdagagi belgisidir. Shu sababli o‘qituvchi harf va tovush haqidagi mulohazalariga oydinlik kiritib, harf yoziladi, ko‘riladi, tovush esa talaffuz qilinadi, eshitiladi mazmunidagi fikrlarini ilova qilishi har

jihatdan o‘rinli. Demak, tovush va harf atamalarini farqlashni o‘rganishimiz kerak. Tovush nutqqa xos bo‘lsa, harf yozuvga xosdir. Tovushga nisbatan harfning vazifasi ancha chegaralangan bo‘ladi.

Grafik vositalar deganda yozma nutqimizni shakllantiruvchi harf va belgilarni tushunamiz. Odatda ta’lim oluvchiga har bir tovushni ifodalash maqsadida yozuvda bir harf belgilangani haqida tushunchalar beriladi. Ayrim tovushlar harf birikmalari orqali ifodalangani ta’kidlanadi.

Orfografiya bo‘limi so‘z va qo‘sishimchalarning to‘g‘ri yozilishi haqidagi bilimlarni o‘rgatadi. «Orfografiya (yunoncha orthos – «to‘g‘ri», grapo – «yozaman») – to‘g‘ri yozish me’yorlari haqidagi soha»¹. Orfografiya to‘g‘ri yozish qoidalaridan saboq berar ekan, u muayyan darajada puxta ishlab chiqilgan qoidalarga, tamoyil va me’yorlarga tayanadi. Orfografik me’yorlar tilda mavjud bo‘lgan orfoepik, leksik va grammatik me’yorlardan farqli holda yozma nutqning xarakterli xususiyatini ochib beradi. Adabiy tilni to‘liq egallash uchun esa til me’yorlarini to‘liq bilish va ularga amal qilish shart.«Orfografiya tovush va harflar, so‘z va uning ma’noli qismlari, qo‘shma so‘z qismlarining qo‘sib, ajratib va chiziqcha orqali yozilishi, bo‘g‘in ko‘chirish hamda bosh va kichik harflarni ishlatish haqidagi yagona qoidalar sistemasidan iborat. Orfografiya yozuv vositalari orqali so‘z va morfemalarning yozilishini tartibga soladi»², – deya izoh beriladi «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida.

Haqiqatan ham, imlo qoidalari xalq tomonidan e’tirof etilgan, mukammal ishlab chiqilgan va vakolatli muassasa tomonidan tasdiqlanib, muomalaga kiritilgan yo‘riqnomalardir. Bu yo‘riqnomalardan ko‘zlangan asosiy maqsad yozuv jarayonida har xillikka yo‘l qo‘ymaslik, qoidalarning yagonaligini ta’minlashdir. Bunday qoidalar har kuni shakllantirilmaydi, o‘zgarmaydi. Ularni mensimaslik, noo‘rin o‘zgartirishga bo‘lgan har bir harakat ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: savodsizlik, yozuvdagi qat’iy

¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. Тошкент., «Ўзбекистон» нашриёти, 1992. 45-бет.

² Ўша манба, 46-бет.

me'yorlarning buzilishi, yozuvda har xillik, odamlarda tasdiqlangan imlo qoidalariiga nisbatan ishonchhsizlik...

Xalqimiz o‘z tarixida turli yozuvlardan foydalangan, ayrimlari hukmron mafkura ta’sirida majburiy, ayrimlari ixtiyoriy tarzda joriy etilgan. Yozuv insoniyatning buyuk kashfiyoti bo‘lish bilan birga uning tez-tez o‘zgartirilishi xalq ma’naviy hayotida salbiy oqibatlarga olib kelgan. Ma’lum bir yozuvda yaratilgan merosdan ikkinchi yozuv joriy etilishi bilan uzoqlashish kuzatilgan. Xuddi kirill va lotin yozuvlari joriy etilgach, arab yozuvidagi adabiy manbalardan uzoqlashganimiz kabi. Shu sababli, fikrimizcha, yozuv qanchalik uzoq muddat foydalanilsa, xalqqa shunchalik shart-sharoit yaratilgan bo‘ladi.

1940 -yil 8 -mayda xalqimiz majburiy sur’atda kirill grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuviga o‘tkazildi. Ijtimoiy sabablar natijasida bu yozuvning imlo qoidalari ishlab chiqish ancha kechikdi. Nihoyat, mazkur yozuvning imlo qoidalari ishlab chiqilib, 1956- yil 4- aprelda tasdiqlandi. 72 banddan iborat bo‘lgan bu qoidalarga yillar davomida amal qilinib, xalqimizning yozma savodxonligi oshdi.

1993- yil 2- sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun qabul qilinishidan oldin ma’lum muddat tayyorgarlik ishlari olib borildi va muhokama uchun qonun loyiha matni hozirlandi, matbuotda e’lon qilindi. Aytish o‘rinlikni, bu qonun xalqimizning irodasi, ixtiyori bilan qabul qilindi. Qonun ijtimoiy talablardan kelib chiqilgan holda hayotga tadbiq etildi.

1995- yil 6- mayda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi qonun qabul qilindi. O‘zgartirish sabablari va izohi matni loyihasi matbuotda dastlab e’lon qilingan edi. Mazkur o‘zgartirishlar sabab o‘zbek alifbosi 30 shakl (harflar va tutuq belgisi)ga ega bo‘ldi. 26 harf, 3 harf birikmasi va 1 tutuq belgisi joriy etildi.

1995- yil 24- avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qaroriga binoan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlandi. Imlo qoidalari 7 bo‘lim (82 band)dan iborat

tarzda amaliyotga joriy etildi. Shu qoidalarga amal qilingan holda imlo lug‘atlari ishlab chiqildi.

So‘nggi yillarda tilimiz saviyasini oshirish, lotin yozuviga to‘liq o‘tishni jadallashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu fikrning isbotini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bir qancha nutq va chiqishlaridagi fikr-mulohazalarida ko‘rishimiz mumkin. Prezident Sh.Mirziyoyevning dav’atlariga javoban va hamohang tarzda yuqorida tilga olingan 82 bandli imlo qoidalarini chuqur o‘rganish va o‘rgatish, ongli ravishda yozuv savodxonligini oshirish, xalq o‘rtasida keng targ‘ibot ishlarini kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Hamma sohada me’yor, mezon bo‘lgani kabi yozuvimizning tasdiqlangan qoidalaridan chekinmaslikni ta’minalashimiz zarur.

O‘zbek orfografiyasi quyidagi tamoyillariga tayanadi:

1. *Fonetik tamoyil*. Bu tamoyilga ko‘ra so‘zlar talaffuz qilinishiga mos ravishda yoziladi. So‘zning talaffuz jarayonida yuz bergan fonetik o‘zgarishlari hisobga olinadi. Fonetik tamoyilni soddarоq tushuntiradigan bo‘lsak, so‘z asosiga affiks morfema qo‘shilishi natijasida qandaydir fonetik o‘zgarish yuzaga kelishi kuzatiladi. Shu sababli fonetik tamoyil asosida yozilgan so‘zlarni aniqlash mazmunidagi savollarga gapdagi yo tovush tushgan, yo almashgan so‘zlarni javob sifatida belgilaymiz. Masalan, etik so‘zining turlanishiga e’tibor qarataylik: etigim, eticing, etigi, etigimiz, eticingiz. Bunda asosdagi *k* tovushi *g* tovushi bilan almashgani sabab so‘zlar shu tamoyil asosida yozilgan deb qaraladi; shahrim, shahrинг, shahri, shahrimiz, shahrингiz kabi so‘zlarning asosiga egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan *a* unlisining tushib qolishi kuzatiladi. Taroq, tirnoq, qaynoq, qiynoq, buyoq singari so‘zlarning asosiga *q* so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida *a* unlisining *o* unlisiga almashishi ro‘y beradi. Ana shunday fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan so‘zlarni fonetik tamoyilga asoslanib yozilgan so‘zlar sirasiga kiritamiz.

2. *Morfologik tamoyil*. Bu tamoyilga ko‘ra so‘z va uning qismlari, morfemalar qanday aytilishi hamda eshitilishidan qat’iy nazar har doim yagona bir shaklda yoziladi. Shunga ko‘ra morfologik tamoyil yozuvda bir xillikni ta’minalaydi, har xillikka yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, ketti,

chopti, yuripti, chettan, yigichchilik kabi so‘zlar aytishiga qaramasdan ketdi, chopdi, yuribdi, chetdan, yigitchilik ko‘rinishida yoziladi. Demak, bu tamoyilda so‘zlarning aytishi bilan yozilishi bir-biriga mos kelmaydi.

Tilshunos olimlar G‘. Abdurahmonov, H.Rustamovlar morfologik tamoyil haqida so‘z yuritib, nutqimizda ko‘p uchrab turadigan xarakterli misollarni keltiradi: «*iston* (so‘z yasovchi), *-inchi* (tartib son), *-ib* (ravishdosh), *-il*, *-in* (fe’l nisbatlari) yasovchi qo‘shimchalar; *-ish*, *-imsiradi* (lug‘aviy shakl yasovchi) qo‘shimchalari negizida *-u* bo‘lgan fe’llarga qo‘shilganda *-u(yu)* tovushlariga moyil aytildi: guloston, kulub, tug‘uldi, uchunchi. Lekin har vaqt aslicha (*-ib*, *-il*, *-inchi*) yoziladi: kulib, tug‘ildi, uchinchi, urishdi (xafa qildi), guliston va boshqa»³. Shu singari misollar tahliliga tayanib, morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining yetakchi tamoyilidir degan xulosaga kelinadi.

3. *An’anaviy tamoyil*. Bunda so‘z va morfemalar qadimdan an’anaga aylanib qolgan qoidalar asosida yoziladi. bu tamoyilga ko‘ra so‘zning aytishi uning yozilishidan farq qiladi, biroq bu morfologik tamoyilning aynan o‘zi emas. Bu tamoyil asosida yozilgan so‘zlar ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lib, ularning ikkala shakli ham imlo jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi: kaptar – kabutar, muomala – muomila, badtar – battar kabi.

4. *Shakliy yozuv (tamoyil)* – o‘zbekcha so‘zlarning boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi, ular orasida juda qisqa bo‘lsa ham *-i* yoziladi: bir, sir, qizil, bilan, qiz. Biroq stol, drama, shtab, klub, kross, prokuror, tramvay, trolleybus, traktor, fikr, hukm kabi so‘zlar boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon yoziladi va bu shakliy yozuv hisoblanadi. Bunda rus va boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar o‘sha tillarda qanday yozilsa, shunday yozamiz: monolog, zoologiya, monografiya, pasport, institut, universitet, stadion kabi.

Orfoepiya o‘zbek tilshunosligining bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda to‘g‘ri so‘zlash qoidalari haqida bahs yuritiladi. «Orfoepiya (grekcha orthos – «to‘g‘ri», epos – «nutq», «so‘zlash») tildagi so‘z va uning

³ Абдурахмонов F., Рустамов X. Она тили, (10-11 синфлар учун дарслик). Тошкент, «Ўқитувчи», 1995. 16-бет.

qismlarini adabiy talaffuz etish qoidalari to‘plamidan iborat. Talaffuz me’yorlari og‘zaki nutqqa xosdir»⁴.

Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotda to‘g‘ri so‘zlash juda muhim ahamiyatga ega. Orfoepiya qoidalari adabiy talaffuz madaniyatini oshirishga, uni bir tizimga solishga ko‘maklashadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, orfoepik talaffuz me’yorlari o‘z asoslariga ega bo‘lib, u orfografiya me’yorlaridan farq qiladi. Gap shundaki, ayrim hollarda so‘z va uning qismlari qanday yozilgan bo‘lsa, xuddi shunday talaffuz qilinmaydi. Talaffuz me’yorlari adabiy til bilan birgalikda shakllanadi. Adabiy talaffuz me’yордан chetga chiqish ko‘proq jonli so‘zlashuv va mahalliy shevalar ta’sirida yuz beradi: *gapni* o‘rniga gappi yoki gapti, *kelyapman* o‘rniga kelyappan kabi.

Talaffuz me’yorlari qat’iylashgan va tilimizning orfoepik lug‘atida so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz shakli berilgan bo‘lsa ham nutqiy xatolar uchrab turadi: zarul, duvol, hyechtima, tommi, uch matta.

Talaffuz me’yorlariga rioya qilish urg‘u, to‘xtam, ohang, unli va undoshlarning orfoepiyasi kabilarga bog‘liq hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Grafika va uning o‘rganish obyekti.
2. Harf va uning izohi.
3. Tovushni ifodalaydigan harflar haqida ma’lumot.
4. Tovush ifodalamaydigan shakllar haqida tushuncha.
5. Grafik vositalar haqida ma’lumot bering.
6. Grafik belgilari haqida ma’lumot.
7. Orfografiya – yozma savodxonlik asosi.
8. Harf va tovushlar izohi, ular o‘rtasidagi munosabat.
9. Orfografiya (imlo)ning o‘rganish sohasi.
10. Orfografiya atamasining ilmiy ta’rifi.
11. Orfografiya tamoyillari haqida ma’lumot.
12. Fonetik tamoyil haqida.
13. Morfologik tamoyil haqida.
14. Shakliy yozuv haqida.

⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент., «Ўзбекистон» нашриёти, 1992. 35-бет.

15. Orfografiya qoidalari haqida ma'lumot yozing.
16. Orfografiya qoidalari qachon qabul qilingan?
17. Orfografiya qoidalari necha banddan iborat va ularning izohi.
18. Orfografiya qoidalalarini qabul qilinishiga zaruriyatni izohlang.
19. Kirill grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi necha banddan iborat?
20. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi necha bo'limdan iborat va bo'limlarning nomlanishini izohlang.
21. Orfoepiya atamasining ilmiy izohi.
22. Talaffuz va yozuv o'rtasidagi munosabatga izoh bering.
23. Talaffuz me'yorlariga amal qilishning ijtimoiy ahamiyati.
24. O'zbek xalqi foydalangan yozuv shakllari.
25. Imlo lug'atlardan to'g'ri foydalanish yuzasidan mulohazalar.
26. Imlo qoidalalarini to'g'ri anglash, tushunish va amalda foydalanish yozma savodxonlikning mezoni.
27. Yozuvning tez-tez o'zgartirilishining ijtimoiy salbiy oqibatlari.
28. To'g'ri talaffuz – to'g'ri yozishning zaruriy sharti.
29. Orfoepiya nima uchun o'zbek tilshunosligining amaliy bo'limi?
30. To'g'ri talaffuz jarayonida urg'uning o'rni va ahamiyati.

3-MAVZU: LEKSIKOLOGIYA, UNING OBYEKTI, TURLARI, VAZIFALARI, FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR. LEKSIKOGRAFIYA (LUG‘ATSHUNOSLIK) (ma’ruza)

Reja:

1. Leksikologiya va uning o‘rganish sohasi.
2. Leksikologiya bo‘limida o‘rganiladigan lug‘aviy birliklar va ularning izohi.
3. Frazeologik birikmalarning xususiyatlari.
4. Lug‘atshunoslik sohasida erishilgan yutuqlar.

Tayanch so‘zlar: leksikologiya, leksik birliklar, lug‘at, lug‘at tuzish nazariyasi va amaliyoti, frazeologik birikmalar, so‘zning atash ma’nosi, so‘zning ko‘chma ma’nosi, so‘zning leksik tahlili, lug‘at turlari, sinonim, omonim, antonim, paronim so‘zlar, so‘z ma’nosining ko‘chishi.

Leksikologiya – grekcha lexikos – «lug‘atga oid» va logos – «ta’limot» so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Leksikologiyaning tarkibiy qismlaridan biri – etimologiyadir. Etimologiya – grekcha etymon – «haqiqat» va logos – ta’limot so‘zlarining birikuvidan tuzilgan. Leksikologiyaning yana bir tarmog‘i semasiologiyadir. Semasiologiya – grekcha semasia – «belgi», «tamg‘a» va logos – «ta’limot» so‘zlarining birlashuvidan hosil bo‘lgan. U so‘zlarning va iboralarning ma’no xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiya tilimizda mavjud so‘zlarning atash (lug‘aviy, leksik) ma’nolarini o‘rgatadigan tilshunoslikning bo‘limi hisoblanadi. Biz biladigan so‘zlar narsa – buyum, belgi, rang, miqdor, holat, sabab, maqsad, harakat, payt, o‘rin va boshqa ma’nolarni anglatadi. Aslida so‘zlarning shu kabi ma’nolari ularning atash ma’nolari hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlangan atash ma’nolar so‘zlarning mustaqil va yordamchi turkumlarga bo‘linishining ham asosiy shartidir. Mustaqil so‘z turkumlari (fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh) atash ma’nosiga ega bo‘lsa, yordamchi so‘z turkumlari (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama)

bunday xususiyatga ega emas. Yanada soddarоq tushuntiradigan bo‘lsak, narsa-buyum anglatadigan so‘zlar – ot, belgi anglatadigan so‘zlar – sifat va ravish, miqdor va tartib anglatadigan so‘zlar – son, holat, maqsad, payt, o‘rin kabi ma’noni anglatadigan so‘zlar – ravish, harakat va holat anglatadigan so‘zlar – fe’l hisoblanadi. Yuqorida sanalgan so‘zlarga ishora qiluvchi turkum esa olmosh hisoblanadi. Shundan ko‘rinadiki, faqatgina mustaqil so‘z turkumlari atash ma’nosiga ega so‘zlardir. Masalan, o‘quvchiga yanada sodda ko‘rinishda tushuntirish maqsadida qalam so‘zining atash ma’nosи ustida to‘xtalaylik. Qalam deganda birinchi navbatda ko‘z oldimizga yozish uchun mo‘ljallangan qurol keladi. Ana shu tasavvur aslida *qalam* so‘zining atash ma’nosidir. Yoki *qizil* so‘zi so‘ralganda, uning atash ma’nosи rang anglatishi ekanligini bilish o‘quvchi uchun kifoya. Ko‘pincha o‘quvchilar so‘zning atash ma’nosи so‘ralganda ma’lum bir turkumiga mansubligini, shu turkumga xos belgi – sifatlarni sanashga harakat qilishadi. Ba’zan so‘zning gapdagi sintaktik vazifasini aytish orqali o‘z javoblarini yanada to‘liqroq qilishga erishmoqchi bo‘lishadi. Vaholanki, o‘quvchilarning bunday harakati so‘zning atash va grammatik ma’nolari haqida yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega emasligining oqibatidir. So‘zlarning biror turkumga tegishli ekani, gap tarkibida sintaktik aloqa mavjudligi sababli, biror gap bo‘lagi vazifasida kelishi aslida ularning grammatik ma’nosи ekanligini yaxshi tushunib yetishlari kerak.

So‘z bilan u atagan narsa, belgi, harakat, miqdor, o‘rin, sabab, maqsad, holat o‘rtasida bevosita bog‘lanish yo‘q. «Tilshunoslikka kirish» kitobida «...so‘z bilan narsa va hodisa o‘rtasida bevosita bog‘lanish bo‘lganda edi, ayni bir narsa har xil tillarda turlicha nom bilan atalmagan bo‘ldi, masalan: rus tilidagi *stol* so‘zi nemis tilida *tesch*, ingliz tilida *table* deb ataladi yoki o‘zbek tilidagi *tosh* so‘zi rus tilidan *kamen*, ingliz tilida *stone*, nemis tilida *stein* va hokazo»⁵ deyilgan. Mulohaza qilib ko‘rilganda turlicha atalgan so‘zlar mohiyat jihatdan bir narsani anglatmoqda.

⁵ Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1992. 95-бет.

Har bir atash ma’no aniq bir so‘zga daxldor bo‘ladi. O‘zi anglatgan narsa, tushunchaga nisbatan olingan atash ma’no umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, qulqoq so‘zi bir vaqtning o‘zida ham odamning qulog‘i, ariqning qulog‘i, qozonning qulog‘ini anglatish mumkin. «So‘zlarning leksik ma’nosini to‘g‘risida gap borganda, dastlab ularning tildagi ma’nolari bilan nutqdagi ma’nolarini farqlash zarur, – deydi tilshunos olim M.Irisqulov. – So‘zlarning aniq, muayyan ma’nolari faqat nutqda aniq bo‘ladi»⁶. Shunga ko‘ra atash ma’noni narsa va hodisalar munosabatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: atash ma’no, to‘g‘ri (asl) ma’no, ko‘chma ma’no, istiora, metanimiya, sinekdoxa kabi.

Leksikologiyaning o‘rganish obyekti so‘zdir. Tilshunoslikda so‘zning shakli morfologiya bo‘limida o‘rganilsa, uning ma’no xususiyatlari leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi.

Leksikologiya bo‘limida ko‘plab leksik birliklar tilga olinadi. Sodda qilib tushuntirganda bo‘lim doirasida o‘rganilib, boshqa bo‘limlarda tilga olinmaydigan atamalar shu bo‘limning leksik (lug‘aviy) birliklari sanaladi. Fikrimizcha, bo‘lim haqida to‘laqonli taassurot unga daxldor atamalar bilan tanishish, anglash orqali hosil bo‘ladi. Shu maqsadda quyidagi leksik birliklarni sanash va ayrimlari haqida tushuncha, qisqacha ma’lumot berish maqsadga muvofiqdir: asl ma’no, ko‘chma ma’no, leksik birlik, atash ma’no, metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, sinonim, omonim, antonim, paronim, bir ma’nolik, ko‘p ma’nolik, eskirgan so‘zlar, tarixiy so‘zlar, yangi so‘zlar, vulgar so‘zlar, varvarizmlar, jargon so‘zlar, uyadosh so‘zlar, dominant so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, lahjalar, tasviriy ifodalar, iboralar...

Biz yuqorida sanagan atamalar tilshunoslikning boshqa bo‘limlarida tilga olinmaydi, chunki ularning o‘zida ham bo‘limga tegishli ko‘plab atamalar mavjud. Demoqchimizki, har bir bo‘limni o‘rganish va o‘rgatish atamalardan, til birliklaridan boshlanishi tabiiy. Leksik birliklar haqidagi mulohazalarimizni sinonim so‘zlarga oid fikrlarimiz bilan asoslamoqchimiz.

⁶ Ўша манба. 99-бет.

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) haqida tilshunoslikda ikki xil ta'rif mavjud:

- a) shakli har xil, ma'nosi bir xil so'zlar;
- b) bir tushunchaning turli ma'no qirralarini ifodalaydigan so'zlar.

Mulohaza qilib ko'rilsa, birinchi ta'rifdagi xatolikni anglash qiyin emas. Masalan, sinonim so'zlar sinonimik qatorlarni hosil qiladi. har bir sinonimik qatorda kamida ikkita ma'nodosh so'z ishtirok etishi kerak. Sifat so'z turkumida chiroqli, go'zal, suluv, xushro'y, dilbar, barno, lobar kabi so'zlardan iborat sinonimik qator mavjud. Bu qatordagi sinonim so'zlar uslubiy talabga ko'ra o'z o'rnida, to'g'ri qo'llanilishi kerak: barno yigit, dilbar ayol, chiroqli manzara, go'zal qiz kabi. Yuqoridagi birinchi ta'rifga ko'ra bu sinonim so'zlarning birini o'rnida ikkinchisini har doim ham qo'llash imkonini yo'q. Agar ma'nosi bir deya nutqda qo'llansa uslubiy xatoga yo'l qo'yilishi aniq.

Bizningcha, ikkinchi ta'rif sinonim so'zlarning mazmun-mohiyatini ochib berishda o'rinlidir. Chunki unda tushuncha bir bo'lsa ham, ma'no qirralari har xilligiga urg'u berilmoqda. Haqiqatan ham sinonim so'zlarning ma'nosida nozik farq bor. Solishtiramiz:

katta uy, gigant uy;
chiroqli kitob, dilbar ayol;
qiz tabassum qildi, qiz iljaydi.

Ushbu misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'rnini almashtirib qo'llash uslubiy g'alizlikni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda so'zlovchi sinonim so'zlarning ijobiy yoki salbiy, bo'yoqdor yoki bo'yoqsiz, uslubiy betaraf ekanligini ham e'tiborga olishi zarur. Masalan: jilmaydi (ijobiyl) – tirjaydi (salbiy); xunuk (bo'yoqsiz) – badbashara (bo'yoqdor).

Omonim va ko'p ma'noli so'zlarning shakliy jihatdan bir xil ko'rinishda ekanligi ularni o'rganishda muayyan jihatlarni e'tiborga olishni taqozo qiladi. Ko'p ma'noli so'zlar bir xil shaklga ega bo'lgan bitta so'z hisoblansa, omonim so'zlar esa bir xil shaklga ega bo'lgan har xil ma'nodagi so'zlardir.

Ko'z (odamning ko'zi)
Ko'z (daraxt ko'zi)

Ko‘z (buloq ko‘zi)

Ko‘z (ishning ko‘zi)

Qo‘y (hayvon)

Qo‘y (biror narsani joyiga qo‘y)

Qo‘y (inkor ma’nosida: qo‘y, uni menga gapirma)

Endi qo‘y va ko‘z so‘zlari misolida ko‘pma’nolilik va omonimlikni taqqoslaylik. Ko‘z so‘zi ko‘p ma’noli so‘z, chunki unda bosh ma’no bor (odamning ko‘zi), qolgan ma’nolar esa ko‘chma ma’no hisoblanib, ular bosh ma’noga bog‘langan ma’nolardir. Qiyosiy jihatdan qaralsa ham ko‘chma ma’nolarda bosh ma’noga o‘xhash tomonlar bor. Ko‘z oldingizga keltiring: daraxtning ko‘zida, buloqning ko‘zida odam ko‘ziga nisbatan nisbiy o‘xhashlik mavjud. Shunga tayanib yuqorida keltirilgan ko‘z so‘zining ma’nolarini ko‘p ma’no hisoblasak ham, ularni bitta so‘z deb e’tirof etamiz. Ko‘p ma’noli so‘zlar qancha ma’noga ega bo‘lsa ham, bu ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘ladi degan xulosaga kelamiz. Qolaversa, mana shu xulosa ko‘p ma’noli so‘zlarni omonimlardan farqlovchi asosiy xususiyat sanaladi.

Omonim so‘zlarning har biri ma’nosiga ko‘ra mustaqil, alohida-alohida so‘zlar hisoblanadi. Yuqoridagi qo‘y so‘zining ma’nolarida umuman bog‘lanish yo‘q, har bir alohida tushunchani ifodalamoqda. Chang, tor, oy, may, qit’a, tort, ot, ol, rasta, palata, kadr singari omonim so‘zlarning ma’nolarini qiyoslaganda ham fikrlarimizning isbotini topasiz.

Frazeologik birikmalarning- iboralarning ma’no xususiyatlarini o‘rganish, ularning tilimizda so‘z, qo‘shma so‘z kabi tayyor til materiali bo‘lib qo‘llanishi, barqaror birikmalarning boshqa turlari (maqol va matallar, hikmatli so‘zlar) bilan o‘xhash hamda farqli tomonlari, iborani tashkil etgan so‘zlarning o‘zaro zich bog‘langanligi, matn ichida qo‘llanilgan iboralarning chegarasi (birinchi va oxirgi so‘zi)ni to‘g‘ri belgilash, gap tarkibidagi iboralarning sintaktik tahlilini to‘g‘ri amalgalashirish kabi xususiyatlarini bilish o‘rganuvchilar uchun juda qiziqarli. Shu kabilarni mustaqil o‘rganishga qiziqtirish o‘quvchining o‘z ustida ishlashiga, izlanishiga turki beradi. «...mustaqil ishlashni to‘g‘ri tashkil etish uchun, avvalo, o‘qituvchi mavzuga maqsadli yondoshib, aniq bir

topshiriqni berishi, o‘quvchining idroki va ijro etish qobiliyatini his qilishi kerak»⁷. O‘quvchi matn ustida ishlaydi, undan iboralarni topishga, ma’no butunligini saqlagan holda leksik tahlil qilishga odatlanadi. So‘zlarda bo‘lgani kabi iboralarda ham shakl va ma’no jihatdan to‘rt turga bo‘linish mavjudligi bilan tanishadi:

a) sinonim iboralar – shaklan har xil, biroq ma’no xususiyatlari bir-biriga yaqin iboralar: «do‘ppisini osmonga otmoq», «boshi osmonda» iboralari «juda xursand», «nihoyatda shod» ma’nolarini ifodalashi bilan ma’nodoshdir.

b) omonim iboralar – shakldosh iboralar bo‘lib, ular mazmunan har xil tushunchalarni ifodalab keladi. Shu sababli testlarda keltirilgan omonim iborani belgilash haqidagi topshiriqqa javob topish o‘quvchidan ko‘proq o‘ylashni, mulohaza qilishni talab qiladi. Agar sinonim iboralarni topishda ularni bir-biriga taqqoslash imkon bo‘lsa, omonim iborada bunday imkon bo‘lmaydi. Masalan, «gap tegdi» iborasi «gapishtga imkon berildi» va «tanbeh eshitdi» kabi ikki xil izohlanishiga ko‘ra omonim ibora hisoblanadi. Demak, sinonim iboralarni topishdan ko‘ra omonim iboralarning ma’nosini izohlashga, izlashga ko‘proq vaqt sarflanadi.

v) antonim iboralar – so‘z antonimlar kabi ma’no jihatdan zidlikka ega bo‘ladi. Antonim iboralarni topishda ikki iboraning ma’nolarini to‘g‘ri belgilash va qiyoslash orqali ularning antonimligini aniqlash eng ma’qul yo‘ldir. Masalan, «ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi». «qovog‘idan qor yog‘adi» iboralarining ma’nolari lug‘atda «nihoyatda xafa» deb izohlansa, «og‘zi qulog‘ida», «boshi osmonda» iboralarining ma’nosи «xursand». «shod» deb tushuntiriladi. Demak, bu kabi iboralar ma’nosidagi zidlikni ular ifodalagan ma’nolarni bir-biriga qiyoslash orqali aniqlash to‘g‘ridir.

g) paronim iboralar tarkibidagi bir so‘z bilan farqlanadi. Paronim so‘zlarda esa bir harf bilan farqlash, aytilishida yaqinlik, ma’noda har xillik kuzatiladi. Paronim iboralarda esa ma’nolardagi yaqinlik saqlanib qoladi. «Boshida yong‘oq chaqmoq» va «boshida danak chaqmoq»

⁷ Номозов А. Матнаги ибораларни аниклаш ва уларнинг хусусиятларини ёзма изоҳлашга ўкувчиларни ўргатиш. «Тил ва адабиёт таълими» журнали, 2020 йил 2-сон. 25-бет.

iboralarini misol tariqasida solishtiraylik. Bu iboralar bir-biridan yong‘oq va danak so‘zlari ishtirokiga ko‘ra farqlanadi, biroq ikkalasi ham «ortiq darajada azoblamоq», «qiynamoq» ma’nosini ifodalashi bilan paronim ibora hisoblanadi.

Lug‘atshunoslik (leksikografiya) sohasi tildagi barcha so‘zlar, ularning tarixi, izohi, kelib chiqishi, imlosi singari muhim masalalar bilan shug‘ullanadi. Leksikografiya – grekcha lexicon – «lug‘at» va grapho – «yozaman» so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan.

Mukammal tuzilgan lug‘atlar, odatda, u yoki bu tilning boyligini o‘zida jamlaydi. Birgina «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da 85000 dan ziyod so‘z va birikmalarning izohi berilishi tilning boyligini ko‘rsatishi bilan, «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»da berilgan so‘zlar yozma savodxonligimizni ta’minalashga xizmat qilishi bilan qadrlidir.

Ilmiy adabiyotlarda lug‘at tuzish amaliy ish, zahmatli, uzoq muddatli mehnat, izlanish jarayonida paydo bo‘ladigan kitob ekanligi haqida ma’lumotlar bitilgan. E’tiborlisi shuki, lug‘at bir kishi yoki jamoa mualliflar hamkorligida yaratiladi, biroq undan foydalanuvchilarning miqdori ko‘p bo‘ladi. O‘zbek tilshunoslari G‘.Abdurahmonov, Z.Ma’rufov, O.Usmon, V.Rahmonov, Sh.Shukurov, A.Madvaliyev, N.Mamatov, A.Hojiyev, S.Ibrohimov, S.Akobirov, A.Rustamov, Sh.Rahmatullayev, R.Qo‘ng‘urov, H.Uzoqov, Sh.Shoabdurahmonovlar tilshunoslikning turli sohalariga bag‘ishlab, ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib lug‘atlar yaratishgan. Ular yaratgan lug‘atlar bugungi kunda xalqimiz uchun beminnat xizmatda. Bugungi kunda izohli, tarjima, imlo, etimologik, morfem, orfoepik, chappa, sinonim, omonim, antonim, paronim so‘zlar va boshqa lug‘atlar tilimizning bo‘limlarini chuqurroq o‘rganish yo‘lida o‘ziga xos ko‘makchi yo‘riqnomalardir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Leksikologiya bo‘limining o‘rganish sohasi haqida ma’lumot bering?
2. So‘zning atash ma’nosi haqida fikrlaringiz?
3. Leksik birliklar haqida tushunchalaringiz?

4. So‘zning o‘z ma’nosи qanday aniqlanadi?
5. So‘zning ko‘chma ma’nosи qanday aniqlanadi?
6. Qanday so‘zlar atash ma’nosiga ega?
7. Qanday so‘zlar atash ma’nosiga ega emas, nega?
8. Metafora nima, metanimiya-chi?
9. Sinekdoxa asosida ma’no ko‘chishini izohlang.
10. So‘zning leksik tahlilini misol keltirib asoslang.
11. Lug‘at tuzish amaliyoti nima?
12. Lug‘atshunos olimlarimizdan kimlarni bilasiz?
13. O‘zbek lug‘atshunoslari tomonidan yaratilgan lug‘atlarga misollar keltiring.
14. Izohli lug‘atning vazifasi nima, imlo lug‘atniki-chi?
15. Lug‘atlar dastlab necha turga bo‘linadi?
16. Lug‘atlarda so‘zlar nima uchun alifbo tartibida joylashadi?
17. Iboralar bo‘yicha lug‘atlar tuzilganmi?
18. Barqaror birikmalarga nimalar kiradi?
19. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, musichaday beozor iboralarining ma’nosи qaysi lug‘atda izohlanadi?
20. «Lug‘at – alfavit tartibida joylashtirilgan voqyelikdir» (Anatol Frans) jumlasini qanday izohlaysiz?
21. Leksik birlklardan 10 tasini sanab bering?
22. So‘zlarning shakl va ma’no jihatdan turlaridan qaysi biri tilni boyitadi, qaysi biri kambag‘allashtiradi?
23. Qanday so‘zlar bosh ma’noga ega bo‘ladi?
24. Dominanta nima?
25. Uyadosh so‘zlarning sinonim so‘zlardan farqi nimada?
26. Tasviriy ifodalarni qo‘llashdan maqsad nima?
27. Leksikografiya atamasining izohi qanday?
28. So‘z, leksima, frazema atamalariga qanday izoh berasisiz?
29. Etimologik hamda iboralarning izohli lug‘ati qaysi olim tomonidan yaratilgan?
30. O‘zbek tilida chegaralangan leksika deganda nimani tushunasiz?

4-MAVZU: MORFEMIKA. SO‘Z YASALISH USULLARI, MORFEMA VA UNING TURLARI. GRAMMATIKA.

(ma’ruza)

Reja:

1. Morfemika atamasining izohi.
2. Morfema va uning turlari.
3. So‘z yasalishi va usullari haqida ma’lumot.
4. Grammatika atamasi va uning tarkibiy qismlari.

Tayanch iboralari: morfemika, morfema, asos morfema, affiks morfema, so‘z yasalishi, yasama so‘z, so‘z yasash usullari, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, sodda qo‘shimchalar, murakkab qo‘shimchalar.

Morfemika so‘z tarkibini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi hisoblanadi. Odatda so‘z tarkibi deganda uni tashkil etadigan asos (o‘zak) va unga qo‘shiladigan qo‘shimchalar tushuniladi. Tilshunoslikda asos va qo‘shimchalarga nisbatan morfema atamasi qo‘llaniladi. Morfemalarni, ya’ni qaysi qism-asos, qaysi qism- qo‘shimcha ekanligini o‘rganuvchi soha so‘z tarkibi (morfemika) deb ataladi. Morfemika so‘zning asosida morfema so‘zi yotadi. «Morfema o‘z ma’nosiga ega bo‘lgan, boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan til birligi»⁸dir.

Demak, morfema so‘zning eng kichik, bo‘linmas ma’noli qismi. So‘zning asosi ham, unga qo‘shiladigan qo‘shimchalar ham boshqa qismlarga bo‘linmasligi bilan o‘zaro umumiylilik kasb etadi. Morfema ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Asos (o‘zak) morfema – lug‘aviy ma’no anglatadigan, qo‘shimcha morfema qo‘shilishi uchun asos bo‘ladigan qism. Masalan, odam, qizil, ikki, men, bugun, kel, hamma kabi so‘zlar boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmagani uchun asos deb qaraladi.
2. Affiks (qo‘shimcha) morfema mustaqil qo‘llana olmaydigan, asos morfemaga qo‘shilib, unga turlichay qo‘shimcha ma’no

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006 йил. 616-бет.

yuklaydigan qism. Demak, tilimizdagi barcha qo'shimchalar affiks morfemalar sanaladi. Ular vazifasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi. Bu qo'shimchalar so'z asosiga to'g'ridan-to'g'ri, ketma-ket qo'shilib kelishi mumkin. Masalan, paxtakorlarimizni so'zida yuqorida tilga olingan qo'shimchalarning 3 guruhi ham ishtirok etgan.

paxta+kor (so'z yasovchi)

paxta+kor+lar (lug'aviy shakl yasovchi)

paxta+kor+lar+imiz+ni (sintaktik shakl yasovchi)

Bu kabi so'zlar tarkibini morfemalarga ajratishda birinchi navbatda ma'no anglatish xususiyati e'tiborga olinsa-da, o'quvchilar qo'shimchalarning shaklidan ham xabardor bo'lishi kerak. Demoqchimizki, yuqoridagi -imiz (I shakl ko'plikdagi egalik qo'shimchasi) tarkibini -i, -miz, -im, -iz ko'rinishida morfemaga ajratishdan saqlanish kerak. Affiks morfemalar haqida ma'lumot berilganda ayrimlarining sodda va murakkab (tarkibi bo'linmaydigan) ko'rinishda qo'llanish to'g'risida ham tushunchalar berilishi kerak. Shundagina so'zlarni morfemalarga ajratishda xatoliklar oldi olinadi. Shaklan bir xil ko'rinishdagi qo'shimchalarning tarkibiga e'tibor qarating:

ovchilik (-chi+lik) – sodda morfema

ozchilik (-chilik) – murakkab morfema

E'tiborga olish zarur bo'lgan jihat shundaki, o'quvchilarning ko'pchiligi so'zlarni morfemalarga ajratishni bo'g'inga ajratish sifatida qabul qilishadi. Buni quyidagi ikki misolni bir-biriga taqqoslash jarayonida ham kuzatishimiz mumkin.

ko'p+chilik – morfemaga ajratish

ko'p+chi+lik – bo'g'inga ajratish

O'quvchilarning aksariyati, fikrimizcha, savolning mohiyatiga e'tibor bermasdan ikkinchi ko'rinishdagisini to'g'ri deb hisoblashadi. Vaholanki, ikkinchi ko'rinish bo'g'inga ajratish yuzasidan to'g'ri, morfemaga bo'linish jihatdan xatodir. Birinchi ko'rinish esa morfemaga ajratish bo'yicha to'g'ri, bo'g'inga bo'lish yuzasidan xato (chunki har

bir bo‘g‘inda bitta unli ishtirok etishi kerak). *Ko‘pchilik* so‘zida ko‘p – asos morfema deb hisoblanadi, –chilik qo‘shimchasining bo‘linmasligiga sabab ko‘p+chi shaklidagi bo‘linish ma’no anglatmaydi, ko‘p+chilik ko‘rinishida ma’no anglatishi aniq.

Bugun ta’lim jarayonida tub islohotlar olib borilayotgan ekan, mavzuga aloqador bir mulohazani ham nazardan qochirmaslik kerak. So‘zlarning tarkibini ma’noli qismlarga ajratish amalini o‘quvchilarga o‘rgatish ularga qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlari, asosga qo‘shilish shakllari to‘liq o‘rgatilgandan so‘ng bajarilishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli dasturdagi mavzularning mantiqan ketma-ketligini, uzviyligini ta’minalash zarur. Shundagina nutqimizda ko‘p qo‘llanadigan –dagi, larcha, chasiga, –moqchi, –ydigan (-adigan), –moqda singari qo‘shimchalarning tarkibini ajratishga bo‘lgan urinishlar to‘xtaydi. Shular ishtirok etgan jumlalardagi morfemalarga bo‘linishga e’tiborni qarating.

Bog‘+dagi olma+lar+ni ter+di+k
Mard+larcha jang qil+di
Siz bilan och+iq+chasiga gap+lash+sa+k
Men o‘qi+moqchi+man
Hayot shiddat bilan o‘t+moqda
U majlis+ga bor+adigan bo‘l+di
Sobir+jon o‘qi+ydigan bola.

Tilshunoslikda «So‘z yasalishi» nomli alohida bo‘lim mavjud. Unda so‘z yasalishi bilan bog‘liq xususiyatlар, ta’rif va qoidalar, so‘z yasalishi usullari haqida bahs yuritiladi. O‘quvchilar yasama so‘z atamasi bilan tanishadi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi jarayonidagi fonetik o‘zgarishlar haqida tasavvurga ega bo‘lishadi.

O‘zbek tilida so‘z yasash usullari quyidagilar:

1. Morfologik usul (affiksasiya usuli) – bunda so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi ma’no anglatadigan so‘zlar yasaladi. Bu usul bilan yangi so‘zlar yasash mustaqil so‘z turkumlaridan ot, sifat, ravish, fe’lda mavjud.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar asosga qo‘shilib, shu asos anglatgan ma’no bilan bog‘langan yangi so‘zlar yasaydi. Masalan, g‘alla so‘ziga –

kor affiksini qo'shish orqali g'allakor so'zi, ya'ni g'alla yetishtiruvchi mazmunidagi yangi so'z yasalgan. Bunda g'alla so'zi nima so'rog'iga javob bersa, unga –*kor* qo'shimchasi qo'shilishi bilan *kim?* so'rog'iga javob beradigan yangi so'z yasalgan. Bu jarayonda so'z yasalganini so'rog'i o'zgarganidan ham anglash mumkin. Biroq buni hamma holatda shunday bo'ladi degan mazmunda tushunmaslik kerak. *Qalam+don, gul+don, ulug'+vor, qiziq+arli, ko'p+lab, erta+lab* singari yasama so'zlarda asos bilan yasama so'z bir xil so'roqqa javob bergen.

So'z yasalish jarayonida asos anglatgan ma'no bilan yasalma o'rtasida bog'lanish bor, shu sababli yasama so'z hisoblanadi.

O'zbek tilida morfologik usulda yasalgan so'zlarni tarkibiga ko'ra ikki guruhg'a ajratish mumkin:

a) bir so'z turkumidan chiqmagan holda yasalgan so'zlar. Bunda asos bilan yasama so'z bir turkumga mansub bo'ladi. Shunday holatda so'z yasalish hodisasi ot, sifat, ravish turkumlarida kuzatiladi:

- otdan ot: arava+kash, qishloq+dosh, ziyo+kor, qalam+don;
- sifatdan sifat: qiziq+arli, ulug'+vor, no+to'g'ri;
- ravishdan ravish: erta+lab, hozir+cha, ko'p+incha, erta+n;
- fe'lidan fe'l yasalmaydi, ya'ni so'z asosi fe'l bo'lib, so'z yasovchi

qo'shimcha qo'shish orqali yasama fe'l hosil qilib bo'lmaydi. Asosi boshqa so'z turkumga mansub so'zlardan fe'l yasaladi. Fe'l yasalishiga daxldor bu xususiyat ahamiyatiga ko'ra juda muhim. Gap shundaki, fe'l asosiga uning turli shakllari (bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, vazifadosh shakllar) qo'shilgan holat har doim tub fe'l sanaladi. Buni o'quvchiga tushuntirish ham, idrok etish ham juda qulay. Ushbu chizmaga e'tibor beraylik.



b) bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga tegishli so'zlarni yasash. Sodda qilib tushuntirganda asos bilan yasalmaning turkumi har xil bo'ladi. Bu shakldagi so'z yasalishida ot, sifat, ravish, fe'l turkumlariga doir yangi so'zlar yasaladi: ish+la (fe'l), ish+chan,

chiroy+li (sifat), mard+ona, qahramon+larcha (ravish), tara+q, chiz+g‘ich (ot).

Bu jarayonda o‘zлari yasalmasa ham, so‘z yasalishida asos bo‘lib ishtirok etadigan so‘z turkumlari ham bor: son, olmosh, taqlid so‘z, undov so‘z, modal so‘z.

o‘z+lik (olmoshdan ot)
siz+la (olmoshdan fe’l)
siz+bop (olmoshdan sifat)
bir+lash (sondan fe’l)
bir+lik (sondan ot)
milt+illa (taqlid so‘zdan fe’l)
yo‘q+la (modal so‘zdan fe’l)
dod+la (undov so‘zdan fe’l)
yarq+ira (taqlid so‘zdan fe’l)
qars+ak (taqlid so‘zdan ot)

Morfologik usul so‘z yasash jarayonida eng mahsuldordir. Shu sabab bo‘lsa kerak, yasama so‘zni toping, yasama so‘zga misol ayting tarzida berilgan savollarga o‘quvchilar darrov so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zlarni misol keltirish bejizga emas.

2. Sintaktik usul (kompozisiya usuli) – bunda so‘z asoslarini o‘zaro biriktirish orqali yangi so‘zlar yasaladi. Bunday so‘zlarni qo‘shma so‘zlar deb ataymiz. Qo‘shma so‘zlar ikki va undan ortiq asos morfemalarning birlashishi va bir urg‘u bilan aytishidan yasaladi. Qo‘shma so‘zlar mustaqil so‘z turkumlarining barchasida mavjud. Qaysi mustaqil so‘z turkumlarida morfologik usulda so‘z yasalish mavjud bo‘lsa, shu turkumlardagi qo‘shma so‘zlar ham yasama so‘z sanaladi. Demak, ot, sifat, fe’l, ravish turkumlaridagi qo‘shma so‘zlarni yasama so‘z deyishga haqlimiz.

Qo‘shma ot: belbog‘, mingboshi, Past Darg‘om, Oqdaryo.

Qo‘shma sifat: jigarrang, sofdir, arzongarov, qimmatbaho.

Qo‘shma fe’l: olib kelmoq, sotib olmoq, bayon qilmoq, dod solmoq.

Ko‘shma ravish: har qachon, shu yerda, bir qancha, bir mahal.

Sintaktik usulda yasalgan qo'shma so'zlar doimo imloda qo'shib yozilishi kerak degan qoida yo'q. 1995- yil 24-avgustda qabul qilingan imlo qoidalariga muvofiq qo'shma so'zlar ayrim so'z turkumlarida qo'shib, ayrimlarida ajratib yozilishi mumkin. Ba'zan bir so'z turkumining o'zida qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar guruhi, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar guruhi uchrashi mumkin. Matn ichidan yasama so'zlarni aniqlash mazmunidagi savollarga javob izlaganda morfologik va sintaktik usullarda yasalgan so'zlar miqdori birlashtirilishi zarur. Kecha ishchilar bizni zavodga taklif qilishdi. Ushbu gapda morfologik va sintaktik usulda yasalgan bittadan so'z bor: ishchilar, taklif qilishdi. Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik hollarda faqat morfologik usulda yasalgan so'zlar e'tiborda bo'lmoqda.

Grammatika tilshunoslik fanining bir qismi bo'lib, u Morfologiya va Sintaksis bo'limlaridan iborat. «Grammatika (yun. Grammatike – harf o'qish va yozish san'ati) – tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatischer qurilishi) haqidagi bo'limi»⁹, – deya izoh beradi akademik Azim Hojiyev. Demak, ushbu izohdan ma'lum bo'ladiki, so'z shakllari (so'z turkumlari)ni o'rganish bilan Morfologiya bo'limi, so'z birikmasi va gap turlari bilan Sintaksis bo'limi shug'ullanadi.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar

1. Morfemika atamasiga izoh bering?
2. Morfema atamasi nimani anglatadi?
3. Morfema turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra necha turga bo'linadi?
5. Qo'shimcha atamasini yana qanday nomlash mumkin?
6. So'z asosi deganda nimani tushunasiz?
7. O'zak, qo'shimcha atamalarining ilmiy izohini ayting.
8. So'z yasalishi haqida ma'lumot bering.
9. Yasama so'z va tub so'z atamalarining izohi, farqi nimada?
10. So'z yasash usullari haqida ma'lumot bering.

⁹ Азим Ҳожиев. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент. «Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 31-бет.

11. «Yasama so‘z» atamasini nechta so‘z turkumi doirasida qo‘llash mumkin?
12. So‘z yasalishida faqat asos bo‘lib xizmat qiladigan so‘z turkumlari haqida ma’lumot bering.
13. So‘z yasalishida morfologik usul nima?
14. So‘z yasalishida sintaktik usul nima?
15. So‘z yasovchi qo‘shimchalarning bir so‘z turkumi doirasida so‘z yasashiga misollar keltiring.
16. So‘z yasovchi qo‘shimchalarning birdan ortiq so‘z turkumi doirasida so‘z yasashini misollar asosida izohlang.
17. So‘z yasalishida fe’l tarkuming o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
18. So‘z yasalishida tovush ortishiga misollar keltiring.
19. So‘z yasalishida tovush almashishiga misollar keltiring.
20. So‘z yasalishida tovush tushishiga misollar keltiring.
21. So‘z yasalishi jarayonida asos vazifasida ham kela olmaydigan so‘z turkumlari bormi?
22. Qo‘shma so‘zlarning qo‘shib yoki ajratib yozilishini izohlang.
23. Qo‘shma so‘zlar yasama so‘z hisoblanadimi?
24. Grammatika atamasining ilmiy izohi va tarkibiy qismlari.

5-MAVZU: MORFOLOGIYA. OTNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI, ATOQLI OTLARNING TURLARI, TURDOSH OTLARNING TURLARI. OTLARNING KATEGORIYALARI. OTLARNING YASALISHI, ULARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

(ma'ruza)

Reja:

1. Morfologiya atamasi va bo'limi haqida tushuncha.
2. Ot so'z turkumining leksik-grammatik xususiyatlari, atoqli va turdosh ot hamda ularning turlari.
3. Ot so'z turkumining grammatik kategoriyalari: ko'plik, egalik va kelishik.
4. Ot so'z turkumida so'z yasalish hodisasi.
5. Otlarning tuzilish jihatdan turlari.

Tayanch iboralar: morfologiya, morfologik xususiyat, atoqli ot, turdosh ot, ko'plik, egalik, kelishik shakllari, otning yasalishi, morfologik usul, sintaktik usul, sodda, qo'shma, juft, takror otlar.

Morfologiya o'zbek tili grammatikasining bir qismi hisoblanadi. Unda so'z shakllari – so'z turkumlarining morfologik belgi-xususiyatlari, har bir turkumning o'ziga xos bo'lgan kategoriya va atamalari o'r ganiladi. Demak, so'zlarning turkumlarga ajratishdagi o'ziga xos jihatlar morfologiya bo'limining o'r ganish sohasiga kiradi.

«Morfologiya (grekcha morpho – «shakl», logos – «ta'limot») so'zlarning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning o'zgarishi va shu o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar, so'zning tuzilishi va tarkibi o'r ganiladi»¹⁰, deb izoh berilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kitobida.

Ot so'z turkumining morfologik xususiyatlari deganda turkumning o'ziga tegishli bo'lgan mavzulari, grammatik kategoriyalari, atamalari tushuniladi. Masalan, ot turkumida keng va atroficha o'r ganiladigan

¹⁰ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, «Ўзбекистон» нашриёти, 1992. 237-бет.

ko‘plik, egalik, kelishik kategoriyalari boshqa turkumlarda tilga olinmaydi. Yoki boshqa so‘z turkumining o‘ziga xos morfologik belgilari shu turkum ichida o‘rganiladi. Ot so‘z turkumining leksik xususiyatlari avvalo nimani anglatishiga bog‘liq jihatlaridir. Ot so‘z turkumi kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob beradigan so‘zlarni o‘rganadi. Ushbu so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlarning ma’no tomoni leksikologiya bo‘limida o‘rganilsa, ularning shakliy jihatlari morfologiyaning tekshirish, o‘rganish sohasiga mansubdir. Ot ma’no jihatdan ikki guruhga bo‘linadi: atoqli va turdosh otlar. Atoqli otlar bir turdag'i predmetlar ichidan birini ayirib ko‘rsatishdan hosil bo‘ladi. Ular bosh harf bilan yoziladi. Ilmiy adabiyotlarda atoqli otlar atab qo‘yilgan nomlar degan ta’rif ham bor. Atoqli otlar nimani anglatishiga ko‘ra quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘linadi:

1. Antroponimlar – shaxslarga atab qo‘yilgan nomlar: Akmal, Durdona, Uchqun kabi.
2. Toponimlar – joylarga atab qo‘yilgan nomlar: Samarqand, Jizzax. Past Darg‘om.
3. Gidronimlar – suv havzalari, dengiz, ko‘l, daryo kabilarga atab qo‘yilgan nomlar: Amudaryo, Aydarkul, Orol dengizi.
4. Zoonimlar – insonlar tomonidan jonivorlarga: qushlar, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar: Olapar, To‘rtko‘z , Olabosh, Boychibor.

Yuqoridagi to‘rt guruhga bo‘linish uchun umumiylit – ularning bosh harflar bilan yozilishidir. Ular kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob berishga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Turdosh otlar bir turdag'i predmetlarning umumiylit nomini anglatadi. Ular faqat jumla boshida kelsa bosh harf bilan yoziladi, qolgan hollarda kichik harf bilan yoziladi. Turdosh otlar o‘z navbatida yana turlarga bo‘linadi. Turdosh otlar predmetlarning birini yoki to‘dasini anglatishiga ko‘ra 2 ko‘rinishda bo‘ladi:

a) yakka otlar – umumiylitni anglatadigan otlardan birini ifodalaydi: odam (xalq), soldat (armiya), kishi (aholi) kabi. Demoqchimizki, odam (1 ta), soldat (1 ta), kishi (bir kishi) yakkalikni ifodalaydi.

b) jamlovchi otlar – predmetlarning to‘dasini, galasini ifodalaydi: xalq, omma, to‘da, aholi, olomon kabi otlar shaklan birlikda, mazmunan ko‘plikda hisoblanadi.

Turdosh otlar aniq predmetlarni yoki tushunchalarni ifodalashiga ko‘ra yana 2 ga bo‘linadi:

v) aniq (konkret) otlar – mavjud bo‘lgan narsa – buyumlarni bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘rish mumkin bo‘lgan otlar aniq otlar deb atalishi ta’kidlangan: daraxt, tosh, ruchka, mashina, bino kabilar.

g) mavhum (abstrakt) otlar – predmet sifatida yo‘q, tushuncha sifatida bor bo‘lgan otlar: sezgi, shodlik, baxt, quvonch, mehr, g‘am kabilar.

Ot so‘z turkumida grammatik son, egalik, kelishik kategoriyalari borki, ular turkum ichida o‘rganilishi nihoyatda muhim bo‘lgan mavzulardir. Gap shundaki, bularni chuqur o‘rganish nafaqat ot, balki otlashgan boshqa so‘z turkumiga doir so‘zlarning jumlada gap bo‘laklariga ajratish masalasini to‘g‘ri hal qilishga ham ko‘maklashadi. Hatto, ayrim kelishikdagi ot va otlashgan so‘zlarning gapda qat’iy bir sintaktik vazifani bajarib kelishi haqida aniq xulosani shakllantiradi. Masalan, tushum kelishigi qo‘sishimchasini olgan so‘z doimo vositasiz to‘ldiruvchi, qaratqich kelishigi qo‘sishimchasini olgan so‘z hamisha qaratqich aniqlovchi bo‘lib keladi. Bu ma’lumotga tayangan o‘quvchi hyech qachon boshqa kelishikdagi so‘zlarni vositasiz to‘ldiruvchi yoki qaratqich aniqlovchi deb atamaydi.

Otlarda son kategoriysi ularning birlik va ko‘plikda qo‘llana olishini anglatadi. Otlarning birlik sonda ekanligini bildiradigan grammatik ko‘rsatkich yo‘q. Shu boisdan *-lar* qo‘sishimchasi qo‘silmagan otlar birlikda deb hisoblanadi: bola, konfet, daraxt, daftar singari otlar shaklan hamda mazmunan birlik sondadir. Xalq, qo‘sish, poda, gala so‘zları esa shaklan birlik sonda, mazmunan esa ko‘plik sondadir. Otlarda ko‘plik ma’nosi ikki xil usulda ifodalanadi:

a) morfologik usul – bunda otga *-lar* qo‘sishimchasi qo‘shilgan bo‘ladi: gullar, odamlar, kitoblar, voqyealar.

b) sintaktik usul – bunda ot oldidan miqdor anglatadigan so‘zlar yoki takroriy so‘zlar qo‘llanadi: bir necha odam, bir qancha uy, dasta-

dasta gul, qator-qator mashina. Bunday usulda ko‘plik ma’nosining ifodalanishida ba’zan *-lar* qo‘shimchasini nutqda qo‘shib ishlatish kuzatiladi: dasta-dasta gullar, bir qancha uylar singari misollarda *-lar* qo‘shimchasini uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llangan deb hisoblash mumkin. Ko‘plik ma’nosini bunday ifodalanishi leksik-morfologik usul deb yuritiladi. Biroq, ayrim o‘rinlarda *-lar* qo‘shimchasingin noo‘rin qo‘shilishi uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi:

Hovlida bir necha odamlar to‘plandi. Hovlida bir necha odam to‘plandi. Fikrimizcha, odamlar emas, odam so‘zining qo‘llanishi uslubiy raxonlikni ta’minlaydi.

-lar qo‘shimchasi sof ko‘plik mazmunini ifodalashdan tashqari nutqda quyidagi ma’nolarni anglatishi ham kuzatiladi:

– xil, tur, nav ma’nolarini bildiradi. Buning uchun sanalmaydigan predmetlarning nomiga *-lar* qo‘shilishi kerak: bug‘doylar (navi), unlar (turli joylarda ishlab chiqarilgan, masalan, Jomboy uni, Oqtosh uni, Qozog‘iston uni kabi), benzinlar (80, 91, 95 kabi), shakarlar (Xorazm, Ukraina, Kuba shakarlari ma’nosida);

– ma’noni kuchaytiradi. Ko‘pincha mavhum otlarga qo‘shilganda bu holat kuzatiladi: sevinchlarim, ayriliqlar, quvonchlar;

– predmetlarning har birini ta’kidlashga xizmat qiladi: ko‘zlarim (chap va o‘ng), oyoqlarim (chap va o‘ng), yelkalarim (chap va o‘ng) og‘riydi;

– hurmat ma’nosini bildiradi: dadamlar, ayamlar, tog‘amlar (agar bitta tog‘asi bo‘lsa);

– atoqli otlarga qo‘shilganda quyidagicha ma’no ifodalashi mumkin: Mirzacho‘llar (Mirzacho‘l va uning atrofi ma’nosini) obod bo‘ldi. Rustamlar (Rustam va uning oilasi) Toshkentda yashaydi. Rayhonlar, Begzodlar singari misollarda nutq vaziyatiga ko‘ra bir nechta Rayhon va bir nechta Begzod ma’nosini ifodalashi mumkin. Bunday holatda Rayhon, Begzod so‘zları jumla ichida kelsa, umumiylilik ma’nosini ifodalaydi, atoqli otlik sifatini yo‘qotgani, turdosh otga aylangani uchun kichik harf bilan yozilishi mumkin.

Ot so‘z turkumida egalik kategoriyasi predmetlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini ifodalaydigan shakllarni o‘z ichiga oladi. Egalik ma’nosi ikki usulda ifodalanadi:

a) morfologik usul – egalik qo‘shimchalari yordamida. Egalik qo‘shimchalari predmetlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi. Egalik qo‘shimchalari ikki variantda (unlidan so‘ng, undoshdan so‘ng) qo‘llaniladi.

Birlik	Ko‘plik
I sh. –m(-im)	-miz (-imiz)
ona+m, kitob+im	ona+miz, kitob+imiz
II sh. –ng (-ing)	-ngiz (-ingiz)
ona+ng, kitob+ing	ona+ngiz, kitob+ingiz
III sh. –si (-i)	-si (-i)
ona+si, kitob+i	ona+si, kitob+i

Yuqorida keltirilgan ona va kitob so‘zlarining egalik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi turlanish deyiladi. I shaxs birlik va ko‘plikda – so‘zlovchi; II shaxs birlik va ko‘plikda – tinglovchi; III shaxs birlik va ko‘plikda o‘zga, ya’ni nutq jarayonida ishtirok etmagan shaxs ma’noni anglashiladi. III shaxsda birlik va ko‘plik uchun egalik qo‘shimchalari bir xil. Egalik qo‘shimchalari odatda so‘zda kelishik qo‘shimchalaridan oldin joylashgani uchun so‘z bosh kelishikda hisoblanadi: kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitobi. Qo‘shimchalarining so‘zdagi joylashish o‘rniga ko‘ra kelishik qo‘shimchalari egalik qo‘shimchalaridan keyin keladi. Egalik qo‘shimchalarining ot, olmosh, harakat nomiga qo‘shilgan holati – turlanish, boshqa so‘z turkumlaridagi so‘zlarga qo‘shilish hodisasi – otlashish deb nomланади:

Turlanish:

o‘qish+i	har bir+i	o‘z+im
o‘qish+im	bu+n+i+si	kim+i
hamma+si	nima+si	barcha+miz

Otlashish:

qizil+i	ko‘p+i	bor+i
go‘zal+im	ancha+si	yugurgan+i
bir+i	dod-voy+i	
ikki+ngiz	shivir-shivir+i	

Egalik qo‘shimchalari qo‘shilgan so‘z o‘zidan oldin qo‘llangan so‘zda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi (belgili yoki belgisiz) bo‘lishini talab qiladi: bog‘ning guli, yozuvchining kitobi. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘z bilan egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘z qaratqich-qaralmish hisoblanib, moslashuvli birikma deb ataladi. Og‘zaki nutqda *–ning* qo‘shimchasi o‘rnida *–ni* ishlatilishi uslubiy xatodir: bolani kitobi.

b) sintaktik usul – bunda *–niki* qo‘shimchasi yordamida qarashlilik ma’nosini ifodalanadi: men+niki, biz+niki, bola+niki, ko‘p+niki, biri+niki, yaxshilar+niki singari misollarda qarashlilik ma’nosini ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan misollar mazmunidan kelib chiqib, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zni ularga bog‘lab ko‘rish mumkin. Masalan,

sovg‘a (nima) bizniki,
taklif (nima) sizniki,
osh (nima) ko‘p+niki.

Misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, *–niki* qo‘shimchasini olgan so‘z yolg‘iz qo‘llansa, nima qarashli ekanligi nutqda aniq anglashilmay qoladi. (nima? bolaniki).

Qarashlilik ma’nosining morfologik va sintaktik usulda ifodalinishini qiyoslaganimizda, mazmun jihatdan bir xillikni kuzatamiz:

mening mashinam = mashina meniki
sening uying = uy seniki

Morfologik usulda qarashlilik ifodalanganda shaxsi aniq anglashilib turadi:

mening (I shaxs) kitobim (I shaxs)
sening (II shaxs) kitobing (II shaxs)
uning (III shaxs) kitobi (III shaxs)

bizning (I shaxs ko‘plik) kitobimiz (I shaxs ko‘plik)
sizning (II shaxs ko‘plik) kitobingiz (II shaxs ko‘plik)
ularning (III shaxs ko‘plik) kitobi (III shaxs birlik)

Bunday turlanish jarayonida qaratqich-qaralmish 2 xil shaxsda bo‘lmaydi.

Sintaktik usulda qarashlilik ifodalanganda shaxsi bir xil bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin:

kitob (III shaxs) meniki (I shaxs)
kitob (III shaxs) seniki (II shaxs)
kitob (III shaxs) uniki (III shaxs)
kitob (III shaxs) bizniki (I shaxs ko‘plik)
kitob (III shaxs) sizniki (II shaxs ko‘plik)
kitob (III shaxs) ularniki (III shaxs ko‘plik)

Ot so‘z turkumida ahamiyati jihatidan juda muhim mavzu – bu kelishik kategoriyasidir.

Ot bilan otni, ot bilan fe’lni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan shakllarning jami kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi 6 kelishikni o‘z ichiga oladi.

1. Bosh kelishik –kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bosh kelishikning grammatik ko‘rsatkichi- qo‘shimchasi yo‘q. Bosh kelishikdagi so‘z boshqa kelishiklarda ma’lum grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib takrorlanib ishlatilgani uchun u asosiy kelishik hisoblanadi. Bosh kelishikning qo‘shimchasi bo‘limgani uchun bu kelishikdagi so‘zlar ko‘pincha gap tarkibida ega yoki kesim vazifasida kelishi mumkin. Akam o‘qituvchi, opam shifokor. Bosh kelishikdagi so‘zning gapda ko‘pincha ega yoki ot-kesim vazifasida kelishini bilish – o‘quvchini bu kelishikdagi so‘zlarni qaratqich aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol deb belgilashdan saqlaydi. To‘g‘ri, bosh kelishikdagi so‘zning juda kam holatda sifatlovchi aniqlovchi, hol vazifasida kelishi kuzatilgan: zumrad bahor, kumush qish birikmalaridagi birinchi so‘zlar (zumrad, kumush) aslida bosh kelishikdagi ot. Ushbu so‘zlardan so‘ng yana ot turkumidagi so‘zlar qo‘llangani uchun zumrad, kumush so‘zlari ma’no jihatdan sifatga ko‘chgan va qanday? so‘rog‘ini qabul qilgan. Shu sababli nutqimizda ot

turkumiga tegishli ikki so‘z yonma-yon qo‘llansa, birinchisi sifatlovchi aniqlovchi deb belgilanadi sintaktik tahlilda.

Daraxtlar qator ekilgan.Bu jumlada qator so‘zi ot turkumiga mansub. U yolg‘iz qo‘llanganda shubhasiz, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Bu o‘rinda esa u fe‘l turkumiga tegishli so‘zga bog‘lanib qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lmoqda. Fe‘lga bog‘lanib qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar esa har doim hol (ravish holi) vazifasida keladi.

2. Qaratqich kelishigi kimning? nimaning? qayerning? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Qaratqich kelishigining qo‘shimchasi *-ning*. Bu qo‘shimcha so‘zga qo‘shilgan holat – belgili qaratqich, qo‘shilmagan, tushib qolgan holat – belgisiz qaratqich deb yuritiladi. Har ikki holatdagi so‘z har doim gapda qaratqich aniqlovchi deb tahlil qilinadi.

olmaning guli
olma guli

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zning gapdagi bunday qat’ylashgan, har doim qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishi o‘quvchining jumلالarni sintaktik tahlil qilishida qo‘l keladi, to‘g‘ri tahlil qilishini osonlashtiradi. She’riy asarning misralarida bo‘g‘in sonini kamaytirish maqsadida shoirlar ko‘pincha *-ning* affiksini qisqargan *-n* ko‘rinishida qo‘llashadi. *-ning* o‘rnida *-n* ishlatilishi ham aslida belgili qaratqichdir.

Bu - qadim o‘zbek xalqin niyati

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi har doim otni otga yoki otni otlashgan (ot vazifasidagi) so‘zga bog‘laydi:

Olimning orzulari
Yaxshilarning duosi
O‘nning yarmi

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasining belgili yoki belgisiz qo‘llanishi uchun zaruriy holatlar bormi? Bizningcha, shunday holatlar bor, uslubiy talab uning qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligini belgilab beradi. Misollarni tahlil qilaylik:

Gul bargi (belgisiz qaratqich)

Gulning chiroyli bargi (belgili qaratqich, chunki tushirib bo‘lmaydi)

Dil amri, qalb da’vati, aql qudrati singari misollarda birinchi so‘zga qaratqich kelishining qo‘s Shimchasi qo‘s Shilmagani o‘rinli. Agar qo‘shib o‘qilsa, quloqqa ham g‘aliz eshitiladi. Nazarimizda, ikki mavhum otni biriktirish, bog‘lash uchun –ning qo‘s Shimchasiga ehtiyoj yo‘q.

3. Tushum kelishigi kimni? nimani? qayerni? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Tushum kelishigidagi so‘z har doim fe'lga bog‘lanib keladi. Bu fe'l harakatni o‘ziga qabul qiladigan o‘timli fe'l hisoblanadi. Tushum kelishigi qo‘s Shimchasi ham belgili va belgisiz shaklda qo‘llanishi mumkin. Qo‘s Shimcha so‘zga qo‘s Shilgan bo‘lsa belgili tushum, qo‘s Shilmagan bo‘lsa belgisiz tushum hisoblanadi.

Olmani (belgili) yedi, olma (belgisiz) yedi

O‘zbek tilida har ikki holatdagi so‘z ham gapda bir xil sintaktik vazifani bajaradi – vositasiz to‘ldiruvchi. Odatda tushum kelishigi qo‘s Shimchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fe'lga bog‘lanib kelgan so‘zdan tushirish imkonи bo‘ladi: choyni ichdim (choy ichdim), kitobni o‘qidim (kitob o‘qidim), ovqatni yedim (ovqat yedim). Agar tushum kelishigidagi so‘z bilan fe'l orasida birorta so‘z qo‘llansa, –ni qo‘s Shimchasi so‘zda saqlanib qoladi. *Sizni teatrda ko‘rdim (siz teatrda ko‘rdim emas).* Yoki tushum kelishigidagi so‘zning sifatlovchisi bo‘lsa ham tushum kelishigi qo‘s Shimchasi saqlanadi:

Qizil gulni uzdim,

Qizil gul uzdim emas.

Yig‘lagan bolani ko‘rdim

Yig‘lagan bola ko‘rdim emas.

She‘riyatda tushum kelishigi qo‘s Shimchasi ham bo‘g‘inni kamaytirish, misralarda bo‘g‘inlar sonini tenglashtirish maqsadida –n qisqargan shaklda qo‘llanishi mumkin: *paxtasin terdi, oshin yer, tuprog‘in qadrlar.*

4. Jo‘nalish kelishigi kimga? nimaga? qayerga? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Jo‘nalish kelishigining qo‘s Shimchasi –ga hisoblanadi: sizga – kimga? kitobga – nimaga? Samarqandga – qayerga?

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi so‘z asosiga qarab –ga (-ka, -qa) shaklida qo‘shiladi.

Jo‘nalish kelishigidagi so‘z gap tarkibida 3 xil sintaktik vazifada kelishi mumkin: vositali to‘ldiruvchi, hol, kesim (ot-kesim). Jo‘nalish kelishigidagi so‘z vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelishi uchun u fe’lga bog‘lanib, kimga? nimaga? so‘roqlariga javob berishi kerak. *Siz bu xabarga ishondingizmi? Men bu xabarga ishondim. Siz xabarni kimga aytdingiz? Men xabarni Muxlisaga aytdim.*

Jo‘nalish kelishigidagi so‘z hol vazifasida kelishi uchun qayerga? qachonga? so‘roqlariga javob berishi va fe’lga bog‘lanishi zarur. *Siz qayerga borasiz? Men Toshkentga boraman. To‘y qachonga belgilandi? To‘y dushanbaga belgilandi.*

Jo‘nalish kelishigidagi so‘z ot-kesim vazifasida kelishi uchun kimga? nimaga? qayerga? qachonga? so‘roqlariga javob berishi va fe’lga bog‘lanmasligi kerak. Sodda qilib tushuntiradigan bo‘lsak, jumla shu so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar bilan tugallanishi zarur, bunday so‘zlardan keyin edi, ekan, emish bog‘lamalarini qo‘sha olish imkonи bo‘lishi kerak.

Kostyum kimga? Kostyum akamga.

Muqova nimaga? Muqova daftarga.

To‘y qachonga? To‘y yakshanbaga.

Keltirilgan jo‘nalish kelishigidagi barcha so‘zlar kesim vazifasida kelmoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun edi, ekan, emish so‘zlarini qo‘shib ko‘rish kerak.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ba’zan ko‘makchilar bilan ma’nodoshlik hosil qilishi mumkin:

akamga – akam uchun

do‘stimga – do‘stim uchun

5. O‘rin-payt kelishigi kimda? nimada? qayerda? qachon? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. O‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasi –da hisoblanadi: sizda – kimda? kitobda – nimada? Samarqandda – qayerda? Dushanbada – qachon?

O‘rin-payt kelishigidagi so‘z gap tarkibida 3 xil sintaktik vazifani bajarishi mumkin: vositali to‘ldiruvchi, hol, kesim (ot-kesim).

O‘rin-payt kelishigidagi so‘z vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajarishi uchun u fe’lga bog‘lanib kimda? nimada? so‘roqlariga javob berishi kerak. *Kitob kimda qoldi? Kitob menda qoldi. Xushxabar nimada yozilgan? Xushxabar gazetada yozilgan.*

O‘rin-payt kelishigidagi so‘z hol vazifasida kelishi uchun qayerda? qachon? so‘roqlariga javob berishi va fe’lga bog‘lanishi kerak. Masalan: *Men Samarqandda yashayman. Anjuman dushanbada boshlanadi.*

O‘rin-payt kelishigidagi so‘z ot-kesim vazifasida kelishi uchun kimda? nimada? qachon? kabi so‘roqlarga javob berishi va fe’lga bog‘lanmasligi kerak. Qisqasi, jumla shu so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar bilan tugallanishi kerak, bunday so‘zlardan so‘ng edi, ekan, emish bog‘lamalarini qo‘shish imkonini bo‘lishi zarur.

Xat kimda? Xat menda.

To‘y qachon? To‘y yakshanbada.

Hikmat nimada? Hikmat maqolda.

Yuqorida keltirilgan misollarda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zdan keyin edi, ekan, emish so‘zlarini qo‘shib ko‘rish orqali ularning kesim ekanligini aniqlash eng ma’qul yo‘ldir.

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi ayrim ko‘makchilarga ma’nodosh sifatida qo‘llanishi mumkin: *Avtobusda keldim. Avtobus bilan keldim. Eshikni kalit bilan ochdim. Eshikni kalitda ochdim. U bilan telefon orqali gaplashdim. U bilan telefon orqali gaplashdim.*

6. Chiqish kelishigi kimdan? nimadan? qayerdan? qachondan? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Chiqish kelishidagi so‘z ko‘pincha fe’lga bog‘lanib keladi. Chiqish kelishigi qo‘shimchasi *-dan* eski o‘zbek adabiy tilida *-din* shaklida ham qo‘llangan: jondin, andin, sondin kabi misollardagi *-din* qo‘shimchasi hozirgi adabiy tilimizdagi *-dan* qo‘shimchasidir.

Jo‘nalish, o‘rin-payt kelishiklari kabi chiqish kelishigidagi so‘zlar ham gapda 3 xil sintaktik vazifada qo‘llanishi mumkin: vositali to‘ldiruvchi, hol, kesim (ot-kesim).

Chiqish kelishigidagi so‘zlar kimdan? nimadan? so‘roqlariga javob bo‘lib fe’lga bog‘lanib kelganda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Siz kimdan so‘radningiz?

Men do‘stimdan so‘radim.
Siz nimadan xafa bo‘ldingiz?
Men xiyonatdan xafa bo‘ldim.

Chiqish kelishigidagi so‘zlar qayerdan? qachondan? singari so‘roqlarga javob bo‘lib, fe’lga bog‘lanib kelganda hol vazifasida qo‘llangan bo‘ladi.

Siz qayerdan kelyapsiz? Men qishloqdan kelyapman. Darslar qachondan boshlanadi? Darslar jumadan boshlanadi.

Chiqish kelishigidagi so‘zlar ot-kesim vazifasida kelishi uchun ular fe’lga bog‘lanmasligi kerak.

Siz qayerdan? Men Qashqadaryodan.
Mashg‘ulotlar qachondan? Dushanbadan.

Bu kabi misollarda chiqish kelishigidagi so‘zlardan keyin edi, ekan, emish bog‘lamalarini qo‘shish imkonи bor, shuning uchun ham ular gapda ot-kesim bo‘lib kelmoqda.

Chiqish kelishigi qo‘shimchasi ayrim ko‘makchilarga sinonim bo‘lishi mumkin:
*do ‘stimdan – do ‘stim orqali
sizdan – siz orqali*

Kelishik qo‘shimchalari egalik qo‘shimchalari singari turlovchi qo‘shimchalar sanaladi. kelishik qo‘shimchalari vazifasiga ko‘ra sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi. Ular o‘zları qo‘shilgan so‘zni keyingi so‘zga bog‘laydi, bog‘langan so‘z bilan birgalikda so‘z birikmalarini hosil qiladi. Kelishik qo‘shimchalari bundan tashqari gap tarkibidagi so‘zlarni bo‘laklarga ajratishda ham ahamiyatlidir. Gap tarkibidagi bo‘laklarning aksariyati kelishik qo‘shimchalarining ishtirokiga qarab belgilanadi.

Ot so‘z turkumida so‘z yasalishi quyidagi usullarda hosil qilinadi:

1. Morfologik usul (affiksasiya usuli) – bunda so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar yasaladi. Ot so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdoriga ko‘ra boy so‘z turkumi hisoblanadi. Odатда so‘z yasovchi qo‘shimchalar so‘z asosiga qo‘shilib, shu asos ma’nosi bilan bog‘langan so‘zlarni hosil qiladi. Masalan, adabiyot+shunos. Mazkur yasama so‘z adabiyot asosi bilan bog‘langan yangi so‘zdir. Ot yasovchi qo‘shimchalar asosi ot bo‘lgan so‘zlardan yoki boshqa

turkumdag'i so'zlardan yangi so'zlar yasaydi: *ish+chi*, *paxta+kor*, *g'azal+xon*, *darvoza+bon*, *chorva+dor*, *zar+do'z*, *kaptar+boz*, *guvoh+noma*, *sinf+dosh*, *maslahat+chi*, *archa+zor*, *mashina+soz* singari misollarda otdan ot yasash hodisasi kuzatiladi. Demak, asos ot, yasalma so'z ham ot.

Ter+im, tara+q, qars+ak, ko'p+lik, yaxshi+lik, bir+lik, o'z+lik, quvon+ch, ek+in, uch+qun, yot+oq, jizz+a, qimmat+chilik, tep+ki, beza+k, sol+iq, o'r+oq kabi yasama otlarning asosi ot turkumdag'i so'zlar emas, ular turli turkumga tegishli so'zlardir.

Morfologik usulda yasalgan otlarni kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob berishga qarab, shaxs oti yasovchi qo'shimchalar, narsa-buyum nomini yasovchi qo'shimchalar, o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar, faoliyat-jarayon nomini yasovchi qo'shimchalar, mavhum ot yasovchi qo'shimchalar deb ajratiladi. Ayrim holatlarda so'z yasovchi qo'shimchalarning ketma-ket qo'llanishi tufayli biridan ikkinchisini yasash kuzatiladi:

ter+im+chi+lik
paxta+kor+lik

Bunday misollarda so'z yasovchi qo'shimchalarning miqdorini bilish bilan birgalikda qaysi mazmundagi otdan nima yasalayotganini anglash, tushunib olish juda muhim. Shu bilan birga asosdan keyin kelgan so'z yasovchi qo'shimchalarning oxirgisidan oldingi qism yasalish asosi deb belgilanishi haqida o'quvchilar xabardor bo'lishi zarur:

terimchi+lik
paxtakor+lik

2. Sintaktik usul (kompozisiya usuli) – bu usul bilan qo'shma otlar yasaladi. Tarkibidagi qismlari qanday turkumdan iborat bo'lishiga qarab qo'shma otlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- 1) Ikki otdan iborat bo'ladi: ko'zoynak, otto'rva, belbog', bilaguzuk, tomorqa.
- 2) Sifat va otdan iborat bo'ladi: oqsaroy, achchiqtosh, Kattaqo'rg'on, Oqtepa, ko'ksulton.

- 3) Son va otdan iborat bo‘ladi: To‘rtko‘l, uchburchak , Uchqo‘rg‘on, Beshyog‘och, sakkizoyoq.
- 4) Ot va fe’lning sifatdosh yoki harakat nomi shakllaridan iborat bo‘ladi: otboqar, beshiktervatar, o‘rinbosar, muzyorar, dunyoqarash.
- 5) Ikki fe’ldan iborat bo‘ladi: ishlab chiqarish, iskabtopar, olibsortar.
- 6) Son (ba’zan olmosh) bilan fe’lning sifatdosh shaklidan iborat bo‘ladi: beshotar, o‘zibo‘larchilik, beshko‘tarar.

Bulardan tashqari ruscha-baynalmilal so‘zlarni kalka qilish natijasida hosil bo‘lgan qo‘shma otlar ham anchagina: avtostansiya, fotomuxbir, kinoyulduz, teletomoshabin, aviamaktab, avtoyo‘l, avtopoyga, biokimyo, agroiqlim kabi.

Qo‘shma otlar imloda ikki xil ko‘rinishda yoziladi: qismlari qo‘shib yoki ajratib. 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan imlo qoidalariga ko‘ra qo‘shma ot qismlari ikki xil yozilishi tasdiqlangan. Agar qo‘shma otning ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo‘lsa, qo‘shib yoziladi: Kattaqo‘rg‘on, Moybuloq, Ko‘ksaroy, oshqovoq.

Agar qo‘shma otning ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lsa, qismlari ajratib yoziladi: O‘rta Osiyo, G‘arbiy Yevropa, Yaqin Sharq.

Qo‘shma so‘zlar, xususan, ot turkumidagi qo‘shma otlarni ta’lim berish jarayonida yasama so‘z ekanligini alohida ta’kidlab tushuntirishga zaruriyat bor. Chunki ko‘pchilik o‘quvchilar matndagi yasama so‘zlarni aniqlash topshirig‘ini faqat qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zlarni topish so‘ralyapti mazmunida tushunishmoqda. Biz mulohaza yuritayotgan ot turkumida ham sinfdosh, taroq, oshpaz kabilar yasama so‘z bo‘lgani holda Yangibozor, Qo‘shrabot, Oqdaryo kabilar ham shu guruhga mansub yasama so‘zlardir.

Ot so‘z turkumida boshqa so‘z turkumlarida uchramaydigan usulda so‘z yasash hodisasi mavjud. Ya’ni, abbreviasiya usuli. So‘zlashuv uslubida nisbatan ko‘p qo‘llanadigan ATS, MTS, filfak, profkom, SamDPI, SamMI, selsoviet, rayPO, oblONO kabilar shu usulda hosil qilingan so‘zlardir. Bunday so‘zlar dastlab rus tilida shu usulda qisqartirilgan bo‘lsa, keyinchalik ular o‘zbek tiliga ko‘chgan.

Otlar tuzilish jihatdan to‘rt turga bo‘linadi:

1. Sodda otlar bir asosdan tashkil topgan so‘zlardir. Sodda otlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:
 - a) sodda tub otlar – ot asosiga so‘z yasovchi qo‘srimchalar qo‘silmagan bo‘ladi. Tub otlar tarkibida lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar ishtirok etishi mumkin: olma, olmalarni, olmalarimizni;
 - b) sodda yasama otlar – asosga so‘z yasovchi qo‘srimchalar qo‘silgan bo‘ladi: bog‘+bon, kurs+dosh, taroq.
2. Qo‘shma otlar – ikki va undan ortiq asoslarning o‘zaro tobe birikishi va bir urg‘u ostiga birlashishidan hosil bo‘ladi belbog‘, mingboshi, gultojixo‘roz. Qo‘shma ot qismlari qo‘shib yoki ajratib yozilsa ham urg‘usi bitta bo‘ladi: Yangibozor, belbog‘, Markaziy Osiyo.
3. Juft otlar – ikki otning juftlashuvidan hosil bo‘ladi va umumlashtirish, jamlash, kuchaytirish ma’nolarini bildiradi: qozon-tovoq, daftar-kitob, sigir-buzoq, soqol-mo‘ylov. Juft ot qismlari orasiga chiziqcha qo‘yiladi, qismlar o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi.
4. Takror otlar – ikki otning aynan takrorlanishi yoki ikkinchi qismida tovush o‘zgarishi bilan hosil qilinadi: qator-qator, choy-poy, don-dun, irim-sirim, latta-putta.

Takror otlarning qismlari orasiga chiziqcha qo‘yiladi, har bir qism alohida urg‘uga ega bo‘ladi.

Xullas, ot so‘z turkumining leksik-grammatik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, o‘quvchilarga keng tushuntirish yo‘llarini, texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi ona tili ta’limi jarayonidagi muhim vazifa sanaladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ot so‘z turkumining leksik xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ot so‘z turkumining morfologik belgilariga nimalar kiradi?
3. Otning son kategoriyasi nimalarni o‘z ichiga oladi?

4. Otning egalik kategoriyasi.
5. Otning kelishik kategoriyasi.
6. Otning ma’noviy guruhlari haqida ma’lumot bering.
7. Atoqli ot va uning ta’rifi.
8. Turdosh ot va uning ta’rifi.
9. Atoqli otlarning bo‘linishi.
10. Turdosh otlarning bo‘linishi.
11. Ot so‘z turkumida so‘z yasalishi hodisasi.
12. Morfologik usulda so‘z yasalish deganda nimalarni tushunasiz?
13. Sintaktik usulda so‘z yasalishiga misollar keltiring va izohlang.
14. Otdan ot, boshqa turkumlardan ot yasalishini izohlang.
15. Tub otlarning izohi qanday?
16. Yasama ot haqidagi ma’lumotlaringiz.
17. Kelishik qo‘srimchalari vazifasiga ko‘ra qanday qo‘srimchalar sanaladi?
18. Egalik qo‘srimchalari vazifasiga ko‘ra qanday qo‘srimchalar sanaladi?
19. Turlanish hodisasi nima?
20. So‘z yasalish asosini qanday izohlaysiz?
21. Morfologik usulda yasalgan otlarning ma’noviy guruhlarini izohlang.
22. Sintaktik usulda yasalgan so‘zlarning tarkibi haqida ma’lumotlaringiz.
23. O‘zbek tilida qaysi kelishikdagi so‘zlarning gapdagi vazifasi har doim bir xil, ma’lumotingizni gaplar misolida izohlang.
24. Yasama otni aniqlang, toping deyilganda qanday otlarni nazarda tutasiz?
25. Ko‘plik qo‘srimchasining sof ko‘plikdan tashqari ifodalagan ma’nolari?
26. Otlar tuzilishi jihatdan necha turga bo‘linadi?
27. Qo‘shma ot qismlarining qo‘shib yoki ajratib yozilishini izohlang.

28. Ot so‘z turkumining sintaktik vazifalari qanday?
29. Ot turkumidagi so‘zlarda ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalarining joylashishini izohlang.
30. *-niki* qo‘shimchasi yordamida qarashlilikning ifodalanishini izohlang.

6-MAVZU: SIFATNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI, SIFATLARNING MA'NO JIHATDAN TURLARI, SIFATLARDAGI DARAJA KATEGORIYASI, SIFATLARNING MODAL ShAKLLARI. SIFATLARNING YASALISHI. SIFATLARNING TUZILISHI JIHATDAN TURLARI

(ma'ruza)

Reja:

1. Sifat so‘z turkumining leksik-grammatik xususiyatlari izohi.
2. Sifatlarning ma’noviy guruhlari.
3. Sifat darajalari, daraja hosil qiluvchi vositalar izohi.
4. Sifatlarning yasalishi, yasalish usullari. Tub va yasama sifatlar ta'rifi.
5. Sifatlarda modal ma'nolarning ifodalanishi. Sifatlarning tuzilishi jihatdan turlari. Sifatlarda otlashish hodisasi.

Tayanch so‘zlar: Sifat, asliy sifat, nisbiy sifat, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja, tub sifat, yasama sifat, sifatning yasalish usullari, sifatlarning modal shakllari, sodda, qo‘shma, juft, takror sifatlar.

Sifat predmetning belgisini bildiradigan mustaqil so‘zlar turkumi hisoblanadi. Ushbu ta'rifning mohiyati shundaki, unda sifatning otga bog‘lanib, uning belgisini bildirishi bayon qilingan, uslubiy jihatdan sifatning joylashish o‘rniga ham ishora qilingan, ya’ni u ko‘pincha ot oldida joylashadi: qizil gul, manzarali daraxt, kamtar bola, shirin qovun, achchiq haqiqat.

Sifatlar predmetdagi qanday belgi- xususiyatni anglatishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) narsaning rangini bildiradi: oq, qizil, sariq, yashil, qora, jigarrang, moviy;
- b) narsaning xususiyatini bildiradi: maqtanchoq, kamtar, saxiy, yaxshi, yomon, injiq, mehribon;

v) narsaning shakl- ko‘rinishini bildiradi: kalta, uzun, qiyshiq, katta, keng, tor, og‘ir;

g) narsaning holatini bildiradi: xafa, xursand, issiq, sovuq, quruq, eski, yangi, tinch, osuda;

d) narsaning maza-ta’mini bildiradi: shirin, achchiq, sho‘r, nordon, bemaza, lazzatli;

ye) narsaning hidini bildiradi: xushbo‘y, sassiq, qo‘llansa;

j) narsaning o‘rin va vaqt belgisini bildiradi: bugungi, hozirgi, kechki, devoriy, avvalgi, qishki.

Yuqorida sanalgan 7 xususiyatni bildirishi sifatning ma’noviy jihatini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misollarning ma’nosи sifatning leksik xususiyatlarini tashkil etadi. Sifat o‘zbek tilida boshqa so‘z turkumlaridan o‘ziga xos ma’nosи, o‘ziga xos yasovchi affikslar va shakl yasovchilarga egaligi bilan ajralib turadi. U belgini o‘zicha, yakka holda qo‘llanib, ifodalay olmaydi, asosan otga bog‘lanib, unga xos belgini bildiradi. Ba’zan fe’lga bog‘lanib, harakatning belgisini anglatishi mumkin: *Yaxshi odam yaxshi gapiradi*. Ushbu gapdagi yaxshi so‘zi otga va fe’lga bog‘lanib, narsa va harakatning belgisini bildirmoqda. Bu xususiyat sifatning morfologik belgisi hisoblanadi. So‘roqlari bir xil bo‘lgan yaxshi so‘zi gapda bog‘langan so‘ziga qarab sifatlovchi aniqlovchi va hol vazifasini bajarmoqda. Bu sifatning sintaktik vazifasidir.

Sifatlar asliy va nisbiy sifatlarga bo‘linadi. Asliy sifatlar belgi xususiyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalaydi, ya’ni belgi-xususiyat sifatning o‘zida bo‘ladi: qizil, katta, keng, buyuk, shirin kabi turli mazmunni ifodalovchi sifatlarning asliy deyilishiga sabab – belgining o‘zida mavjudligi tufaylidir. Chiroyligi gul birikmasida chiroylilik gulning o‘zida, shirin ovqat birikmasida shirinlik ovqatning o‘zida ekanligidir. Asliy sifatni aniqlashning ma’qul yo‘li – ularning belgini darajalab ko‘rsata olishini anglashdir. Masalan, baland so‘zining asliy sifat ekanligini aniqlash uchun so‘z oldidan juda, nihoyatda, g‘oyat so‘zlarini keltirish yoki so‘zga –*roq* qo‘shimchasini qo‘shish kerak. Demak, har qanday sifatning asliy ekanligini shunday aniqlash o‘rinlidir. Ilmiy

adabiyotlarda asliy sifatlar belgini bevosita bildirishi, darajalab ko‘rsata olishi ta’kidlangan.

Nisbiy sifatlar esa belgi – xususiyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash, darajalab ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lmaydi. Nisbiy sifatlar asosan so‘z yasovchi qo‘srimchalar yordamida yasalgan sifatlardir. Sifat yasovchi qo‘srimchalar miqdori ko‘p, shu sababli yasalgan sifatlarning nisbiy ekanligi daraja ko‘rsatkichlarini qabul qilishi yoki qilmasligiga qarab belgilanadi. Odatda, nisbiy sifatlar daraja ko‘rsatkichlarini qabul qilmaydi. Masalan, tarixiy, yozgi, zamonaviy, oilaviy kabi so‘zlarni tahlil qiling. Oilaviy – nisbiy sifat, chunki oilaviyroq yoki juda oilaviy tarzida qo‘llab bo‘lmaydi.

Sifatlarga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri daraja kategoriyasiga egalik hisoblanadi. Bu kategoriya sifatlardagi belgi – xususiyatning ortiq yoki kamligini farqlashga yordam beradi. Shunga ko‘ra sifatlarda oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma daraja shakllari mavjud. Oddiy darajada narsa belgisi ortiq-kamlik jihatidan qiyos qilinmaydi: achchiq, go‘zal, chiroqli sifatlarini otga bog‘lab ko‘rganimizda belgi xususiyat faqat shu predmetga tegishli bo‘lib, ikkinchi predmetga qiyoslanmaydi.

Qiyosiy daraja predmetdagi bir belgining boshqasidagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja asosan morfologik usul (-roq qo‘srimchasi) bilan ifodalanadi: *qizilroq*, *balandroq*, *kattaroq* kabi. Ayrim holatda –roq qo‘srimchasi ishtirokisiz ham qiyosiy darajadagi sifatni hosil qilish mumkin. Bunda qiyoslash, chog‘ishtirish ma’nosi gap mazmunidan sezilib turadi. Bunday usulda qiyosiy darajani hosil qilish qolipini quyidagicha ifodalash mumkin: «chiqish kelishigidagi ot+ko‘ra» yoki «jo‘nalish kelishigidagi ot+qaraganda» shaklida. Masalan: *Bu taomdan ko‘ra unisi shirin. Bu binoga qaraganda narigisi baland*. Ushbu misollardagi *shirin* va *baland* so‘zlariga –roq qo‘srimchasini qo‘sish shart emas.

Orttirma daraja predmetdagi belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko‘p ,oliy darajada ekanligini ifodalaydi.U ikki usulda hosil qilinishi mumkin:

a) leksik usul – bunda sifat oldidan juda, nihoyatda, juda ham singari so‘zlari keltiriladi: juda chiroyli, juda ham shirin, nihoyatda maftunkor;

b) fonetik usul – bunda sifatning bosh qismi olinib, shu sifatning oldidan qo‘shib takrorlanadi: qip-qizil, sap-sariq, dum-dumaloq, tep-tekis kabi.

Ozaytirma daraja narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligini, kuchsizligini bildiradi: Dilimda orzu balandroq edi. Bu jumlada *-roq* qo‘shimchasi darajaning kamligini bildirmoqda. Agar *-roq* qo‘shimchasi sifatdan tushirilsa, kamlik ma’nosi ifodalanmay qoladi.

Ayrim rang-tus bildiruvchi sifatlarda narsaning belgisi kamligini, kuchsizligini ko‘rsatuvchi qo‘shimchalar ham bor. Oddiy darajadagi sifatlarga *-ish*, *-mtir(-imtir)* qo‘shimchalarini qo‘shish orqali ozaytirma daraja hosil qilinadi: oqish, ko‘kish, qizg‘ish, sarg‘ish, qoramfir, ko‘kimir, oqimfir, sarg‘imfir kabi.

Sifatlarning yasalishi. Yasaladigan boshqa so‘z turkumlaridagi kabi sifatlarda ham ikki usulda so‘z yasalishi mavjud.

1. Morfologik usul – bunda so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida sifatdan sifat, boshqa so‘z turkumlaridan sifatlar yasaladi. Sifat o‘zbek tilida eng ko‘p so‘z yasovchi qo‘shimchalarga ega bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ot va fe’ldan sifatlarni yasaydi.

- li* ishli, bilimli, aqli, qudratli
- chan* ishchan, ko‘ngilchan, uyatchan
- chil* epchil, dardchil, izchil
- aki* zo‘raki, qalbaki, xonaki
- q* iliq, chanqoq, qaynoq
- iq* yig‘iq, bo‘g‘iq, to‘liq
- qoq* urushqoq, tirishqoq, yopishqoq
- chak* kuyunchak, erinchak
- choq* maqtanchoq, tortinchoq
- g‘in* qizg‘in, ozg‘in, sulg‘in
- g‘un* tuyg‘un, turg‘un

–*qin* sotqin, jo‘shqin
 –*ag‘on* bilag‘on, qopag‘on, chopag‘on
 –*gir* sezgir
 –*g‘ir* olg‘ir
 –*qir* topqir, chopqir
 –*siz* suvsiz, yersiz, bahosiz
 –*k* chirik
 –*iy(viy)* tarixiy, ilmiy, zamonaviy, oilaviy
 –*gi(-ki, -qi)* yozgi, bugungi, ichki, kechki, yig‘loqi, sayroqi
 –*i* qishloqi, iroqi, zardo‘zi
 –*ma* qaynatma (shurva), hovliqma, sochma
 –*simon* maymunsimon, odamsimon, tuxumsimon
 –*in* erkin, otashin, yashirin
 –*parvar* ma’rifatparvar, insonparvar
 –*gar(kor)* javobgar, ig‘vogar, fidokor, xaloskor
 –*mand* orzumand, ixlosmand, havasmand
 –*vor* ulug‘vor, tantanavor, afsonavor
 –*parast* gulparast, maishatparast, molparast
 –*dor* go‘shtdor, dimog‘dor, salmoq dor
 –*cha* buxorocha (o‘yin), turkmancha (telpak)
 –*bop* ko‘ylakbop, mantibop, ko‘rpabop, sizbop
 –*kash* dilkash, hazilkash, jafokash, pastkash
 –*shumul* olamshumul, jahonshumul
 –*namo* mullanamo, olimnamo
 –*don* gapdon, bilimdon, qadrdon.

Sifat yasovchi qo‘shimchalar ichida asos oldidan qo‘shilib, yangi so‘z yasaydiganlari ham bor. Bular asosan o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan old qo‘shimchalar hisoblanadi.

ba— batafsil, bama’ni, bahaybat
be— besabab, begunoh, bepul, beqiyos
no— noto‘g‘ri, noqulay, norozi, noinsof
ser— serhosil, serunum, sertashvish, sergap
bad— badnafs, badbashara, badqovoq
xush— xushbichim, xushbo‘y, xushvaqt

bar – bardavom, barhayot, barvaqt.

Yuqorida ta’kidlanganidek, keltirilgan yasama sifatlarning asosi ot, fe’l so‘z turkumlariga oid so‘zlardir.

2. Sintaktik usul – bu usul bilan qo‘shma sifatlar yasaladi.

Qo‘shma sifat qismlari qaysi so‘z turkumidan ekanligiga qarab quyidagicha bo‘ladi:

- a) ikki sifatdan: qorasovuq, xomsemiz, olachipor
- b) sifat+otdan: shirinso‘z, qorako‘z, qimmatbaho, sofdil
- v) ikki otdan: havorang, bug‘doyrang, bodomqovoq
- g) ravish+otdan: kamunum, kamgap, hozirjavob, kechpishar
- ye) ravish, ba’zan ot va fe’lning sifatdosh shaklidan: tezotar, ertapishar, tinchliksevar, tezoqar
- z) ot+aro so‘zidan: xalqaro, millatlararo, shaharlararo
- i) umum so‘zi+otdan: umumxalq, umumshahar, umumittifoq

Qo‘shma sifat qismlari 1956- yilda qabul qilingan imlo qoidalari ko‘ra qo‘shib ham, ajratib ham yozilgan.

1995- yilda qabul qilingan imlo qoidalari talabiga ko‘ra qo‘shma sifat qismlari qo‘shib yoziladi.

Sifat so‘z turkumidagi so‘zlarning ikki usulda yasalishidan xabardor bo‘lgach, matnda uchraydigan morfologik va sintaktik usulda yasalgan sifatlarni yasama deyishimizga asosimiz bo‘ladi: bilimli, sofdil. Tub sifat atamasini qo‘shma sifatlarga tadbiq etib bo‘lmaydi. Odatda tub sifat deganda tarkibida yasovchi qo‘shimchasi bo‘lмаган sodda so‘zlarni, xususan, sifatlarni tushunamiz. Demak, tub sifatlarni sodda sifatlar tarkibidan izlash o‘rinlidir. O‘quvchilardan boshqa so‘z turkumlaridagi kabi sifatlarda ham tub so‘zlar so‘ralsa, hyech qanday qo‘shimchalar qo‘shilmagan sifatlarni misol keltirishadi. Bu - bir jihatdan to‘g‘ri javob hisoblanadi. Biroq tub so‘zlar tarkibida qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlaridan ikkitasi (lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchilar) ishtirok etishi mumkinligini e’tibordan qochirmslik kerak: katta so‘zi tub bo‘lgani holda kattaroq so‘zi ham shunday. Qizg‘ish, ko‘kintir, kattagina so‘zlarini ham tub deyilishiga asos bor.

Sifatlarda belgilarning qiyos qilinishini yoki yangi ma’no hosil qilishni nazarda tutmaydigan maxsus modal ma’noni ifodalovchi shakllar mavjud. Odatda modal ma’no deganda sifatdan anglashilgan belgining kuchliligi, ortiqligi, kamligi tushuniladi. Modal ma’no morfologik usul (maxsus qo’shimchalar yordamida)da va sintaktik usul (takrorlash orqali)da hosil qilinadi. Belgining kuchliligi quyidagicha hosil bo‘ladi:

– oddiy darajadagi sifat oldidan juda, g‘oyat, nihoyatda so‘zlarini keltirish orqali;

– sifatni takrorlash orqali (bunda birinchi qism chiqish kelishigida bo‘ladi) uzundan-uzun, bemazadan-bemaza kabi – oddiy darajadagi sifatning bo‘g‘inini o‘sha so‘zning to‘la shaklidan avval keltirish va tovush orttirish orqali: yam-yashil, sap-sariq, qop-qora, bab-barobar.

Belgining kamlik shakli *-roq*, *-shi*, *-mtir* (*-imtir*) qo’shimchalari vositasida hosil qilingani uchun morfologik usulda ifodalanish deyiladi. Bu qo’shimchalar ishtirokidagi misollarni ozaytirma daraja haqida gapirganda havola qilgan edik.

Sifatlarda belgining noaniqlik shakli ham mavjud. Buni chiziqcha orqali yozilib, noaniq belgini bildirgan quyidagi so‘zlarda ko‘rishimiz mumkin: chala-chulpa, ola-bula, yengil-yelpi, g‘ira-shira, kalta-kulta, yapaloq-sapaloq, g‘adir-budur, mayda-chuyda.

Boshqa so‘z turkumlaridagidek, sifatlar ham tuzilish jihatdan sodda, qo’shma, juft va takror bo‘ladi. Sodda sifatlar bir asosdan iborat bo‘ladi: qizil, buyuk, nordon, chiroyli, uyatchan kabi. Sodda sifatlar tarkibiga ko‘ra sodda tub va sodda yasama ko‘rinishida uchraydi. Sodda tub sifatlar tarkibida so‘z yasovchi qo’shimchalar ishtirok etmagan bo‘ladi: katta, qizg‘ish, sarg‘imtir, balandroq.

Sodda yasama sifatlar tarkibida so‘z yasovchi qo’shimchalar ishtirok etadi, ya’ni ular morfologik usulda yasalgan sifatlardir: qaynoq, tinch, ulug‘vor, bahosiz, besabab, bama’ni kabi.

Qo’shma sifatlar yuqorida ta’kidlanganidek, sintaktik usulda yasalgan sifatlardir. Ular ikki va undan ortiq mustaqil morfemalarning birikishi hamda bir urg‘u bilan aytishidan hosil bo‘ladi: bug‘doyrang, mehnatsevar, arzongarov, sofdir kabi.

Juft sifatlar predmetning bir umumiyligi ifodalash uchun xizmat qiladigan ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi. Shu sababli chiziqcha orqali yozilgan har bir sifat o'z urg'usiga ega bo'ladi. Ular quyidagicha juftlashib qo'llanishi mumkin:

- a) har xil ma'nodagi sifatlar: sarg'imtir-qizg'ish, ko'k-qashqa;
- b) ma'nodosh yoki yaqin ma'noli sifatlar: qing'ir-qiyshiq, ochiq-sochiq, och-yalang'och;
- v) qarama-qarshi ma'noli sifatlar: oq-qora, past-baland, yaxshi-yomon.

Juft sifat qismlari orasida ba'zan *-u(yu)* bog'lovchi vazifasidagi yuqlama kelishi mumkin. Bu vosita kirill yozuvida birinchi qismga qo'shib yozilar edi (kattayu kichik, yaxshiyu yomon, pastu baland tarzida), lotin yozuvida esa *-u(yu)* dan oldin chiziqcha qo'yiladi: kattayu kichik, yaxshi-yu yomon, past-u baland.

Takror sifatlar bir sifatning aynan o'zini yoki ikkinchi qismining tovush o'zgarishi bilan takrorlanishidan hosil qilinadi. Takror sifatlar belgining mavjudligini ta'kidlaydi, bu xususiyati bilan uslubiy vazifani bajaradi: katta-katta, baland-baland, uzun-uzun, ulkan-ulkan kabi. Havola qilingan ikki gapni bir-biriga solishtiraylik: Men baland tog'larga chiqqim kelyapti. Men baland-baland tog'larga chiqqim kelyapti. Shubhasiz, ikkinchi ko'rinishdagi gapda sifat ta'kid ma'nosini ifodalamoqda.

Sifat so'z turkumida otlashish hodisasi mavjud. Avvalo, otlashish nima, otlashganda otning qaysi xususiyatlari ko'chadi? Otlashish – biror so'z turkumining ot o'rnida qo'llanib, uning gapdagi vazifasini bajarishidir. Otlashgan so'zlar o'z so'rog'ini yo'qotib, otning so'rog'iga javob bo'ladi. Ular otning o'rnida to'g'ridan-to'g'ri yoki otning ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini olib qo'llanishi mumkin.

Yaxshi (to'g'ridan-to'g'ri) topib gapirar, yomon (to'g'ridan-to'g'ri) qopib gapirar. Bu singari gaplarda sifatning otlashganini aniqlash uchun unga kim? so'rog'ini berib ko'rish kerak. Yoki sifatdan keyin ot turkumiga tegishli odam, kishi so'zlarini keltirish lozim. Aslida odam, kishi so'zlariga berilishi kerak bo'lgan kim? so'rog'i ular ishtirok etmagani uchun sifatga beriladi. Shu hodisa otlashishning o'zginasi.

Otlashish hodisasini o‘quvchilarga yanada soddaroq tushuntirish imkoni ham bor. Faraz qilaylik, ot turkumida o‘rganiladigan ko‘plik, egalik, kelishik kategoriyalari, aniqrog‘i, ularning qo‘shimchalari shu turkumning liboslaridir. Ana shu liboslarni kiygan ot turkumidagi so‘zlar gapda turli gap bo‘laklari (ega, kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi) vazifasida keladi. Otlashgan so‘zlar, jumladan, sifatlar otning liboslarini kiysa, ot kabi yuqoridagi sintaktik vazifalarni bajaradi.

Yaxshini (kimni?) maqtasang yarashadi.

Kattalarning (kimlarning?) gapiga qulq solish kerak.

Otning yaxshisi (nimasi?) uloqda bilinadi.

Bolalarning yaxshisi (kimi?) odoblisisidir.

Otlashish xususiyati haqidagi ma’lumotlar bilan tanishgan o‘quvchini o‘zbek tilida qaysi turkumdagi so‘zlar otlashadi degan savol qiziqtirishi tabiiy. Sifat, son, ravish, fe’lning sifatdosh shakli, undov so‘z, modal so‘z, taqlid so‘z otlashadi. Ularga otning morfologik ko‘rsatkichlari (ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalari) qo‘shilgan holat otlashishdir: biriga, ko‘plar, yugurganning, oh-vohi, boriga, shivir-shiviri kabi misollar otlashgandir. Jonli tilimizda yordamchi so‘z turkumidagi so‘zlarning otlashishi ham kuzatiladi. Sizga bir gap aytmoqchi edim, ammo lekini bor-da. Lekin bog‘lovchisiga III shaxs egalik qo‘shimchasining qo‘shilib kelishi va nimasi? so‘rog‘iga javob berishi otlashishdir.

Shu o‘rinda yana bir mulohazaga e’tibor qaratish lozim. Ot turkumiga xos bo‘lgan ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalari ba’zan olmosh, fe’lning harakat nomi shakllariga to‘g‘ridan- to‘g‘ri qo‘shilib keladi. Ta’kidlash kerakki, bu otlashish emas. Egalik, kelishik qo‘shimchalarining ularga qo‘shilishi turlanish hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sifat so‘z turkumining ta’rifi va misollar tahlili.
2. Sifat asosan qaysi so‘z turkumiga bog‘lanadi?
3. Sifat predmetning necha xil belgi xususiyatini ifodalaydi?
4. Sifat darajalari haqida ma’lumot.

5. Sifatlarning ma’noviy guruhlari.
6. Sifatlarda modal shakllarning hosil bo‘lishi.
7. Sifatning orttirma darajasini hosil qilish yo‘llari.
8. Sifat darajalarining leksik usulda hosil qilinishini qanday izohlaysiz?
9. Sifatlarning yasalish usullari.
10. Morfologik usulda yasalgan sifatlarga misollar va ularning tahlili.
11. Sintaktik usulda yasalgan sifatlarga misollar va ularning izohi.
12. Asliy va nisbiy sifatlar: farq va o‘xshash tomonlar.
13. Yasama sifatlarga misollar keltirib, ma’noviy guruhlarini izohlang.
14. Tub sifatlar haqida ma’lumot bering?
15. Tub sifatlar tarkibida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘sishimchalar.
16. Sodda tub va sodda yasama sifatlar: o‘xshash va farqli jihatlar.
17. Yasama sifat atamasini ilmiy jihatdan asoslang.
18. Sifat so‘z turkumidagi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘sishimchalar va ular ishtirokidagi misollar tahlili.
19. Sifatlarning fe’lga bog‘lanib kelishini qanday izohlaysiz?
20. Sifat darajalarining morfologik usulda ifodalanishini izohlang.
21. Qo‘shma sifatlarning tarkibi haqida ma’lumot bering.
22. Otdan sifat yasovchi qo‘sishimchalar va ular ishtirokida tuzilgan misollar tahlili.
23. Fe’ldan sifat yasovchi qo‘sishimchalar va ular ishtirokida yasalgan misollar tahlili.
24. Sifatlarda modal shaklning yasalishi.
25. Qo‘sishimchalarning vazifasiga ko‘ra necha turi sifatlarda uchraydi, misollar asosida sharhlang.
26. Sifat so‘z turkumining grammatik belgilarini sanang va izohlang.

27. Juft va takror sifatlar: o‘xshash va farqli jihatlar.
28. Sifatlarning otlashish xususiyati.
29. Sifatlardagi old qo‘shimchalar izohi va misollar.
30. Old va so‘ng qo‘shimchalarning ma’nodoshligi, ular ishtirokidagi misollar sharhi.

7-MAVZU: SONNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. OLMOSHNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

(ma'ruza)

Reja:

1. Son so‘z turkumi va uning morfologik, leksik-grammatik xususiyatlari.
2. Sonning ma’noviy guruhlari va ularni hosil qiluvchi morfologik ko‘rsatkichlar.
3. Olmosh so‘z turkumi va uning leksik-morfologik xususiyatlari.
4. Olmoshlarning ma’no turlari va ularning xususiyatlari, tuzilish jihatdan turlari.

Tayanch so‘zlar: son, miqdor son, kasr son, sanoq son, chama son, jamlovchi son, taqsim son, tartib son, olmosh, kishilik olmoshlari, ko‘rsatish olmoshlari, o‘zlik olmoshi, so‘roq olmoshlari, belgilash olmoshlari, bo‘lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari, sodda son, sodda olmosh, qo‘shma son, qo‘shma olmosh, juft son va juft olmoshlar, takror son va takror olmoshlar.

Son bir xildagi predmetlarning (ba’zan ish-harakatning) miqdorini va tartibini ifodalaydigan mustaqil so‘z turkumi hisoblanadi. Son asosan ot turkumidagi so‘zlarga bog‘lanib, u ifodalagan miqdor belgisini ko‘rsatadi. Son turkumidagi so‘zlar otga bog‘lanmagan holda ishlatilishi mumkin. Bunday holatda son ifodalagan miqdor mavhum, ya’ni nimaning miqdori ekanligi noma’lum bo‘ladi. Masalan, beshta, o‘nta deganda son predmet nomi bilan qo‘llanmagani uchun noaniqlik ifodalamoqda. O‘z-o‘zidan, bunda nima? degan savol tug‘iladi. Shu sababli otga bog‘lanib kelgan uchta qalam birikmasidagi sonni aniq miqdorni ifodalash xususiyatiga ega deb hisoblaymiz.

Hozirgi o‘zbek tilida faol ishlatiladigan 22 ta tub son mavjud: bir ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmis, yetmis, sakson, to‘qson, yuz, ming, million, milliard. Qolgan sonlar shular ishtirokida hosil qilinadi.

Hozirgi o‘zbek tilida ikki xil raqamdan foydalaniladi:

a) *arab raqami*. Matematik hisob-kitobda, yil, oy, kun kabilarni ifodalashda qo‘llaniladi: 1, 2, 3... 1 sentyabr, 2021-yil kabi.

b) *rim raqami*. Arab raqamiga nisbatan kam qo‘llaniladi: asrlar, yirik hajmlli badiiy asarlarning boblari rim raqamida beriladi. Miqdorni rim raqamida ifodalash barcha o‘quvchilar uchun qiziqarlidir. (X (10), XX (20), XXX (30), XL (40), L (50), LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC (90), C (100), CC (200), CCC(300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900), M (1000).

Faraz qilaylik, o‘quvchi 3228 arab raqamini rim raqamida qanday ifodalaydi? MMMCCXXVIII (3228).

Son so‘z turkumining morfologik belgilari quyidagilar:

1. Ot oldida kelib, uning miqdorini, tartibini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu holat sonning asosiy morfologik belgisi – turlanmasligini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda son o‘zgarmaydigan so‘z turkumi deyilgan, ya’ni turlanmaydi, tuslanmaydi.
2. Sonning nomini bildiradi: 1 (bir), 2 (ikki), 10 (o’n). Sonning nomini bildirgan so‘zlarga egalik va kelishik qo‘sishchalarini qo‘sish mumkin. Bu holat turlanish emas, otlashish hisoblanadi: *biri, birini, o‘ntasi* kabi.
3. Son yasalmaydigan so‘z turkumi. Unda maxsus yasovchi affikslar yo‘q. Demak, u o‘zidan ham, boshqa so‘z turkumlaridan ham yasalmaydi. Biroq son turkumidagi so‘zlar so‘z yasalishi uchun asos bo‘lishi mumkin: *bir+lash, bir+lik, bir+ik, iksi+lan* kabi.
4. Sonlarning ma’no turlarini hosil qiladigan qo‘sishchalar mavjud: *-lab, -larcha, -ta, -ala, -ov, -ovlon, -nchi (-inchi), -tadan, -tacha* kabi. Bular vazifasiga ko‘ra lug‘aviy shakl yasovchi qo‘sishchalar sanaladi.
5. Son turkumida hisob so‘zlar qo‘llanadi. Hisob so‘zlar son bilan ot orasida ishlatilib, ular ot turkumiga tegishli so‘zlar bo‘ladi: besh tonna g‘alla, besh metr gazlama, o’n bosh qoramol, bir to‘da qushlar, bir paqir suv, olti mashina o‘tin.

Hisob so‘zlar ilmiy adabiyotlarda numerativlar deb ham yuritiladi. Ular shunday ma’nolarni ifodalaydigan otlardir:

- donalikni: bosh, dona, tuyoq, nafar, nusxa, tup kabi.
- butunning bo‘lagini: tilim, siqim, karch, lagan, savat, qop, tuya, mashina kabi.
- juftlikni: juft.
- uzunlikni, masofani: millimetr, santimetr, qadam, qarich, enlik kabi.
- og‘irlilik o‘lchovini: gramm, kilogramm, tonna, misqol.
- suyuqlik hajmini: metr, kosa, stakan, qoshiq, xo‘plam, hovuch kabi.
- pul qiymatini: tiyin, tanga, so‘m kabi.
- vaqtni bildiradi: minut, soat, kun, oy, yil, asr, daqiqa, soniya kabi.

Hisob so‘zlar o‘zidan oldin turgan sonlar bilan birqalikda gap bo‘lagiga ajratiladi, bu bo‘lak doimo sifatlovchi aniqlovchi bo‘ladi.

Son so‘z turkumi gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

- a) ot oldida qo‘llangan sonlar har doim sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *o ‘ninchи uy, o ‘n oltinchi qator, sakkizta qalam*.
- b) fe’l oldida qo‘llangan sonlar harakatning miqdorini bildirgani uchun gapda hol vazifasida keladi: *qalamlardan o ‘nta oldim*.
- v) son ot yoki fe’lga tobe bo‘lmasa, otlashsa, gapda ega, kesim (otkesim), qaratqich aniqlovchi, to‘ldiruvchi vazifalarida keladi: to‘rtadan ikkini ayirsak, ikki qoladi. Uch karra uch – to‘qqiz. Oltining yarmi – uch.
- g) sonlar ichida bir soni alohida grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi:

– avval tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelganda bir so‘zi noma’lumlik, guman ma’nolarini bildiradi: *Bir kishi keldi*. Miqdor anglatadigan so‘zlar bilan ishlatilganda ham shunga o‘xshash ma’noni ifodalaydi: *bir qancha, bir necha, bir oz, bir talay, bir gala* kabi.

– holat anglatadigan ayrim fe'llar oldida, shuningdek, ot, sifat, ravish oldida kelgan bir so'zi ma'noni kuchaytiradi: *Biz tez yurasiz..., bir uraman..., bir vahima qilasiz..., bir chiroylı, bir chiroylı...*

– uyushib kelgan bo'laklarni, ba'zan qo'shma gap qismlarini biriktiradigan bog'lovchi vazifasini bajaradi: Xursandchilikdan bir kuladi, bir yig'laydi. Bugun bir qor yog'adi, bir yomg'ir yog'adi.

– ayiruv, chegaralov yuklamasi o'rnida ishlatilishi mumkin: Imtihondan hamma o'tdi, bir Ahmad yiqildi (faqat yuklamasi o'rnida).

Sonlar ma'no xususiyati va grammatik belgilari jihatidan dastlab ikki guruhga bo'linadi: 1. Miqdor son. 2. Tartib son.

Miqdor sonlar narsa – predmet miqdorini sanash orqali ifodalaydi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sanoq son – narsaning miqdorini sanab ko'rsatishga xizmat qiladi: bir, ikki, uch kabi.

Sanoq son affikssiz qo'llanadi: ikki kishi, uch kitob, olti qalam kabi.

b) dona son – predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. U son asosiga –ta qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: *beshta, o'nta, ikkita*.

Dona son hosil qiladigan –ta qo'shimchasini ba'zi hisob so'zlar bilan almashtirib qo'llash mumkin:

ikkita – ikki dona olma

uchta – uch nafar qiz

ikkita – ikki bosh sigir

bitta – bir tup ko'chat.

v) chama son – predmetning taxminiy miqdorini anglatadi. U son asosiga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil bo'ladi:

-*tacha* o'ntacha (qalam), beshtacha (qo'y)

-*larcha* yuzlarcha (odam), minglarcha

-*lab* yuzlab (odam), minglab (kitob).

Ba'zan ikki sonni juftlash orqali ham chama ma'nosi ifodalanadi: besh-o'n (odam), bir-ikki (kishi).

g) jamlovchi son – predmetlarning donalab sanalishidan tug'ilgan sonni, miqdorni jamlash, birlashtirish orqali ifodalaydi:

- ov oltov, beshov
- ala ikkala, uchala
- ovlon beshovlon, to'rtovlon

Jamlovchi son hosil qiluvchi yuqoridagi qo'shimchalar barcha sonlarga qo'shilavermaydi. Ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, o'n (jami yettita) sonlariga qo'shiladi.

d) taqsim son – predmetlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi. U son asosiga –*tadan* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: beshtadan, o'ntadan. Taqsimlanish ma'nosи ikki sonning takrorlanishi bilan ham hosil qilinishi mumkin: o'nta-o'nta (o'ntadan) konfet tarqatildi.

2. Tartib son bir xildagi predmetlarning sanash vaqtida joylashish tartibini, ish – harakatning bajarilish tartibini anglatadi. Tartib son son asosiga –*nchi (-inchi)* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Shunga ko'ra nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi: *uchinchi parta, beshinchi mashq, ikkinchi kelishlari* kabi.

Tartib son ayrim hollarda sanash vaqtidagi tartibni emas, balki narsaning turini bildirishga xizmat qiladi: *o'ninchi g'altak (ip), beshinchi lampa, uchinchi kalish* kabi.

Sonlar tuzilish jihatdan ham bo'linishga ega:

– sodda son bir so'zdagina iborat bo'ladi: bir, ikki, besh, yarim kabi. Yuqorida tilga olingan 22 ta faol son shaklan bir so'zdan iborat bo'lgani uchun sodda son hisoblanadi.

– murakkab (qo'shma) son – bir miqdorni anglatadigan ikki va undan ortiq sonlarning tobelanishidan tuziladi: *o'n ikki, bir ming to'qqiz yuz, oltmisht* kabi.

– juft son – sanoq qatorida ketma-ket keladigan ikki sonning teng bog'lanishidan tuziladi. Bunda kichik son oldin keladi. Sonlarning juftlashishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

a) birliklar ketma-ket keladi: bir-ikki, uch-to'rt, besh-olti;
b) beshliklar ketma-ket keladi: besh-o'n, o'n-o'n besh, o'n besh – yigirma;

v) o'nliklar ketma-ket keladi: yigirma-o'ttiz, qirq-ellik. Ammo o'n-yigirma ko'rinishida juftlashmaydi;

g) yuzliklarda juft son bir yuz-ikki yuz ko‘rinishida ham, bir-ikki yuz kabi holatda ham bo‘ladi.

– takror son – bir xil sonning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi: beshta-beshta, o‘nta-o‘nta kabi.

Olmosh so‘z turkumi. Barcha mustaqil so‘zlar turkumi, shuningdek, so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llanib, ularning vazifasini bajaruvchi so‘z turkumi olmosh hisoblanadi. Odatda olmosh so‘z turkumi barcha mustaqil so‘z turkumlarining so‘ngida o‘rganilishida ham o‘ziga xos mazmun bor, chunki o‘quvchi ular haqida yetarlicha nazariy tushunchalarga ega bo‘lgandan so‘ng olmoshlarning qo‘llanishi haqida ma’lumotlarni o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Olmoshlarning o‘zi atash ma’nosiga ega bo‘lmaydi, balki atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarga ishora qiladi. Olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llansa, shu turkumdagi so‘zning gapda qayta qo‘llanishiga yo‘l bermaydi. Bu uning muhim uslubiy xususiyati sanaladi:

От о‘rnida: Akam zavodda ishlaydi, u injener.

Sifat o‘rnida: Qizil – tabiatdagi ranglardan biri, u qayfiyatni ko‘taradi.

Son o‘rnida: O‘n beshga bo‘linadi, u ikkiga ham bo‘linadi.

Fe’l o‘rnida: Sigir ekinzorni payhon qildi, bu dehqonni g‘azablantirdi.

Ravish o‘rnida: Ko‘p, oz so‘zlari miqdor ravishlari hisoblanadi, bular otlashish xususiyatga ega.

So‘z birikmasi o‘rnida: Kumush qish- tobe bog‘lanish, u so‘z birikmasi. Gap o‘rnida: Niyatim shuki, O‘zbekiston gullab yashnagan diyorga aylansin.

Ayrim hollarda olmosh yordamchi so‘z turkumiga oid so‘zlarga ham ishora qilishi mumkin:

Biroq, ammo, lekin – teng bog‘lovchilar, ular zidlov bog‘lovchilaridir.

Olmoshlar boshqa so‘z turkumlari o‘rnida kelishi va shu so‘zlarning grammatik xususiyatlariga ega bo‘lishi bilan birga, ularning o‘ziga xos bo‘lgan alohida grammatik belgilari ham bor. Bu belgilar olmoshning alohida so‘z turkumi sifatida ajralishiga imkon bergan.

Jumladan, umumlashgan narsa bildiruvchi olmoshlar ma'lum grammatic belgi-xususiyatlariga ko'ra otlardan farq qiladi. Bu olmoshlar grammatic son kategoriyasini boshqacharoq ifodalaydi – birlik va ko'plik shakllari bo'lgan *men* va *biz* olmoshlari o'rtasidagi bog'lanish otlardagi birlik va ko'plik shakllariga o'xshamaydi. *Men* olmoshi bitta so'zlovchini ko'rsatsa, *biz* olmoshi esa bir qancha so'zlovchini emas, balki bir so'zlovchining boshqa shaxslar bilan bиргалидагини ко'rsatadi. Olmoshlar ham otlar kabi kelishik qo'shimchalarini olib o'zgaradi, ya'ni turlanadi. Ular kelishik qo'shimchalar olib turlanishi jihatdan ham otlardan farq qiladi. Ma'lumki, otlarda kelishik affiksi tushib qolishi mumkin: choyni ichdim – choy ichdim, kitobning sahifalari – kitob sahifalari kabi. Olmoshlarda esa kelishik affikslari tushib qolmaydi. Masalan: Bola yugurgancha borib uni qarshi oldi gapida –*ni* qo'shimchasini tushirib, u qarshi oldi deb bo'lmaydi. Yoki sizning fikringiz so'z birikmasidagi –*ning* qo'shimchasini tushirib bo'lmaydi. Demak, olmoshlarda qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari belgili shaklda qo'llanadi. Olmoshlar nafaqat morfologik, balki sintaktik xususiyatlari bilan ham otlardan farqlanadi. Umumlashgan narsa bildiruvchi olmoshlar sifatlar va qaratqich kelishigidagi ot tomonidan aniqlanmaydi. Olmoshlarda yasalish xususiyati yo'q (gumon olmoshi bundan mustasno), shakl yasalishi xususiyati ham ancha zaif. Olmoshlar morfologik va sintaktik usul bilan yasalmasa ham, ular so'z yasalish jarayonida asos vazifasini bajarish mumkin: siz+bob, o'zi+cha, siz+la, sen+sira kabi.

Olmoshlar anglatgan ma'nolari va grammatic belgilariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari. Shaxs o'rnida qo'llanadigan men, sen, u, biz, siz, ular so'zlari kishilik olmoshlari hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi shaxsdagi men, sen, biz, siz olmoshlari narsalarni ko'rsatish xususiyatiga ega emas. Uchinchi shaxs u, ular olmoshlari shaxsni ham, narsalarni ham ko'rsata oladi. Birinchi shaxsdagi men va biz olmoshlari so'zlovchi shaxsni, sen olmoshi esa so'zlovchi murojaat qilgan, uning nutqi qaratilgan suhbatdoshni – tinglovchini ko'rsatadi. Kishilik olmoshining ikkinchi shaxs ko'pligi *siz* ko'pincha bir shaxsga nisbatan

hurmat ma’nosida qo‘llaniladi. Agar *siz* olmoshi o‘rnida *sen* olmoshi qo‘llanganda tinglovchiga nisbatan hurmatsizlik ma’nosi ifodalanadi. *Biz* olmoshi ham ba’zan *men* olmoshi o‘rnida qo‘llansa, so‘zlovchining mag‘rurlanishi yoki kamtarligini ifodalaydi: *Biz* savobtalab yigitlardanmiz (aytilish ohangiga ko‘ra mag‘rurlik ham, kamtarlik ham ifodalanishi mumkin). *Biz* (aslida men demoqchi) o‘z kitobimizda ustozlarning ibratli o‘gitlaridan foydalandik. Kishilik olmoshining uchinchi shaxs birligi o‘rnida ko‘pligi qo‘llansa, hurmat ma’nosi ifodalanadi: Dadam maktabda ishlaydi, ular o‘qituvchi (aslida u demoqchi). Kishilik olmoshining uchinchi shaxs birligi *u* boshqa turkiy xalqlardagi singari, o‘zbek tilida ham ko‘rsatish olmoshi bilan shaklan bir xil. Ammo ular ma’nosi, vazifasi va so‘roqlari bilan bir-biridan farqlanadi, bu nutq jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kishilik olmoshlarining kelishik qo‘srimchalarini olib turlanishi otlarga o‘xshaydi. *Men* va *sen* olmoshlariga *-ning* va *-ni* qo‘srimchalari qo‘shilganda asosdan *-n* tushib qoladi. Ko‘pchilik o‘quvchilar o‘ylaganidek, men so‘ziga *-ing* emas, *-ning* qo‘shiladi. Men so‘ziga *-i* emas, *-ni* qo‘shiladi. Uchinchi shaxs u kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘srimchalarini qo‘shilganda *-n* tovushi orttiriladi: *u+n+ga*, *u+n+da*, *u+n+dan* kabi.

Kishilik olmoshlariga egalik qo‘srimchalari qo‘silmaydi. Ularning turlanishi deyilganda faqat kelishik qo‘srimchalarini qabul qilishi tushuniladi. Kishilik olmoshlaridan men o‘rnida eski o‘zbek tilida kamina, qulingiz, kamtarin ojizingiz, faqir kabi so‘zlar qo‘llanilgan. Bu kabi so‘zlar ishtirok etgan gaplarning kesimi III shaxs shaklida bo‘lgan. Masalan: Kamina keldi, faqir eshitmadni, qulingiz keldi kabi.

Kishilik olmoshlarini o‘rganish jarayonida men, sen, biz, siz kabilarning shaxs o‘rnida qo‘llanishini e’tiborga olib, ular o‘quvchilar tomonidan ot deb tahlil qilish hollari kuzatiladi. Hatto sintaktik tahlil qilish jarayonida ot bilan ifodalangan egani aniqlang mazmunidagi savolga yuqoridagi kishilik olmoshlarini to‘g‘ri javob sifatida belgilagan o‘quvchilar talaygina. Buning sababi surishtirilganda, ular o‘z javoblarini kim? so‘rog‘iga asoslanib belgilashganini aytishgan, ya’ni bola – kim?, men – kim? Bunday holatlarda o‘qituvchi kim? so‘rog‘iga

ham ot, ham kishilik olmoshi javob bo‘lishini asoslab berishi zarur. Qolaversa, kim? so‘rog‘ining o‘zi ham so‘roq olmoshi.

2. Ko‘rsatish olmoshlari. Shaxs, narsani va ularning belgisini, bir turdag'i narsalardan bittasini ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash uchun xizmat qiladigan olmoshlar ko‘rsatish olmoshlari sanaladi. Ular qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ko‘rsatish olmoshlariga *bu*, *shu*, *u*, *o‘sha*, *mana bu*, *mana shu*, *ana shu*, *ana u* kabi so‘zlar kiradi. Ko‘rsatish olmoshlari so‘zlovchi bilan ko‘rsatayotgan narsa orasidagi masofa, vaqt munosabatiga ko‘ra qo‘llaniladi:

bu olmoshi so‘zlovchiga ancha ayon bo‘lgan, unga nisbatan yaqin masofada turgan, yaqindagina eslatilgan narsa, voqyeani ko‘rsatishga xizmat qiladi: Bu yigit ancha xushmuomala, odobli edi.

shu olmoshi so‘zlovchining ko‘z oldida bo‘lgan yoki yaqin vaqt ichida so‘zlab o‘tilgan predmetni yana eslatish, boshqalardan ajratish yo‘li bilan ko‘rsatish uchun ishlatiladi. *Shu* olmoshida ta’kid ma’nosи kuchli: Shu behida bir gap bor ekan.

u olmoshi so‘zlovchiga nisbatan ancha uzoqda turgan yoki ancha ilgari eslatib o‘tilgan narsalarni ko‘rsatadi: u falokatdan bilib qochgan ekansiz-da, o‘g‘lim.

o‘sha ko‘rsatish olmoshi so‘zlovchiga ilgaridan ma’lum bo‘lgan, ilgari eslatib o‘tilgan narsa, vaqt yoki hodisani ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi: Vajohati yomon, nahotki *o‘sha* gapni shu majlisga asrab yurgan bo‘lsa?

Bu, *shu*, *u*, *o‘sha* ko‘rsatish olmoshlarini yuqoridagi ta’riflariga mos holda nutqda qo‘llash uslubiy jihatdan o‘rinli bo‘ladi. Haqiqatan ham, ko‘z oldingizdagi choynakka nisbatan *o‘sha* choynak deb ko‘rsatish xato. O‘sha choynak so‘z birikmasida *o‘sha* olmoshi to‘g‘ri qo‘llangan bo‘ladi, qachonki bir paytlardagi choynak ma’nosи anglatilsa, ko‘rsatilsa. Ehtimol, ancha ilgari yo‘qotilgan choynak haqida gapirilayotgan bo‘lsa.

Bu, *shu*, *u*, *o‘sha* ko‘rsatish olmoshlari eski o‘zbek adabiy tilida bul, shul, ul, o‘shal ko‘rinishida qo‘llangan.

Ko‘rsatish olmoshlari nutqda asosan ot oldida qo‘llangani sababli uning aniqlovchisi bo‘lib keladi: bu kitob, shu voqyea, *o‘sha* odamlar.

Ko‘rsatish olmoshlari ot bajaradigan vazifada kelsa, ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalarini olishi mumkin: bular, bu+n+ingiz, bu+ni kabi. Ko‘rsatish olmoshlariga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilsa, –n orttiriladi: bu+n+ga, bu+n+da, bu+n+dan. Ko‘rsatish olmoshlariga III shaxs egalik qo‘shimchasi ikki marta qo‘shiladi: bu+n+i+si, shu+n+i+si, o‘sha+n+i+si, u+n+i+si. Buning sababi shundaki, agar bir marta qo‘shilsa, tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilgan holat bilan bir xil ko‘rinishda bo‘ladi: bu+ni – bu+n+i+si. Demak, farqlash uchun shunday yo‘l tutiladi.

3. O‘zlik olmoshi. O‘z so‘zi o‘zlik olmoshi hisoblanib, u kishilik olmoshi va otning ma’nosini oydinlashtiradi. O‘zlik olmoshi quyidagi xususiyatlarga ega:

– egalik qo‘shimchasini olgan o‘zlik olmoshi uch shaxsdagi kishilik olmoshiga ishora qiladi:

I sh. o‘z+im (men) o‘z+imiz (biz)

II sh. o‘z+ing (sen) o‘z+ingiz (siz)

III sh. o‘z+i (u) o‘z+lari (ular)

Ayrim hollarda o‘zlik olmoshi kishilik olmoshi bilan birlashtiriladi. Bunday holatda ta’kidlash, ajratib ko‘rsatish ma’nosi anglashiladi. Solishtiramiz:

O‘zim keldim – Men o‘zim keldim.

O‘zing kelding – Sen o‘zing kelding.

O‘zi keldi – U o‘zi keldi.

O‘zlik olmoshi ot bilan bog‘langanda, otga egalik qo‘shimchasi qo‘shiladi va o‘zlik olmoshi bilan ot qaysi shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Masalan, o‘zimning kitobim so‘z birikmasida o‘zlik olmoshi ham, ot ham birinchi shaxsda.

O‘zlik olmoshida qaratqich kelishigi qo‘shimchasi belgili va belgisiz shaklda qo‘llanishi mumkin. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi – ning o‘z so‘ziga qo‘shilsa, ta’kid ma’nosi ifodalanadi: o‘zimning fikrim, o‘zining mashinasi kabi.

– o‘zlik olmoshi kelishik qo‘shimchalarini qabul qilishi uchun ulardan avval egalik qo‘shimchasi bo‘lishi shart: o‘zimning, o‘zimni,

o‘zimga, o‘zimda, o‘zimdan, o‘zidan, o‘zingizdan, o‘zingdan, o‘zingizga kabi.

– o‘zlik olmoshi egalik qo‘shimchalarini olib, bosh kelishik shaklida fe’lga bog‘lansa, ega vazifasini bajarib, harakat ijrosini ta’kidlab ko‘rsatadi: O‘zim ko‘rib chiqaman, o‘zing o‘qib chiqasan.

4. So‘roq olmoshlari. Narsa, belgi, miqdor, harakatning o‘rni, payti, sababi va boshqa xususiyatlari haqida so‘roqni bildiradi. So‘roq olmoshlaridan *kim*, *nima* predmet haqida, *qanday*, *qanaqa*, *qaysi* belgi haqida, *necha*, *qancha* miqdor haqida, *nega* sabab haqida, *qachon* payt, *qayer* o‘rin haqida so‘roq anglatadi. Bunday so‘roq olmoshlari ishtirokida so‘roq gaplar hosil bo‘ladi, ularning ishtiroki gap oxirida so‘roq belgisi qo‘yilishini taqozo qiladi. So‘roq olmoshlarining morfologik belgilari ularning ma’no xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra so‘roq olmoshlarining ayrimlari egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilsa, ayrimlari qabul qilmaydi. *Kim*, *nima*, *qayer* so‘roq olmoshlari turlanish xususiyatga ega bo‘lsa, *qanday*, *qanaqa*, *nega* so‘roq olmoshlari turlanmaydi. Ba’zi so‘roq olmoshlariga -*lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilsa (kimlar, nimalar), ba’zi so‘roq olmoshlariga qo‘shib bo‘lmaydi (qanday, nega, qanaqa).

So‘z turkumlarini o‘rganuvchi o‘quvchilarda uchraydigan bir xatolik haqida to‘xtalmaslikning imkonи yo‘q. Gap shundaki, har bir mustaqil so‘z turkumi o‘z so‘rog‘iga ega. Ana shu so‘roq so‘zlar olmosh, ya’ni so‘roq olmoshlari hisoblanadi. Afsuski, o‘quvchilar kim, nima so‘zlarini ot, qanday, qanaqa so‘zlarini sifat, necha, qancha so‘zlarini son deb o‘ylashadi. Quyidagi misolga e’tibor bersak: Akmal ko‘chada kim bilan o‘ynadi? jumlasida ikkita ot (Akmal, ko‘chada), bitta olmosh (kim), bitta ko‘makchi (bilan), bitta fe’l (o‘ynadi) ishtirok etgan. O‘quvchi bu kabi misollarda *kim* so‘zini ot so‘z turkumining so‘rog‘i ekanligini e’tiborga olib, uni ham ot deb hisoblaydi. Agar yuqoridagi so‘roq gapga javob beriladigan bo‘lsa, haqiqatan ham ot so‘z turkumidagi so‘zlar miqdori oshib, olmosh ishtirok etmagan bo‘ladi: Akmal ko‘chada Yo‘ldosh bilan o‘ynadi.

Badiiy adabiyot namunalarida *nima* so‘roq olmoshi *ne*, *na* ko‘rinishida ham qo‘llangan: Ne yumush bilan kelibdi Komilaxon? – so‘radi O‘ktam. Na bo‘lardi bechora qizni kechirsa?

5. Belgilash olmoshlari. Bu olmoshlar shaxs va narsani, belgini biror xususiyati bo‘yicha ajratib yoki jamlab, umumlashtirib ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra belgilash olmoshlari 2 guruhga bo‘linadi:

a) Jamlovchi belgilash olmoshlari. Bular narsa yoki belgini butunlikda jamlab, to‘dalab ko‘rsatadi: hamma, barcha, bari, butun, jami kabi.

b) Yakkaga ajratuvchi belgilash olmoshlari. Bu olmoshlar jamlikni yakka orqali ifodalaydi. *Har* so‘zini so‘roq olmoshlari va bir so‘ziga biriktirish, ba’zan narsa so‘zining oldidan qo‘llash bilan hosil bo‘ladi: har kim, har nima, har bir, har narsa kabi.

So‘roq olmoshlari ishtirokida hosil bo‘lgan belgilash olmoshlarining morfologik xususiyatlari so‘roq olmoshlariga o‘xshaydi, ya’ni *kim* so‘roq olmoshi turlangani singari *har kim* belgilash olmoshi ham shu xususiyatga ega. *Qanday* so‘roq olmoshi turlanmagani kabi *har qanday* belgilash olmoshi ham turlanmaydi. Har so‘zi ishtirokida hosil qilingan belgilash olmoshlarining qismlari har doim ajratib yoziladi.

6. Bo‘lishsizlik olmoshlari. Mutlaqo mavjud emaslik ma’nosi orqali ifodalangan predmet, belgi yoki miqdorni umumlashtirib ko‘rsatadi. Bu olmoshlar ot, sifat, son kabi so‘z turkumlari anglatgan ma’no haqida inkor bildiradi. Bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlari, bir yoki narsa so‘zlarining oldidan inkor bildiruvchi *hyech* so‘zini keltirish bilan hosil qilinadi: *hyech kim*, *hyech nima*, *hyech narsa*, *hyech bir*, *hyech qanaqa*, *hyech qaysi* kabi.

Bo‘lishsizlik olmoshlaridan *hyech kim* shaxslarga nisbatan, *hyech nima*, *hyech narsa* predmet bildiruvchi so‘zlarga nisbatan qo‘llanib, ularning inkorini bildiradi: Uning bu gapidan *hyech kim* xafa bo‘lmas, balki xursand bo‘lar edi. *Hyech nima*, *hyech kim*, *hyech narsa* ot o‘rnida kelib, otga xos egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib turlanadi. *Hyech qanday*, *hyech qaysi*, *hyech qanaqa*, *hyech bir*, *hyech qancha* bo‘lishsizlik olmoshlari belgi va miqdorning inkorini ifodalaydi: Endi *hyech qanday* kuch meni u bilan bog‘lay olmaydi.

Bo‘lishsizlik olmoshlari ishtirok etgan gaplarning kesimi har doim inkor shaklida bo‘ladi: Majlisga hyech kim kelmadi.

Bo‘lishsizlik olmoshlarining morfologik xususiyatlari so‘roq olmoshlarinika o‘xshashdir.

7. Gumon olmoshlari. Narsani, uning belgisi va miqdorini taxminiy ravishda ko‘rsatadi. Demak, bu olmosh ishtirok etgan gaplarda shaxs, narsa, belgi va son haqidagi tushunchalar noma’lum va noaniq bo‘ladi. Gumon olmoshlari olmoshning boshqa turlaridan farqli holda yasalish xususiyatiga ega:

a) so‘roq olmoshlariga *-dir* qo‘shimchasini qo‘shish orqali: kimdir, nimadir, qandaydir, qaysidir kabi. Ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalari *-dir* qo‘shimchasiidan oldin qo‘shiladi: kim+lar+dir, kim+i+dir, nima+ga+dir, kim+ning+dir. So‘z yasovchi qo‘shimchaning sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchadan so‘ng qo‘shilishi gumon olmoshlarining yasalishida kuzatiladi.

b) alla- old qo‘shimchasini so‘roq olmoshlari oldidan keltirish orqali: alla+kim, alla+nima, alla+qanday, alla+qaysi kabi.

v) so‘roq olmoshlaridan yoki narsa so‘zidan oldin *bir* so‘zini keltirish orqali: bir nima, bir narsa kabi. *Bir* so‘zi qaysi, ba’zi so‘zlaridan so‘ng kelganda ham gumon ma’nosи ifodalanadi: qaysi bir, ba’zi bir kabi.

g) ba’zi, birov so‘zлari o‘zaro birikkanda ham gumon anglashiladi: ba’zi birovlar.

d) bir so‘ziga *-ov*, *-on*, *-or* qo‘shimchalari qo‘shilishi bilan ham yasalgan gumon olmoshlari mavjud: birov, biron, biror.

Xulosa qilib aytganda, olmosh so‘z turkumida *-dir*, alla-, *-ov*, *-on*, *-or* qo‘shimchalarigina so‘z yashashda qatnashadi va ular ishtirokida sanoqli so‘zlar yasaladi. Shu sababli yasama olmosh degan lisoniy birlik tilga olinsa, gumon olmoshidagi mazkur misollar eslanishi kerak.

Olmoshlar ham tuzilish jihatdan bo‘linish xususiyatiga ega: sodda, qo‘shma, juft va takror olmoshlar.

– sodda olmoshlar bir asosdan tashkil topadi: men, sen, u, bu, shu, kim, nima, hamma, kimdir, nimadir, o‘z kabi. Kimdir, nimadir, qandaydir, allakim, allanima, allaqanday singari yasama gumon

olmoshlari borligini e'tiborga olsak, olmoshlarda ham sodda yasama so'zlar uchraydi.

– qo'shma olmoshlar bir predmet yoki belgi anglatuvchi ikki so'z ishtirokida hosil bo'ladi: mana bu, ana shu, har kim, har nima, hyech nima, hyech kim kabi.

– juft olmoshlar – shaxs yoki narsalarni umumlashtirish orqali ifodalash uchun xizmat qiladigan teng bog'langan ikki olmoshning birikmasidir: siz-biz, sen-men, u-bu kabi. Sanoqli misollardan ayon bo'ladiki, kishilik va ko'rsatish olmoshlaridagina so'zlarni juft holda qo'llash kuzatiladi.

– takror olmoshlar – olmoshlarni takroriy qo'llash orqali hosil qilinadi. Ko'rsatish, so'roq, o'zlik, belgilash olmoshlarida takroriy qo'llash kuzatiladi: shu-shu, o'sha-o'sha, kim-kim, nima-nima, o'z-o'zini, hamma-hamma, barcha-barcha kabi. Juft olmoshlardagi kabi takroriy olmoshlarda ham qismlar chiziqcha bilan yoziladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Son so‘z turkumining xususiyatlarini sanang va izohlang.
2. Son so‘z turkumining ta’rifi qanday?
3. Son so‘z turkumining grammatic belgilari haqida ma’lumot.
4. Son so‘z turkumining ma’no jihatdan turlari.
5. Miqdor sonning turlarga bo‘linishi.
6. Sanoq son haqida ma’lumot.
7. Bir sonining o‘ziga xos jihatlarini izohlang.
8. Faol ishlataladigan sonlar va ularning miqdorini izohlang.
9. Son so‘z turkumida arab va rim raqamlari.
10. Sonning o‘zgarmas turkum ekanligi nimada?
11. Son turkumidagi so‘zlarning otlashishi.
12. Hisob so‘zlari va ularning izohi.
13. Son turkumining otga bog‘lanib kelishini izohlang.
14. Tartib sonning hosil qilinishi va tartibdan tashqari ma’nolari.
15. Sonlarning tuzilishi jihatdan turlari.
16. Son turkumining so‘z yasalishidagi ishtiroki.
17. Olmosh so‘z turkumi va uning morfologik belgilari.
18. Olmoshlarning ma’no jihatdan turlari.
19. Olmosh so‘z turkumida turlanish hodisasi.
20. Kishilik olmoshlarining turlanishidagi fonetik hodisa.
21. Egalik qo‘sishchalarini olib uch shaxsga ishora qiladigan olmosh turi.
22. Olmoshlarning nutqdagi uslubiy vazifasi.
23. So‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik olmoshlariga xos umumiy belgilar (turlanish hodisasi).
24. Guman olmoshlari va ularning yasalishi.
25. Shaklan bir xil, mazmunan har xil olmosh turlari izohi.
26. So‘roq olmoshlarining turlanadigan va turlanmaydigan turlari (so‘zlari).
27. Egalik qo‘sishchasini qabul qilmaydigan olmosh turi va uning izohi.
28. Olmoshlarda grammatic birlik va ko‘plik ma’nosи.
29. Hisob so‘zlari asosan qaysi so‘z turkumiga mansub bo‘ladi?
30. Olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari.

UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA'LUMOT BO'YICHA
SAVOL JAVOB O'TKAZISH, MASHQLAR, TEST
TOPSHIRIQLARI BAJARISH
(amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Umumiy tilshunoslik fanidan bilimlaringizni savollarga javob topish orqali chuqurlashtiring.

1. Umumiy tilshunoslik fanida nimalar o'r ganiladi?
2. Til va tafakkur: ular o'rtasidagi aloqadorlik va farqni izohlang?
3. Yozuvning paydo bo'lishida madaniy ehtiyojlarning ta'siri qanday bo'lgan?
4. Milliy til tushunchasiga izoh bering?
5. Umumxalq tili va adabiy tili atamalari izohi?
6. Adabiy tilning og'zaki va yozma shaklida me'yor nima?
7. Til oilalari va guruhlari haqida tushunchalaringiz?
8. Eski o'zbek adabiy tili rivoji, taraqqiyoti haqida bilganlariningiz?
9. Eski o'zbek adabiy tili va shu tildagi Alisher Navoiy asarlari haqida bilganlariningiz?
10. Eski o'zbek adabiy tilida bitilgan adabiy yodgorliklardan misollar keltiring.
11. Qadimgi turkiy til haqida tushunchalaringiz?
12. Hozirgi o'zbek adabiy tilining qoidalari qachondan boshlab shakllana boshlagan?
13. Tilning ijtimoiy mohiyati nima?
14. Til strukturasi deganda nimalarni tushunasiz?
15. Tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariy qarashlarga misollar keltiring?
16. Qiyoziy lingvistika atamasi nimani anglatadi?
17. Og'zaki adabiy tilning qo'llanish doirasi haqida ma'lumot bering?
18. Yozma adabiy tilning qo'llanish doirasi haqida tushuncha bering?
19. Tillarning klassifikasiyasi nimani anglatadi?

20. O‘zbek tili mansub bo‘lgan til guruhi, oilasi haqida ma’lumotlaringiz?

1-mashq. Quyidagi matnlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyoslab, grammatikadagi va uslubdagi o‘zgarishlarni topib, izohlab bering.

1. Kishig til ag‘irlar bulur qut kishi
Kishig til ujuzlar yarir er boshi

(«Qutadg‘u bilig»dan)

Eski yozma adabiy turkiy tilda bitilgan baytning hozirgi adabiy tildagi mazmuni bunday:

– Kishini til e’zozlaydi, kishi til tufayli baxtga erishadi, Kishini til qadrsiz ham qiladi, er boshini yoradi.

2. Tangri teg tangrida bo‘lmish turuk bilga qag‘an bu o‘gke o‘turдум, sabimin tugati eshidgil.
– Tangridan tangridek (falakdek) bo‘lmish turk dono xoqoni (men) bu vaqtida (dunyoga) keldim. («Kultegin» bitigtoshidan)
3. Bilga To‘nguquq ban o‘zum Tabg‘ach elinga qilintim. Turk bodun Tabg‘achga ko‘ru arti.
– Men o‘zim, To‘nguquq, Tabg‘ach eli (madaniyati ta’sirida) tarbiya topdim. Turk xalqi Tabg‘achga (qarar, bo‘ysunar) edi. («To‘nguquq» bitigtoshidan)

2-mashq. Quyidagi og‘zaki nutqqa oid jumlalar orqali nima deyilmoqchi, bu jumlalarni adabiy til bilan ifoda qiling.

Naoborot bo‘ladi, otam. Hamma ishni xorosho, chista-yu chaqqon qilaman. Hozirgina chiqib ketilgan edi. Institutga. Jinimdan yomon ko‘raman. Shu odamni. Endi boray. Maylimi? Qo‘ying shu ishingizni! Kim o‘rgatdi senga yolg‘on gapishtini? Xo‘p ajoyib konsert bo‘ldi televizorda. Keksayganida go‘rga tiqding tiriklay. Ko‘nglini sindirma go‘dakning. – Tonmaysan, o‘bdan ish! – Musulmonchiliq qig‘onsan-da! Bilmasdan gapiralar. Aytalar. Tijorat maktabiga o‘qigan.

3-mashq. Eski o‘zbek adabiy tilda bitilgan ushbu matnni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘zgartirib, farqli tomonlarni izohlang.

Luqmoni Hakim avval bir qul erdi. Xojasi bir kun aydi: yo Luqmon, falon yerga borib, arpa ekkil, falon yerg‘a borib, bug‘doy ekkil, – dedi. Ersa Luqmon borib, arpa ekkil degan yerg‘a bug‘doy ekti, bug‘doy ekkil degan yerg‘a arpa ekti... Xojasi aydi: nechun bundoq qilding? Taqi Luqmon aydi: ey xoja, nechukkim yozuq o‘rninda savob bitar, savob o‘rninda yozuq (gunoh) bitar?! Tun-u kun zulm qilursan, taqi qiyomatda savob umid etarsan. Xojasi tavba va istihfor qildi va ham Luqmonni ozod qildi. Emdu bilmoq kerakki, har kim bu dunyoda ne eksa, oni o‘rar. ("Miftoh-ul adl"dan)

2-topshiriq. XX asr o‘zbek adabiyoti namoyondalarining tarixiy mavzuda yozilgan bir asari matnidan parcha olib, uning til xususiyatlarini yoritib beruvchi matn yarating. Namuna sifatida Oybekning «Navoiy» romani tanlanishi ham mumkin.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. «Qutadg‘u bilig» asari qaysi tilda yaratilgan?
 - a) Eski turkiy tilda
 - b) Eski o‘zbek adabiy tilida
 - c) Qadimgi turkiy tilda
 - d) Fors-tojik tilida
2. Alisher Navoiyning eski o‘zbek tili rivojiga qo‘shtigan ilmiy hissasi qaysi asari bilan belgilanadi?
 - a) «Xamsa»
 - b) «Devoni Foni»
 - c) «Muhokamat-ul lug‘atayn»
 - d) «Arbain»
3. Ahmad Yassaviyning hikmatlari qaysi tilda bitilgan?
 - a) Eski o‘zbek tilida
 - b) Eski turkiy tilda
 - c) Qadimgi turkiy tilda

- d) Arab tilida

4. Eski o‘zbek tili qachongacha amalda qo‘llanilgan?

 - a) XX asr boshlarigacha
 - b) XIX asrning birinchi yarmigacha
 - c) XVIII asrning ikkinchi yarmigacha
 - d) XVI asrning boshlarigacha

5. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining asosiy qismi nimaga yozib qoldirilgan?

 - a) Qog‘ozga
 - c) Teriga
 - b) Toshga
 - d) Yog‘ochga

6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili qaysi tilning davomchisi, merosxo‘ri?

 - a) Eski turkiy til
 - b) Eski o‘zbek adabiy tili
 - c) Qadimgi turkiy til
 - d) Arab tili

7. Tilshunoslik fanini yana qanday nomlash mumkin?

 - a) Grammatika
 - c) Lingvistika
 - b) Til tarixi
 - d) Morfologiya

8. Umumiy tilshunoslik fani o‘rganadigan masalalardan birini aniqlang?

 - a) Grammatkia
 - b) Tilning paydo bo‘lishi
 - c) Sintaksis
 - d) Fonologiya

9. Adabiy til va umumxalq tili atamalarining o‘zaro aloqasi qanday?

 - a) Adabiy til umumxalq tilining qayta ishlangan, me’yorga solingan shakli
 - b) Adabiy til – bu milliy til
 - c) Umumxalq tili adabiy tilning bir ko‘rinishi
 - d) Adabiy til – bu xalq tili

10. Adabiy til leksikasining boyish manbalari nechta?

 - a) 2 ta;
 - b) 3 ta;
 - c) 4 ta;
 - d) 5 ta

11. Adabiy til leksikasini boyituvchi ichki manbaga nimalar kiradi?
- a) Sheva va so‘z yasovchi qo‘sishimchalar
 - b) Xorij tillaridan olingan so‘zlar
 - c) Qo‘sishimchalar va eskirgan so‘zlar
 - d) Barcha so‘zlar kiradi
12. O‘zbek tili qaysi til oilasiga mansub?
- a) Oltoy c) Forsiy
 - b) Hind-yevropa d) Roman-german
13. Oltoy tillar oilasi necha guruhga bo‘linadi?
- a) 2; b) 3; c) 4; d) bo‘linmaydi
14. Agglyutinativ tillarga xos belgini aniqlang?
- a) Har bir grammatik ma’no alohida qo‘sishimcha bilan ifodalanadi
 - b) Bir grammatik ko‘rsatkich orqali ko‘p ma’no ifodalanadi
 - c) So‘zlar o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri birikadi
 - d) So‘zlarning ma’no jihatni asosiy o‘rin tutadi
15. Turkiy tillar guruhiiga mansub tillarning nomi ko‘rsatilgan javobni belgilang?
- a) Latish, serb c) Uyg‘ur, tatar
 - b) Rus, tojik d) Afg‘on, turkman
16. Til oilalarining umumiy miqdori qancha deb taxmin qilinadi?
- a) 20 dan ziyod c) 50 ga yaqin
 - b) 100 dan ortiq d) 1000 dan ziyod
17. Eng katta va ancha chuqur o‘rganilgan til oilasi qaysi?
- a) Ugor-fin tillari
 - b) Oltoy tillari
 - c) Hind-yevropa tillari
 - d) Hamit tillari
18. Til mohiyatan qanday hodisa?
- a) Ijtimoiy c) Tarixiy
 - b) Mantiqiy d) Amaliy
19. Tilning asosiy quroli nima?
- a) Tafakkur c) So‘z

b) Fikr d) Mantiq

20. Odatda tillar bir-biriga taqqoslab o‘rganiladi, shu taqqoslangan tillarni o‘rganuvchi soha?
- a) Amaliy tilshunoslik
 - b) Qiyosiy tilshunoslik
 - c) Nazariy tilshunoslik
 - d) Til qurilishi

**FONETIKA VA FONOLOGIYA BO‘YICHA BO‘YICHA SAVOL
JAVOB O‘TKAZISH, MASHQLAR, TEST TOPSHIRIQLARI**

BAJARISH

(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Fonetika va fonologiya bo‘limlaridan olingan bilimlarni tekshirib ko‘rish yuzasidan savollar.

1. Fonetika bo‘limining o‘rganish sohasi haqida ma’lumotingiz?
2. Nutq apparati deganda nimalar tushuniladi?
3. Tovush atamasiga ilmiy izoh bering.
4. Nutq a’zolari nima sababdan ikkiga bo‘linishini izohlang.
5. Artikulyasiya atamasi nimani anglatadi?
6. Nutq tovushlari va harflar o‘rtasidagi munosabat?
7. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tovushlar dastlab nechaga bo‘linadi?
8. Fonema va tovush bir tushunchani anglatadimi?
9. Unli fonemalar necha tomondan tasnif qilinadi?
10. Tilning yotiq harakatiga ko‘ra unlilarning nomlanishi qanday?
11. Tilning tik harakatiga ko‘ra unlilarning nomlanishi qanday?
12. Lablangan va lablanmagan unlilarni izohlab bering.
13. Undosh fonemalar necha jihatdan tasnif qilinadi?
14. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar necha guruhga bo‘linadi?
15. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar necha guruhga ajraladi?
16. Sonor atamasining izohini yozing.
17. Fonetika bo‘limiga doir o‘nta atamani yozib, izohlab bering.
18. Urg‘u atamasini izohlang.
19. Bo‘g‘in va uning turlari haqida ma’lumot bering.
20. Bo‘g‘inning amaliy ahamiyati nimada?
21. Fonologiya atamasini izohlang.
22. Assimilyasiya va dissimilyasiya atamalarini sharhlang.
23. Fraza, takt, so‘z atamalariga izoh bering.
24. Til undoshlariga misollar keltirib, sharhlab bering.

25. Nutq tovushlarining birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlari haqida bilganlaringiz?
26. Ikki harf ishtirokida bir tovushni ifodalash mumkinmi?
27. O‘zbek tilining o‘ziga xos tovush va harflari?
28. Tovush tushishi, almashishini misollar bilan tushuntiring.
29. Tutuq belgisining ma’no farqlashdagi o‘rni qanday?
30. Nutq tovushlarining uch tomonini tushuntirib bering.

1-mashq. Matnni o‘qing, so‘zlarning tarkibida kelayotgan unli va undosh tovushlarga tasnif bering.

Insoniyat qadimdan go‘zallikni ulug‘lab kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Ulug‘bek, Temur Malik, Bobur, Alisher Navoiy singari buyuk yurtdoshlarimiz haqida gap ketganda, hyech qachon ulardan jismoniy go‘zallikni qidirmaymiz, balki ulardagi ma’naviy go‘zalliklaridan baha olamiz.

Har qanday go‘zallik zamirida mehnat yotadi. Inson o‘zining hayotiy kuchini mehnat qilish jarayonida ko‘rsatmasa, mehnatni quvonch va baxt manbai deb bilmaydigan bo‘lsa, yayrab-yayrab ishlamasa, bu mehnat unga huzur bag‘ishlay olmaydi.

2-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrating.

Minnatdorchilik, adolatparvarlik, o‘zaro yon bosish va iltifot, kechirimlilik, ezgu-kelajak haqida o‘ylar. Haqoratga dosh berolmaslik, mag‘rurlik, beg‘arazlik, taqdirga ishonish, egalik huquqi, oilaviy munosabatlar, o‘z-o‘ziga hakamlik qilolmaslik, buyumlardan foydalanishdagi tenglik, ko‘ngil, dengiz, singil.

2-topshiriq. Fonetika bo‘limi yuzasidan tuzilgan ushbu savollarga yozma javob bering.

1. 2 ta undosh fonemani aniqlab, ularning farqlovchi belgilarini yozing.
2. Jarangsiz va unlilar ishtirokida hosil bo‘ladigan kamida 2 bo‘g‘inli so‘zga 4 ta misol yozing.

3. 2 ta so‘z yozing. Ularning har birida 2 ta jarangli va 2 ta jarangsiz undoshlar qatnashsin.
4. 3 ta so‘z yozing. Ularda unlilar va faqat portlovchi undoshlar qatnashsin.
5. 2 ta so‘z yozing, ularda unlilar va faqat sirg‘aluvchi undoshlar ishtirok etsin?
6. L va R undoshlarining farqlovchi belgilari uchtami yoki birlashtiruvchi belgilari uchtami?
7. Birgina harfi alohida bo‘g‘in bo‘ladigan so‘zlarga 4 ta so‘z yozing.
8. Faqat shovqindan iborat bo‘lgan undoshlar qanday nomlanadi?
9. Portlovchi jarangsiz undoshlar soni qancha?
10. Portlovchi undoshlardan nechta jarangli?
11. Unli va sonorlar ishtirok etgan so‘zlarga misol yozing.
12. Jaloliddin Manguberdi ismida nechta til oldi undoshlari qatnashgan?
13. Til oldi undoshlarining nechta jarangli?
14. Jarangli undoshlardan nechta lab undoshlari hisoblanadi?
15. Jarangsiz undoshlardan nechta sirg‘aluvchi hisoblanadi?
16. Ham chuqur til orqa, ham sirg‘aluvchi, ham jarangsiz undosh bo‘la oladigan undoshlar soni nechta?
17. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra muqaddas, bormoqda, fonema so‘zlarining ikkinchi va uchinchi bo‘g‘inlaridagi undoshlar qanday nomlanadi?
18. Urg‘u ma’no farqlaydigan so‘zlarga misollar yozing.
19. O‘zbek tilida qo‘sish undoshlar so‘zning qaysi o‘rnida uchramaydi?
20. Abu Rayhon Beruniy ismida nechta portlovchi va nechta sirg‘aluvchi undosh bor?
21. Dunyoda o‘zbek degan xalq bitta. Ushbu gapda gap urg‘usi tushgan so‘zni aniqlang.
- 22.3 ta so‘z yozing, ularning har birida 2 tadan lab-tish undoshi qatnashsin.

22. Jarangli va unlilar ishtirokida hosil bo‘ladigan kamida uch bo‘g‘inli so‘zga 2 ta misol yozing.
23. Til oldi undoshlarining nechtasi jarangsiz?
24. Ham portlovchi, ham jarangli, ham lab undoshi bo‘la oladigan undoshlar soni nechta?

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Barcha undoshlari jarangli bo‘lgan so‘zlar qatorini aniqlang.
 - a) Pastak, ko‘ksulton, ko‘lmak
 - b) Bardosh, ko‘klam, badnafs
 - c) Jadval, nodir, gulzor
 - d) Paxsa, sukut, sochiq
2. Qaysi so‘zlarda X undoshini H undoshi bilan almashtirganda ma’no o‘zgaradi?
 - a) Xiyobon, xattot
 - b) Kutubxona, tuxum
 - c) Shox, uxlamoq
 - d) Axloq, shaxdam
3. Qo‘sish undoshlardan biri tushirilganda so‘z ma’nosи o‘zgaradigan qatorni belgilang.
 - a) Issiq, chaqqon
 - b) Millat, tashabbus
 - c) Ushshoq, qattiq
 - d) Tilla, quvvat
4. Talaffuzida havoning bir qismi burun bo‘shlig‘idan chiquvchi tovushlarni aniqlang.

a) f, b, n;	b) m, n, ng;	c) ng, x, z;	d) q, g‘, h
-------------	--------------	--------------	----------------
5. *ng* tovushi qaysi qatordagi barcha so‘zlarda qo‘llangan?

a) Tong, nonga	c) Yurting, senga
b) O‘nga, o‘tinga	d) Ong, zang

6. Qaysi qatordagi so‘zlarning urg‘usi ko‘chsa, so‘z ma’nosida o‘zgarish ro‘y beradi?
- Ko‘zlar, yangi, hozir
 - Oshiq, surma, olma
 - Bahor, atlas, yaxshi
 - Yulduz, chog‘lar, shaharga
7. Tutuq belgisi orqali undoshning unlidan ajratib aytilishi qaysi so‘zlarda uchraydi?
- | | |
|-----------------|------------------|
| a) Ma’no, sa’va | c) San’at, fe’l |
| b) She’r, ma’no | d) Qit’a, jur’at |
8. Qaysi so‘zda harflar birikmasi bor?
- | | |
|------------|-----------|
| a) Ishchi | c) Tuzsiz |
| b) Yolg‘iz | d) Daftar |
9. Qaysi qatorda jarangli juftga ega bo‘lgan jarangsiz undosh tovushlarning miqdori to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- | | | | |
|----------|-----------|-----------|---------|
| a) 8 ta; | b) 11 ta; | c) 23 ta; | d) 9 ta |
|----------|-----------|-----------|---------|
10. Qaysi javobdagи so‘zlarda tovush va harflar soni teng emas?
- | | |
|--------------------------|--|
| a) Dengiz, ming, ko‘ngil | |
| b) Ko‘z, baliq, davlat | |
| c) Tog‘, sulton, yutuq | |
| d) Yurak, otaliq, albom | |
11. Qaysi qatordagi so‘zlar jarangli undoshlardan tashkil topgan?
- | | |
|----------------------|-------------------|
| a) Ozoda, jambul | c) Lola, piramida |
| b) g‘allakor, tashqi | d) Paxta, istak |
12. *b* undoshi qachon *p* kabi talaffuz qilinadi?
- | | |
|-----------------|---------------------|
| a) So‘z boshida | c) Bo‘g‘in oxirida |
| b) So‘z oxirida | d) Unlilardan oldin |
13. Qaysi qatordagi undosh tovushlar tilning eng orqa qismida hosil bo‘ladi?
- | | | | |
|-------------|-------------|--------------|------------|
| a) b, d, g; | b) p, t, k; | c) q, g‘, x; | d) m, z, s |
|-------------|-------------|--------------|------------|
14. Qaysi qatorda jarangsiz undoshlar berilgan?
- | | |
|---------------------|----------------------|
| a) j, d, b, v, g, j | c) p, t, f, s, x, s |
| b) j, g, b, v, k, d | d) k, x, g, g‘, t, s |
15. Jarangsiz undoshlar mavjud so‘z qaysi javobda berilgan?

25. Qaysi javobda unli tovushlar ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan?

- a) a, o, u; b) a, o, i; c) a, u, o; d) i, a, o

GRAFIKA (YOZUV) VA GRUFIK VOSITALAR BO‘YICHA
SAVOL-JAVOB O‘TKAZISH, MASHQLAR, TEST
TOPSHIRIQLARI BAJARISH
(amaliy mashg‘ulot)

- 1-topshiriq.** Harflar bo‘yicha tuzilgan savollarga javob qaytaring.
1. Grafika so‘zi qaysi tildan olingan va uning ma’nosi?
 2. Grafikaning o‘rganish sohasi haqida ma’lumot bering.
 3. Harf atamasiga ilmiy izoh bering.
 4. Grafik vositalar deganda nimani tushunasiz?
 5. Tovush ifodalamaydigan shakllar qanday ataladi?
 6. Bir tovushni ifodalaydigan shakllarga misollar keltiring.
 7. Ikki harf bir tovushni ifodalaydimi?
 8. O‘zbek tilining o‘ziga xos harflari qaysilar?
 9. So‘zda harf miqdori ko‘p, tovush miqdori kam bo‘lishi mumkinmi?
 10. Tutuq belgisining vazifasini izohlang.
 11. Harf va tovushlarning o‘zaro munosabati qanday?
 12. Grafik birliklar bormi?
 13. Har bir harfnинг necha shakli bor?
 14. Alifbodagi harflarning joylashishi tartibini bilish nimaga yordam beradi?
 15. Tovush bilan harf o‘rtasidagi asosiy tafovut nimada?
 16. O‘zbek yozuvchi qachondan boshlab lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko‘chirildi?
 17. Rus grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini qachon qabul qilingan?
 18. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?
 19. O‘zbek yozuvi imlo qoidalari qachon qabul qilingan?
 20. Yozuvni takomillashtirilishining ahamiyati nimada?
 21. Yozuv insoniyatning buyuk kashfiyoti degan fikrni izohlang.
 22. O‘zbek grafikasining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
 23. Ikki harf bir tovushni ifodalashiga munosabatingiz qanday?

24. Yozuvning og‘zaki nutqqa nisbatan ustunligi nimada?
25. O‘zbek xalqi qadimdan foydalanib kelgan yozuv turlarini sanang.

2-topshiriq. Kirill va lotin alifbosidagi harflar va belgilarning joylashish tartibi, shakli, o‘xhash va farqli tomonlarini izohlovchi matn tuzing.

1-mashq. Quyidagi she’riy parchalarni lotin yozuvida bexato yozing.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin ming ganj ila.

(Alisher Navoiy)

Alifbodur xat-u savod beshigi,
U birlan ochilur bilim eshigi.
Ko‘zlarning nuri, dillar g‘ururi,
U bilan zohirdur ellar shuuri.

(R.Jumaniyoz)

2-mashq. Quyidagi she’riy parchadagi tegishli so‘zlarga tutuq belgisini qo‘yib ko‘chiring.

Shaklim mitti vergul go‘yo,
Mano, Rano men-la ro‘yo.
Kaba, qala, vada, surat
Meyor-u etibor, jurat
Davat, talat, suniy, sanat
Mensiz yozilmasdir, albat.
Etiroz-u, elon, ezoz.
Hamisha men bilan hamroz.

(R.Jumaniyozov)

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Rus grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi qachon qabul qilingan?

a) 1940-yil 8-mayda	c) 1956-yil 8-avgustda
b) 1945-yil 8-mayda	d) 1956-yil 4-aprelda

ORFOGRAFIYA, UNING ASOSIY TAMOYILLARI.
ORFOEPIYA QOIDALARI BO‘YICHA SAVOL-JAVOB
O‘TKAZISH, MASHQLAR TEST TOPSHIRIQLARI BAJARISH
(amaliy mashg‘ulot)

1-mashq. So‘zlarni qo‘sib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo‘lib ko‘chiring.

Ko‘z||oynak, sotib||olmoq, alla||qachon, shu||yerga, baland||parvoz, xom||semiz, tinchlik||sevar, umum||davlat, shaharlar||aro, shirin||so‘z, jigar||rang, g‘ayrat||qilmoq, bilak||uzuk, yakka||saroy, olti|| ariq, qum||qo‘rg‘on, kino||yulduz, radio||markaz, tele||tanlov, otash||qalb, sof||dil, qimmat||baho, bel||bog‘, yildan||yilga, hamma||vaqt, oshkor||etdi, hyech||narsa, bir||zum, ko‘k||sulton, hamma||bop, osh||xona, erta||pishar, achchiq||tosh, suv||ilon, kam||hosil, tabrik||noma, beda||poya, maymun||sifat, ish||yoqmas, Xo‘ja||obod, Markaziy||Osiyo, kundan||kunga.

1-topshiriq. Nutq me’yorlari (mazmun yo grammatik jihatdan) buzilgan o‘rinlarini toping va tuzating.

Yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko‘chalar ham ko‘kalamzor boqqa aylantirilmoqda. Gaplar doskaga yoziladi. Yozilgan gaplardagi tibbiyat, botanika, biologiya, ximiya kabi bir qator fanlarga oid temalarni ajratiladi. Siz buyursangiz, ne tolko o‘rdak, osmonga qarmoq tashlab, baliq tutib berish ham qo‘limizdan keladi. Komissiya bir oyda ikki marta majlis o‘tkaziladi. Aqlning to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi orqali yaxshi bilan yomonni, foyda bilan ziyonni, to‘g‘ri bilan xatoni farq qilinadi. O‘zbek tilida ko‘p shoirlar, yozuvchilar o‘zlarining she’rlarini va asarlarini yaratildi. Alisher Navoiy tilimizni she’riyat osmoniga olib chiqdi. «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasi davrning o‘tishi bilan uning ohangdorligi ortib boradi. Ota va ona dunyoda inson uchun eng mo‘tabar insonlardir. Barcha shoirlar she’rlarida O‘zbekistonni ajoyib tasvirlar bilan tasvirlaydilar. «O‘zbekiston» she’rida diyormizni bahor faslidagi tarovatini kuylanishi. Bundan keyingi asarlarimizni ham yoshlar haqida bag‘ishlaymiz. Radio karnayi orqali chaqirilib, bir nafar

yoshlar imtihon zallariga kirib ketishdi. Mahallalarda hal etilgan komitetlar bu masalalarni hal etadilar. Gap ichidagi so‘zlarni jufti bilan o‘rgatiladi.

2-mashq. So‘zlarning ma’no o‘zgarishiga diqqat qiling, urg‘usini to‘g‘ri qo‘yishga odatlaning.

Chog‘lar-chog‘lar, bog‘lar-bog‘lar, yigitcha-yigitcha, qo‘llar-qo‘llar, ishlar-ishlar, ahl-ahil, qal’a-qala, ta’na-tana, sur’at-surat, Tal’at-talat, hay’at-hayot, nash’a-nasha, ta’rif-tarif, she’r-sher.

2-topshiriq. Orfoepik va leksik xatolarni aniqlab to‘g‘irlang.

Baxtga qarshi, ko‘pchilik aql to‘lganda, ozchilik esa aql ozayganda, olamdan o‘tadi. Gosbanka grajdnlarga shaxsiy uy qurib olish uchun ssuda bermoqda. Yo‘q, Sobir Sobirovich hozir zaynitlar, boshqa vaqtida zvonit qiling. Biz 10-15 keksa sho‘tga to‘planishib, bo‘lajak choyxona rejasini tuzvotgan edik, birdan komitet raisi kelib qoldi. Mejdu prochim, bu gap sizga yarashmaydi. Vot tak, Xurshidjon yosh bo‘lishiga qaramay, respublikada xizmat ko‘rsatgan artist degan sharaflı unvon egasi Salimovning nuri diydalari. Uchinchi to‘pning avtori tepgan so‘nggi to‘pi o‘yindan chiqib, tashqari holatda edi. Mashi deng, ko‘nmasam ham, ayaq tirab turvoldi. Bizi Marg‘ilon tomonlarda poliz boshida qovun sotish odat emas.

3-topshiriq. Orfoepiya bo‘limi yuzasidan tuzilgan savollarga javob bering.

1. O‘zbek tilida talaffuz qoidalari to‘plami qanday nomlanadi?
2. To‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozish o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang?
3. Orfoepiya qoidalalarining ijtimoiy zaruriyati nimada?
4. Talaffuz me’yorining buzilishi so‘z ma’nosining o‘zgarishiga ta’siri haqida nimalar deya olasiz?
5. Fikr, zehn, ganch singari so‘zlarning orfoepiyasi haqida fikrlaringiz?
6. Bilak, tilak, bilim so‘zlarining talaffuzi haqida tushunchalaringiz.

7. Direktor, redaktor, opera so‘zlarining orfoepiyasi haqida fikrlaringiz?
 8. Singil, ko‘ngil, dengiz so‘zlaridagi *ng* harf birikmasining o‘qilishi qanday?
 9. Jarangli undoshlarning jarangsiz talaffuz qilinishiga misollar keltiring.
 10. Ayrim affikslar orfoepiyasi yuzasidan misollar keltiring.
 11. Jo‘nalish kelishigi qo‘sishmchasining uch varianti talaffuzi haqida fikr-mulohazalariningiz?
 12. Imlo bilan talaffuzni o‘zaro yaqinlashtirish afzallikkari nimada?
 13. Ruscha-baynalmilal so‘zlarning o‘zbekcha talaffuzidagi buzilishlarga misollar ayting.
 14. Talaffuzni me’yorlashtirish deganda nimani tushunasiz?
 15. Aka-oka-ako, bala-bola, mehmon-mixmon-miymon, uchov-uchav-uchchov kabi misollarning talaffuzi yuzasidan mulohazalariningiz qanday?

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Orfografiyaning o‘rganish sohasi?
 - a) harf shakllarini o‘rgatish;
 - b) to‘g‘ri yozishni o‘rgatish;
 - c) to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish;
 - d) tovush va harfni o‘rgatish
 2. Orfografiya qoidalari nechanchi yilda qabul qilingan?
 - a) 1995-yil 24-avgustda
 - b) 1993-yil 24-avgustda
 - c) 1992-yil 1-sentyabrda
 - d) 1989-yil 21-oktyabrda
 3. Orfografiya qoidalari necha banddan iborat?
 - a) 62 band;
 - b) 63 band;
 - c) 82 band;
 - d) 92 band
 4. Orfografiyaning asosiy tamoyillari miqdori qancha?
 - a) 4 ta;
 - b) 8 ta;
 - c) 9 ta;
 - d) 10 ta

5. Orfografiyaning yetakchi tamoyili qanday nomlanadi?

 - a) morfologik
 - b) fonetik
 - c) shakliy
 - d) an'anaviy

6. Orfografiyaning qaysi tamoyili yozuvda har xillikka yo'l qo'yadi?

 - a) morfologik
 - b) shakliy
 - c) fonetik
 - d) an'anaviy

7. Orfografiyaning qaysi tamoyili yozuvda bir xillikni ta'minlaydi?

 - a) shakliy
 - b) fonetik
 - c) morfologik
 - d) an'anaviy

8. Chet tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar asosan qaysi yozuv shaklida yoziladi?

 - a) shakliy
 - b) fonetik
 - c) morfologik
 - d) an'anaviy

9. Orfografiya qoidalariga rioya qilish nutqning qaysi shakliga xos?

 - a) yozma
 - b) og'zaki
 - c) yozma va og'zaki
 - d) so'zlashuv shakliga

10. Lotin yozuvidagi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun nechanchi yilda qabul qilingan?

 - a) 1993-yil
 - b) 1989-yil
 - c) 1995-yil
 - d) 1996-yil

11. Orfoepiyaning o'rghanish sohasi nima?

 - a) Talaffuz
 - b) to'g'ri talaffuz
 - c) to'g'ri yozish
 - d) to'g'ri yozish va o'qish

12. Asos va qo'shimchalar imlosiga nechanchi bandlar ajratilgan?

 - a) 33-37; b) 38-50; c) 51-56; d) 57-65

13. Unli va undoshlar imlosiga nechanchi bandlar ajratilgan?

 - a) 1-12; b) 1-32; c) 1-29; d) 9-29

14. Bosh harflar imlosiga nechanchi bandlar ajratilgan?

 - a) 32-38; b) 38-48; c) 66-74; d) 75-82

15. Ajratib yozish imlosiga nechanchi bandlar belgilangan?

 - a) 57-65; b) 66-70; c) 70-81; d) 80-82

16. Qo'shma otlar imloda qanday yoziladi?

 - a) qo'shib
 - b) ajratib
 - c) qo'shib va ajratib
 - d) har doim ajratib

17. Imloda qaysi so'z turkumidagi qo'shma so'zlar doimo ajratib yoziladi?

 - a) fe'l;
 - b) sifat;
 - c) ot;
 - d) ravish

18. G'arbiy Yevropa qo'shma otining ajratib yozilishi izohlangan javobni toping.

 - a) ikkinchi qism atoqli ot bo'lgani uchun;
 - b) birinchi qismi sifat bo'lgani uchun;
 - c) bir tushunchani ifodalagani uchun;
 - d) joy nomi bo'lgani uchun.

19. Imlo lug'atining vazifasi nimadan iborat?

 - a) so'zlarning to'g'ri o'qilishini o'rgatish;
 - b) so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatish;
 - c) so'zlarning ma'nolarini to'g'ri tushunishga yordamlashish;
 - d) so'zlar bilan tanishtirish

20. Orfoepik lug'atning vazifasi nima?

 - a) So'z va qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
 - b) So'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozishga o'rgatish;
 - c) So'zlarning ma'nosini izohlash;
 - d) O'quvchi so'z boyligini oshirish.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagisi №339-son qarori nima haqida?

 - a) Imlo qoidalarini tasdiqlash haqida;
 - b) Alifboni tasdiqlash haqida;
 - c) Davlat tili haqida;
 - d) Lotin yozuvini haqida.

22. O'zbekistonda nashr etilgan orfoepik lug'atlarning maqsadi...

 - a) So'z boyligini oshirish;
 - b) To'g'ri talaffuzni o'rgatish;
 - c) To'g'ri yozishni o'rgatish;
 - d) Ham yozishni, ham o'qishni kuchaytirish.

23. «o» harfi qanday talaffuz qilinadi?

- a) orqa qator, keng unli;
- b) orqa qator, o‘rta keng unli;
- c) orqa qator, keng va o‘rta keng unli;
- d) old qator keng unli.

24. *Toshken* so‘zi qaysi jihatdan to‘g‘ri?

- a) talaffuz jihatdan;
- b) imlo jihatdan;
- c) ham imlo, ham talaffuz jihatdan;
- d) bunday so‘z yo‘q.

25. To‘g‘ri talaffuzda urg‘uning vazifasi qanday?

- a) ma’no farqlashga yordam beradi;
- b) to‘g‘ri yozishga yordamlashadi;
- c) ahamiyatga ega emas;
- d) yozuvni talaffuzga yaqinlashtiradi.

**LEKSIKOLOGIYA, UNING OBYEKTI, TURLARI,
VAZIFALARI; FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR BO‘YICHA
SAVOL-JAVOB O‘TKAZISH, MASHQLAR, TEST
TOPSHIRIQLARI BAJARISH**
(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Po‘lat va kumush so‘zlarining qo‘llanilishini (o‘z ma’nosida yo ko‘chgan ma’noda) tushuntiring.

Po‘lat – temirning ma’lum miqdordagi uglerod bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan ko‘lrang, cho‘kichlanuvchi, qattiq metall. Yangi mashinalar po‘lat izlar uzra qanot qoqmoqda. Po‘lat qilichingni ko‘rganman o‘tda. Traktorchi bo‘lib, po‘lat otni o‘ynataman. Po‘lat imzolarda gullar atri bor. Xalqlar birligi – po‘lat qudrati. Kumush oltin kabi noyob metaldir. Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati. Kecha mahallamizdagи xonadonlardan birida kumush to‘y bo‘ldi. Kumush uzuk taqish so‘nggi yillarda urchga aylanmoqda.

1-mashq. Sinonimlarni ajrating. Nima maqsadda ma’nodosh so‘zlarning qatori keltirilganini izohlang.

Qildi Furqatni xarobu, xastayu, zoru, zabun, Xolu xatting, qaddi ruxsoring, na tanho ko‘zlar. Ajab xasrat, ajab qayg‘u, ajab g‘amxonalar bo‘ldim. Zulm ila qahru g‘azab, ozori qilmoq shunchalar. Menga qondosh, jondosh bo‘lgan el, Gado edi, qashshoq edi, xor, Qalbi to‘la nafrat, alam, xor.

2-mashq. Berilgan iboralar o‘rniga birgina so‘z toping va gap tuzing. Farqini tushuntiring.

Qo‘li ochiq, ko‘zi to‘q, bo‘yi baland yigit, ko‘ngli oq, og‘zi katta, ko‘z ochib yumguncha, oyoqqa turib, ko‘ngli g‘ash, belini mahkam bog‘lab (ishlash), ko‘z ilg‘amas (dalalar), ko‘z tutadi (bahor), ko‘z boylash, ko‘z tashlash, ko‘zingga qarab yur, oyoqni qo‘lga olib (yugur), ko‘z ochmoq.

2-topshiriq. Berilgan gaplarni o‘qing. Xato qo‘llangan so‘z yo iboralarni topib, o‘rniga uslub talab etgan ifodani qo‘ying.

U o‘zini oynaga solib, allaqanday she’rni kuyga solib xirgoyi qilar edi. Bugun u Boltaboya yozgan xatini ham juda chiroyli qilib yozgan. Turkistonga yuborish mumkin bo‘lgan narsani tez orada yuborish kerak. Bir ozdan so‘ng Holiqjonning beg‘ubor basharasiga engashib tikildi. Daryodan muzdek yel esadi. Mening qulqlarim shunday eshitadiki, uzoqdagi gaplarni ham eshitadi. Davlatga sotilgan paxtaning 90 foiz yuqori sortlarga sotildi.

3-topshiriq. Frazeologik birikmalar yuzasidan tuzilgan savollarga javob bering.

1. Frazeologik birikmalar nima sababdan turg‘un birikmalar sanaladi?
2. Barqaror birikmalar tasnifi bo‘yicha ma’lumotlaringiz qanday?
3. Nima sababdan iboralar tayyor lisoniy birlik hisoblanadi?
4. Gap tarkibidagi iboralarning bo‘laklarga ajratilishi yuzasidan fikrlaringiz?
5. Shakl va ma’no jihatdan iboralarning turlari qanday?
6. Shakldosh iboralarga misollar keltiring.
7. Ma’nodosh iboralarni sharhlab bering.
8. Frazemalar nima?
9. Iboraning gapda ega bo‘lishiga misollar keltiring.
10. Iboraning kesim vazifasida kelishiga misollar keltiring.
11. Iboraning gapda to‘ldiruvchi vazifasida kelishiga misollar keltiring.
12. Iboraning gapda hol vazifasida kelishini misol bilan tushuntirib bering.
13. Ibora gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishini izohlang.
14. Ibora gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishini misol bilan asoslang.
15. Paronim iboralarni izohlab bering.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Qanday so‘zlar atash ma’nosiga ega bo‘ladi?
 - a) barcha so‘zlar;
 - b) mustaqil so‘zlar;
 - c) yordamchi so‘zlar;
 - d) alohida so‘zlar.
2. Qanday so‘zlar atash ma’nosiga ega bo‘lmaydi?
 - a) yordamchi so‘zlar;
 - b) mustaqil so‘zlar;
 - c) undov va otlashgan so‘zlar;
 - d) ko‘makchi va ravishlar.
3. Qanday so‘zlar grammatik ma’noga ega bo‘ladi?

a) ot;	c) barcha so‘zlar;
b) sifat;	d) yordamchi so‘zlar.
4. So‘zlarning atash ma’nosи tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

a) grafika;	c) leksikologiya;
b) fonetika;	d) leksikografiya.
5. So‘z tilshunoslikning qaysi bo‘limlarida o‘rganiladi?

a) fonetika, frazeologiya;
b) morfologiya, leksikologiya;
c) leksikografiya, morfemika;
d) sintaksis, morfologiya.
6. So‘z shakllari qaysi bo‘limda o‘rganiladi?

a) morfologiya;	c) fonetika;
b) grafika;	d) leksikologiya.
7. Qaysi atamalar leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi?

a) atama;	c) fe’l;
b) sifat;	d) ot.
8. Dominanta atamasi leksikologiyaning qaysi mavzusiga daxldor?

a) antonimlar;	c) sinonimlar;
b) omonimlar;	d) ko‘p ma’noli so‘zlar.
9. Qanday so‘zlarda bosh ma’no bo‘ladi?

a) sinonimlarda;	c) omonimlarda;
------------------	-----------------

- b) ko‘p ma’noli so‘zlarda; d) paronimlarda.
10. Qanday so‘zlarning ko‘pligi tilning boyligini anglatadi?
- a) sinonimlarning; c) omonimlarning;
b) antonimlarning; d) paronimlarning.
11. Shakl va ma’no jihatdan qanday so‘zlarni qo‘llashda uslubiy xatolar uchrashi mumkin?
- a) sinonim va omonim; c) antonim va paronim;
b) sinonim va paronim; d) antonim va omonim.
12. Leksikografiya nimani o‘rganadi?
- a) lug‘atlarni; c) atamalarni;
b) so‘zlarni; d) so‘z turkumlarini.
13. Bir sinonimik qatorda kamida nechta so‘z bo‘lishi kerak?
- a) 5; b) 6; c) 2; d) 8
14. So‘zning ma’noviy izohini qanday lug‘at yordamida bilish mumkin?
- a) imlo; c) morfem;
b) izohli; d) chappa.
15. O‘xshashlikka asoslangan ma’no qo‘chishi qanday nomlanadi?
- a) metanimiya; c) metafora;
b) sinekdoxa; d) vazifadoshlik.
16. Aloqadorlikka asoslangan ma’no ko‘chishi qanday nomlanadi?
- a) metafora; c) sinekdoxa;
b) metanimiya; d) kinoya.
17. Ilm-fan, kasb-hunar doirasida qo‘llanadigan so‘zlar qanday ataladi?
- a) uyadosh so‘zlar; c) atamalar;
b) yangi so‘zlar; d) sinonimlar.
18. So‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadigan lug‘at qanday nomlanadi?
- a) etimologik; c) izohli;
b) tarixiy; d) chappa.
19. Iboralarni o‘rganuvchi bo‘lim qanday ataladi?

- a) etimologiya; c) frazeologiya;
b) fonetika; d) leksikografiya.

20. O‘zbek tilida qanday so‘zlarning qo‘llanishi chegaralangan bo‘ladi?
a) eskirgan so‘zlar; c) antonimlar;
b) omonimlar; d) ko‘p ma’noli so‘zlar.

21. Ko‘p ma’noli so‘zlar qatorini toping.
a) bel, shiypon, anor; c) yoqa, etak, tirsak;
b) ko‘z, shamol, tuz; d) oy, bosh, to‘g‘ri.

22. Tilda omonimi bor so‘zlar guruhini toping.
a) ildiz, lab, ot; c) qirq, chilla, quloq;
b) soz, yot, toy; d) qo‘y, moy, bir.

23. Bir umumiyligini so‘z bilan nomlash mumkin bo‘lgan so‘zlar qatorini toping.
a) arra, o‘roq, bodom; c) masal, hikoya, qissa;
b) oyoq, olg‘a, og‘iz; d) kimyo, fizika, odat.

24. Leksik ma’no bildirmaydigan so‘zlar qatorini toping.
a) faqat, xuddi; c) ammo, bir;
b) goh, ba’zan; d) amma, ammo.

25. Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu torozi. Berilgan gapda atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlar miqdori qancha?
a) 6 ta; b) 2 ta; c) 9 ta; d) 7 ta

26. Taxt uchun kurash davom etmoqda?
a) metafora; c) sinekdoxa;
b) metanimiya; d) vazifadoshlik.

27. Bu ko‘zlar, bu qoshlar menga tanish. Gapdagisi ma’no ko‘chish turini toping.
a) metafora; c) kinoya;
b) sinekdoxa; d) metanimiya.

28. Qimmat so‘zining antonimi bilan sinonim bo‘ladigan iborani toping.
a) bahosi arzon; c) arzongarov;
b) suv tekin; d) arzonbahoga.

29. Fe'l turkumiga tegishli so'zlar lug'atda qanday shaklda beriladi?
- a) asosi beriladi;
 - b) sof fe'l shaklida;
 - c) harakat nomi shaklida;
 - d) har xil.
30. So'zlarning shakl va ma'no jihatdan qaysi turi bir va birdan ortiq so'z turkumiga mansub bo'lishi mumkin?
- a) omonimlar;
 - b) sinonimlar;
 - c) antonimlar;
 - d) ko'p ma'noli so'zlar.
31. O'zbek tiliga boshqa tildan o'zlashgan so'zlarning ma'nosini qaysi lug'at orqali bilish mumkin?
- a) imlo;
 - b) qomusiy;
 - c) izohli;
 - d) tarjima.
32. Hovliqib so'zini qaysi ibora bilan almashtirib qo'llash mumkin?
- a) oyog'ini qo'liga olib;
 - b) og'zi qulog'ida;
 - c) o'pkasini qo'ltinglab;
 - d) juda shoshib.
33. Haydaldi ma'nosini anglatadigan iborani toping.
- a) kovushi to'g'irlandi;
 - b) suvdan quruq chiqdi;
 - c) boplab haydaldi;
 - d) hafsalasi pir bo'ldi.
34. Shakldosh so'zlarni aniqlang: 1) kadr; 2) palata; 3) rasta; 4) qirq; 5) o
- a) 1, 2, 3, 4;
 - b) 1, 2, 3, 4, 5;
 - c) 1, 2, 3;
 - d) 2, 3 ,4, 5
35. Omonim va ko'p ma'noli so'zlarning yozilishi hamda talaffuzida o'xshashlik bor, farqi nimada?
- a) ma'nosida bog'liqlik bor-yo'qligida;
 - b) farqi sezilmaydi;
 - c) har xil turkumga mansubligida;
 - d) bir xil turkumga mansubligida.
36. Ruscha va o'zbekcha so'z o'zaro sinonim bo'lishi mumkinmi?
- a) ikkalasi tilda qo'llanayotgan bo'lsa;

- b) mumkin emas;
- c) faqat bir tilning so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘ladi;
- d) ba’zan bo‘lishi ,ba’zan bo‘lmashligi mumkin.

37. Hozirgacha qanday lug‘at yaratilmagan?

- a) chappa; c) qo‘shma so‘zlar;
- b) morfem; d) omonim so‘zlar.

LEKSIKOGRAFIYA (LUG‘ATSHUNOSLIK) BO‘YICHA
SAVOL-JAVOB O‘TKAZISH, MASHQLAR, TEST
TOPSHIRIQLARI BAJARISH
(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Lug‘atlar bo‘yicha tuzilgan savollarga javob bering.

1. Lug‘at turlari va ularni tuzish tamoyillari haqidagi fan qanday nomlanadi?
2. Leksikografiya atamasini izohlang.
3. Lug‘atlar maqsadiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
4. Qomusiy lug‘atlarga misollar keltiring.
5. Lingvistik lug‘atlarning yaratilish maqsadi haqida tushuncha bering?
6. Lug‘at maqolasi atamasini izohlab bering.
7. Lug‘at tuzishning nazariyasi va amaliyoti nimalardan iborat?
8. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ning asosiy maqsadi.
9. «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»ning vazifasi nima?
10. «O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati»ning vazifasi qanday?
11. Lug‘atlarda so‘zlarning joylashish tartibi qanday?
12. Til o‘rganishga ko‘maklashadigan lug‘atlar bormi, misollar aytинг.
13. So‘zlarning shakl va ma’no jihatdan turlari bo‘yicha lug‘atlar yaratilganmi?
14. Iboralarning ma’no xususiyatlarini qaysi lug‘at yordamida aniqlaymiz?
15. O‘zbek tilining chappa lug‘atidan nima maqsadda foydalilanadi?
16. O‘tmishda yaratilgan lug‘atlar haqidagi nazariy bilimlaringiz?
17. Buyuk shoir Alisher Navoiyning lug‘atshunoslikka qo‘shtgan hissasi qaysi asarlari bilan belgilanadi?
18. XI asrda yaratilgan «Devonu lug‘atit turk» haqida bilganlaringiz.
19. Lingvistik lug‘atlarning turlariga misollar keltiring.

20. O‘zbek tilidagi olinma so‘zlarning ma’nolarini qaysi lug‘at orqali bilib olamiz?
21. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (2006-2008) necha jilddan iborat?
22. O‘zbekistonning taniqli lug‘atshunos olimlaridan kimlarni bilasiz?
23. Fe’l turkumidagi so‘zlar lug‘atda qanday shaklda beriladi?
24. Ikki va undan ortiq tilli lug‘atlar haqida ma’lumotingiz?
25. «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati» yaratilganmi?

2-topshiriq. Qavs ichidagi so‘zni chiqarib, o‘zidan oldingi so‘zga yo qo‘sib, yo undan ajratib yozing. Har ikki holatda ham imlo qoidalari va imlo lug‘atidagi me’yorlardan chekinmang.

Hindi (Xitoy), sohib (qiron), oltin (ko‘l), Ashur (ali), Chim (qo‘rg‘on), Qora (daryo), Sir (daryo), Qarshi (cho‘li), «O‘zbek (film)», Qora (oltin), Olti (ariq), Besh (bola), O‘rta (Osiyo), Quyi (Chirchiq), Bek (obod), Yangi (yo‘l), Yangi (obod), Mirza (terak), majnun (tol), Sharif (tog‘a), Nor (buvi), Temir (yo‘l), tom (orqa), sholi (poya), g‘o‘za (poya), telefon (avtomat), Mulk (obod), Yangi (Farg‘ona), Markaziy (Farg‘ona), o‘rin (bosar), O‘rin (boy), ona (don), Sora (opa), Yangi (qo‘rg‘on), ish (boshi), Koson (soy), Ko‘hna (Urganch), Karim (berdi), osh (qovoq), atir (gul), Eski (arab), Qo‘sish (chinor), Ming (chinor), Umum (Yevropa), so‘z (boshi), qat’i (nazar), ko‘z (oynak), paxta (oy), foto (albom).

1-mashq. O‘qing. Alisher Navoiyning chiroyli va xatosiz yozilgan xat haqidagi o‘gitini lug‘atdan foydalanib, hozirgi yozuvimizda sharhlang.

Yaxshi xat va nuqtadin safhaga jamol; andoqki, yaxshi so‘z safhasiga xattu xol. Xushnavis kotib so‘zga aroyish berur va so‘zlaguvchiga asoyish yetkazur. Agar xat surati noxushdur, o‘qituvchi va ma’ni ahli andin mushavvashdir. Xushnavisekim, sahvi ko‘p bo‘lg‘ay, ilgi falaj illatig‘a tub bo‘lg‘ay. Ulki bejo nuqta bilan xabibni xabis qilg‘ay, ... aningdek mehnatzadag‘a yuz la’nat!

Yomon kotib manzili qalamdonidek choharo bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va qaro bo‘lsun.

Bir xati gap egri tushar bir nuqat,
Nusxada har sarhadadur egri xat.

Matndagi ayrim so‘zlarning izohi bilan tanishing:

nuqta – nozik ma’noli so‘z
nuqta – belgi
mushavvash – tashvish
sahvi – xato
safha – sahifa
xushnavis – chiroyli yozadigan
kitob – yozuvchi (yozadigan)
noxush – yaxshi emas
ilgi – qo‘li
falaj – kasallik, harakatsiz bo‘lib qolish.

2-mashq. Yozing. O‘zingiz tushunmagan so‘zlar ma’nosini izohli lug‘atlardan toping.

Bir jamoa mo‘minlarga amir bo‘lgan zotning vazifayi shar’iysi shuldirkim, islomda ustivor turg‘ay, ahkomi islomni kamokon ijro qilg‘ay. Har bir amiriki arkoni islomdan zarracha yuz o‘girsa, u kimarsa jamoiy islom ustiga samir emas, sharirdir. Nauzan billohkim, Farg‘ona va Turkiston mamlakatining alhol amiri bo‘lgan Muhammad Alixon Voldiyining mankuhasi, ya’ni validayi ayni va rizosini o‘z aqdivolidayi ayni va rizosini o‘z aqdiga olibdur. («Mehrobdan chayon» romanidan)

3-mashq. Keltirilgan so‘zlarning ma’nosini tegishli lug‘atdan foydalanib izohlashga harakat qiling.

foytun – ...
dinor – ...
chaksa – ...
charx – ...
paysa – ...

misqol – ...

ahkom – ...

aqd - ...

tanobchi -

avaxta – ...

Mayzu yuzasidan tekst topshiriglari

- a) til o‘rganish;
 - b) yozishni bilish;
 - c) til o‘rganish va tarjima qilish;
 - d) talaffuzni o‘rganish.
8. Shoirlarimiz o‘z she’rlarida qofiyadosh so‘zlardan foydalanishi uchun qaysi lug‘atga murojaat qiladi?
- a) chappa lug‘at; c) omonim so‘zlar lug‘ati;
 - b) sinonim so‘zlar lug‘ati; d) izohli lug‘at.
9. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan qaysi biriga lug‘at nashr etilmagan?
- a) sinonim;
 - b) antonim va omonim;
 - c) paronim;
 - d) barchasi bo‘yicha lug‘at nashr etilgan.
10. Lug‘atlar necha tipga bo‘linadi?
- a) 2; b) 3; c) 4; d) 5
11. O‘zbek tili leksikasiga kirib kelgan xorijiy so‘zlarning ma’nosini bilish uchun qanday lug‘atga murojaat qilinadi?
- a) imlo; c) izohli;
 - b) etimologik; d) orfoepik.
12. Iboralar kiritilib, ularning ma’nolari izohlab berilgan lug‘at qanday nomlanadi?
- a) frazeologik lug‘at; c) orfoepik lug‘at;
 - b) imlo lug‘at; d) sinonim so‘zlar lug‘ati.
13. Lingvistik lug‘atlar necha tilli bo‘lishi mumkin?
- a) 1 tilli; c) 1 va 2 tilli;
 - b) 2 tilli; d) 5-6 tilli.
14. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (1981 yil) necha jilddan iborat bo‘lgan?
- a) 2 jildli; c) 4 jildli;
 - b) 3 jildli; d) 1 jildli.
15. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (2006-2008) necha jilddan iborat?
- a) 2 jild; c) 6 jild;

- b) 5 jild; d) 3 jild.
16. 2000-yilda nashr etilgan «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati» kitobining muallifi kim?
a) Sh.Rahmatullayev; c) S.Ibrohimov;
b) A.Hojiyev; d) O.Usmon.
17. Vietnam – Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakat, Hindixitoy yarim orolida, XXR, Laos, Kambodja bilan chegaradosh. Ushbu ma’lumot qanday lug‘atdan olingan bo‘lishi mumkin?
a) qomusiy; c) lingvistik;
b) filologik; d) izohli.
18. 1976- yilda nashr etilgan «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»da qancha miqdordagi so‘zlarning yozilishi haqida ma’lumot bor?
a) 65000 so‘z; c) 45000 so‘z;
b) 55000 so‘z; d) 35000 so‘z.
19. «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» muallifi kim?
a) A.Hojiyev; c) R.Qo‘rg‘irov;
b) Sh.Rahmatullayev; d) G‘.Abdurahmonov.
20. A.G‘ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo‘ng‘irov tomonidan yaratilgan lug‘atning nomini toping.
a) «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»;
b) «O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati»;
c) «O‘zbek tilining morfem lug‘ati»;
d) «O‘zbek tili sinonim so‘zlarining izohli lug‘ati».

MORFEMIKA. SO‘Z YASALISH USULLARI, MORFEMA VA UNING TURLARI. GRAMMATIKA BO‘YICHA SAVOL-JAVOB O‘TKAZISH, MASHQLAR, TEST TOPSHIRIQLARI BAJARISH

(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Matndagi so‘zlarni morfemalarga ajrating.

Dosent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko‘rgan kishi har faslning o‘z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to‘g‘risidagina emas, umr fasllari to‘g‘risida ham aytsa bo‘lar ekan, deb qolardi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho‘qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!

Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib ko‘rsatgan, ehtimol, uning odamoxunligi ham bo‘lsa. O‘zi shunaqa bo‘ladiku: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo‘lib ko‘rinadi.

Ammo, lekin Muxtorxon domla nafsambiriga odamning joni edi. Uning xushfe’lligi, to‘poriligi... mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yosh bilan yosh, qari bilan qari bo‘lib gaplashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib, xafa bilan dardlashar edi. Bu odam komandirovkaga ketsa butun mahalla huvillab qolganday bo‘lar edi.

(«To‘yda aza» hikoyasidan)

1-mashq. Yasama so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlang.

Qayerdandir paydo bo‘lib qolgan mo‘ysafid bog‘bon mehmonlar bilan so‘rashib, ularni kattakon hovuz bo‘yidagi baland, o‘zining aytishicha, Moskvadagi qishloq xo‘jaligi vistavkasida O‘zbekiston ko‘rgazmasini ishlagan ustalardan biri solgan shiyponga olib chiqdi. Shiyponne haqiqatan juda didlik odam zo‘r havas bilan solganligi ko‘rinib turar edi. Uning atrofidagi gulzorda rang-barang kapalaklar, ninachilar qanot qoqar, asalarilar g‘o‘ng‘illar, allaqayerda g‘urrak g‘urillar edi. Chol shogirdi bo‘lmish yoshgina, ozg‘in, juda sertavoze yigitning qo‘liga qoshiqdosh-savatni berib, meva-chevaga yubordi-da, o‘zi poygahga cho‘kka tushib, mehmonlar kimlar va nima uchun

kelganliklari bilan ishi bo‘lmay, bog‘ning tarixi, bunda qandoq mevalar borligi, bularning ko‘chatlari qayerlardan keltirilganligi, bog‘ni qanday kolxozlarning raislari ko‘rganligi haqida so‘zлади.

2-topshiriq. Matndagi yasama so‘zlarni toping.

Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, guvillarydi; tomlarda vishillarydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo‘ymijoz g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxonning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig‘ilib, sandal atrofida o‘tirishar edi. Dodho har kecha taroveh namozidan keyin xalqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to‘zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo‘l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog‘landi... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo‘lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodho chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e’tibor qilmay, to‘rga o‘tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko‘zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, hyech narsa ko‘rinmas edi.

(«Dahshat» hikoyasidan)

2-mashq. Matndagi qo‘shimchalarni vazifasiga ko‘ra turlarga ajrating.

Jiyanimning kabinetida ozg‘in, ko‘zlari och odamning ko‘ziday yaltirab turgan qirq besh yoshlardagi bir kimsa o‘tirgan ekan. Men taxminan «mehmon shu bo‘lsa kerak» deb inglizcha salom berdim. Mehmon qayrilib qaradi, birdan, xuddi ko‘z ko‘rmagan va quloq eshitmagan bir jonivorni ko‘rgandek, hayron bo‘lib sekin o‘rnidan turdi, salomimga alik olishni ham esidan chiqarib, menga boshdan-oyoq razm soldi: men o‘zbekmi ekanimni, inglizchani qayerda o‘rganganimni so‘radi; savollariga javob berganimdan keyin to‘nimni, do‘ppimni

ushlab, soch-soqolimni tortqilab ko‘rdi. Jiyanim menga ko‘z qisib «qo‘yavering» degandek ishora qildi. Jiyanim meni tanishtirgandan keyin mehmonni mehmonxonaga olib bordim. Unga ikki xonalik juda yaxshi nomer olib qo‘yilgan ekan. («Dumli odamlar» hikoyasidan).

3-topshiriq. Grammatika bo‘yicha tuzilgan savollarga javob bering.

1. Grammatika atamasi va uning izohini tushuntiring.
2. Grammatika bo‘limining tarkibiy qismlarini izohlang.
3. So‘zning grammatik ma’nosi deganda nimalarni tushunasiz?
4. O‘zbek tilida qanday so‘zlar grammatik ma’noga ega?
5. Grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladigan vositalar nimalar?
6. Grammatik shakl deganda nimani tushunasiz?
7. Grammatik kategoriya atamasini qanday izohlaysiz?
8. Morfologiya va uning o‘rganish sohasi bo‘yicha ma’lumotlaringiz?
9. Morfologik birliklar deganda nimalarni tushunasiz?
10. Sintaksis va uning o‘rganish sohasi bo‘yicha ma’lumotlaringiz?
11. Sintaktik birliklar nimalar?
12. So‘zning lug‘aviy ma’nosi grammatik ma’nosiga aloqadormi?
13. So‘zning lug‘aviy ma’nosi yana qanday atamalar bilan nomlangan?
14. O‘zbek tilida qanday so‘zlar lug‘aviy ma’noga ega?
15. So‘zlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar inobatga olinadi?

Morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladigan so‘z turkumlariga doir testlar

1. Gapdagi yasama otlar miqdorini aniqlang. Qayerda tinchlik hukm sursa, u joyda sotqinlik, aldamchilik bo‘lmaydi.
a) 3 ta; b) 2 ta; c) 4 ta; d) 5 ta
2. Yasama otni toping.
a) simyog‘och, belda;
b) kitobxon, tayanch;
c) ishchi, kitobim;
d) belbog‘, ishlarimizni.
3. Shaxs oti yasovchi qaysi qo‘sishimcha turdosh otga ham, atoqli otga ham qo‘sila oladi?
a) –soz; b) –lik; c) –dosh; d) –chi.
4. Qaysi gapda asosiga –q qo‘sishimchasini qo‘sib ot yasalganda fonetik hodisa yuz beradigan so‘z qo‘llangan?
a) Minnatli to‘singdan sovigan oshim yaxshi;
b) Onasi qimizak yesa, qizining tishi qamashadi;
c) Isinmadim olovingga, ko‘r bo‘ldim tutuningga;
d) Eskisini yamaguncha esing ketar.
5. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ushbu gapda yasama ot miqdori qancha?
a) 1 ta; b) 2 ta; c) 3 ta; d) 4 ta.
6. Yasama sifatdan yasalgan ot qaysi qatordagi gapda qo‘llangan?
a) Sergaplik dushmaningizdir, chunki u sening aybingni ochib tashlaydi;
b) Yoqimli do‘sit suhbati olis yo‘lni yaqin qiladi;
c) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo‘q;
d) Andishali odam iffatli bo‘ladi.
7. Qaysi gapda asosi yasama sifat bo‘lgan yasama ot aniqlovchi vazifasida kelgan?
a) Vafoli odamning do‘sstlari ham samimiyl bo‘ladi;

- b) Sergaplik dushmaningizdir, chunki u sening aybingni ochib tashlaydi;
- c) Andishasizlik hosili – xiyonat;
- d) Senga beriladigan maslahat shuki, umidsizlikka tushma.
8. Qaysi qatorda ot va sifat yasovchi bir xil shakldagi qo'shimchalar berilgan?
- a) –don, –qin, –ik, –li; c) –oq, –ik, –ki, –in;
- b) –ch, –uq, –qi, –in; d) –chak, –cha, –ma, –iq.
9. Agar yaxshiling seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan. Ushbu gapdagi yasama so'zlar qaysi so'z turkumlariga mansub?
- a) ot, fe'l; c) fe'l, sifat;
- b) ot, sifat; d) ot, ravish.
10. Ot va sifat yasovchi qo'shimchalar shakldoshligiga qaysi bandda misol berilgan?
- a) o'toq, qo'rqoq; c) tirnoq, maqtanchoq;
- b) o'roq, taroq; d) yuzsiz, so'zsiz.
11. Morfologik usul bilan yasaladigan so'z turkumlari miqdori qancha?
- a) 4 ta; c) 3 ta; d) 2 ta.
12. Otdan ot, sifatdan sifat, ravishdan ravish yasash morfologik usulda mavjudmi?
- a) yo'q; c) otdan ot yasash mumkin;
- b) mavjud; d) ravishdan ravish yasash mumkin.
13. So'z yasashda faqat asos bo'la oladigan mustaqil so'z turkumlari bormi?
- a) sifat, ot; c) son, olmosh;
- b) fe'l; ot; d) ravish, fe'l.
14. So'z yasash jarayonida asos vazifasini ham bajara olmaydigan so'z turkumlari soni qancha?
- a) 3 ta; c) 4 ta; d) 1 ta.
15. Alovida so'z turkumlari hisoblangan undov, modal, taqlid so'zlarning so'z yasalishidagi ishtiroki bormi?

- a) yo‘q;
 - b) chunki ular yasalmaydi;
 - c) asos bo‘lib xizmat qiladi;
 - d) ba’zan ishtiroki bor, ba’zan yo‘q.
16. Fe’l yasalishining o‘ziga xos jihatni nimada?
- a) fe’l yasovchi qo‘shimchalar kam;
 - b) fe’l faqat boshqa so‘z turkumlaridan yasaladi;
 - c) fe’l otdan yasaladi;
 - d) fe’l sifatdan yasaladi.
17. Yasama so‘z atamasini nechta so‘z turkumi doirasida ishlatish mumkin?
- a) 2 ta; b) 3 ta; c) 6 ta; d) 4 ta.
18. Yasalish asosi nima?
- a) so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shiladigan qism;
 - b) yasovchi qo‘shimcha;
 - c) asos va qo‘shimcha;
 - d) yasovchi qo‘shimcha ishtirok etmagan qism.
19. Yasama so‘zlar yozilgan qatorni toping.
- a) belbog‘, bog‘ga; c) gulla, quvla;
 - b) soyabon, ishni; d) gulzor, ishchan.
20. Tub so‘z nima?
- a) yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan qism;
 - b) yasovchi qo‘shimcha qo‘shilmagan qism;
 - c) lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchasi bor so‘z;
 - d) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchasi bor so‘z.
21. So‘z asosiga lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan bo‘lsa, u so‘z qanday ataladi?
- a) tub so‘z; c) negiz;
 - b) yasama so‘z; d) tub va yasama so‘z.
22. So‘z yasovchi, lug‘aviy, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarining asosga qo‘shilish tartibi qanday?
- a) lug‘aviy, sintaktik, so‘z yasovchi;
 - b) sintaktik, yasovchi, lug‘aviy;
 - c) yasovchi, lug‘aviy, sintaktik;

d) lug‘aviy, yasovchi, sintaktik.

23. Qaysi qatorda so‘z yasalmagan?

- a) yig‘im; c) yig‘ma (uy);
b) yig‘ish; d) yig‘la.

24. Olmoshning qaysi turida sanoqli qo‘s Shimcha yordamida so‘z yasalishi mumkin?

- a) so‘roq; b) gumon; c) kishilik; d) o‘zlik.

25. Qaysi atama tilimizda yo‘q?

- a) yasama ot; c) yasama fe’l;
b) yasama son; d) yasama ravish.

26. Qaysi harfni tilimizda so‘z yasovchi qo‘s Shimcha sifatida qo‘llab bo‘lmaydi?

- a) h; b) a; c) q; d) m

27. *–larcha* vazifasiga ko‘ra qanday qo‘s Shimcha?

- a) so‘z yasovchi;
b) lug‘aviy shakl yasovchi;
c) so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi;
d) sintaktik shakl yasovchi.

28. Qaysi qatorda ravishdan ravish yasalgan so‘z bor?

- a) hozircha; c) mardona;
b) tezroq; d) kechgacha.

29. So‘z yasovchi qo‘s Shimcha asos oldidan qo‘s hilishi mumkinmi?

- a) mumkin emas;
b) mumkin;
c) so‘z yasovchi qo‘s Shimcha har doim asosdan keyin qo‘s hiladi;
d) ba’zan fe’l turkumida uchraydi.

30. Qaysi misolda so‘z yasovchi qo‘s Shimcha lug‘aviy shakl yasovchi qo‘s Shimchadan keyin joylashgan?

- a) isitgich; b) terimchi; c) kimgadir; d) kelmagan.

31. Morfologik bo‘lмаган usulda yasalgan so‘zlar qatorini toping.

- a) simyog‘och, mehnatsevar; c) taroq, so‘roq;
b) suvchi, tomchi; d) kimdir, so‘zlamoq.

32. Sintaktik bo‘lmagan usulda yasalgan so‘zlar qatorini toping.
- a) sofdir, har qachon; c) har gal, bayon etdi;
 - b) tayanch, tinch; d) bir mahal, ovchi.
33. Qaysi so‘z turkumidagi qo‘shma so‘zlar har doim ajratib yoziladi?
- a) ot; b) sifat; c) fe’l; d) ravish
34. *–moq* qo‘shimchasi vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha?
- a) so‘z yasovchi;
 - b) lug‘aviy shakl yasovchi;
 - c) sintaktik shakl yasovchi;
 - d) so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi.
35. Past Darg‘om, O‘rta Osiyo singari qo‘shma otlar nima uchun ajratib yoziladi?
- a) joy nomi bo‘lgani uchun;
 - b) ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomi bo‘lgani uchun;
 - c) ot turkumidagi so‘z bo‘lgani uchun;
 - d) birinchi qismi sifat bo‘lgani uchun.
36. Qaysi so‘z turkumidagi qo‘shma so‘zlar lotin yozuviga imlo qoidalariga ko‘ra har doim qo‘shib yoziladi?
- a) sifat; b) ot; c) fe’l; d) ravish
37. Qo‘shma so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘z yasab bo‘ladimi?
- a) bo‘lmaydi; c) u yasama so‘z bo‘lmaydi;
 - b) bo‘ladi; d) u tub so‘z bo‘ladi.
38. So‘z asosiga ketma-ket yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilsa, uning yasalish asosi qanday aniqlanadi?
- a) oxirgi so‘z yasovchiga qarab;
 - b) oxirgi so‘z yasovchidan oldin
 - c) oxirgi so‘z yasovchidan keyin;
 - d) birinchi so‘z yasovchiga qarab aniqlanadi.
39. Yasama so‘z atamasini qaysi so‘z turkumida qo‘llab bo‘lmaydi?
- a) ot; b) son; c) ravish; d) fe’l
40. Fe’llar asosan qaysi so‘z turkumidan ko‘proq yasaladi?

- a) ot va sifatdan; c) ravish va sifatdan;
b) son va olmoshdan; d) taqlid va modal so‘zlardan.
41. Charchoqlikni so‘zida necha so‘z yasovchi qo‘shimcha bor?
a) 2 ta; b) 3 ta; c) 1 ta; d) yo‘q
42. So‘z asosiga yasovchi o‘zgarish bo‘ladimi?
a) bo‘lmaydi; c) tovush ortadi;
b) tovush almashadi; d) tovush almashishi va ortishi
mumkin.
43. Terimchilik so‘zining yasalish asosini toping.
a) ter; b) terim; c) terimchi; d) terimchilik
44. Terimchilik so‘zida qaysi so‘z turkumi doirasida so‘z
yasalishi bo‘lmoqda?
a) fe’ldan ot; c) yasalish hodisasi ko‘zatilmagan;
b) otdan ot; d) yasalish hodisasi otdan fe’lga xos.
45. So‘z yasovchi qaysi misolda sintaktik shakl yasovchidan
keyin qo‘llangan?
a) kimgadir; c) tinchlik;
b) kiyimlar; d)tillakorimizga.

**MORFOLOGIYA. OTNING TA'RIFI VA LEKSIK-
GRAMMATIK XUSUSIYATLARI: ATOQLI OTLARNING
TURLARI, TURDOSH OTLARNING TURLARI. OTLARNING
KATEGORIYALARI. OTLARNING YASALISHI. OTLARNING
TUZILISH JIHATDAN TURLARI BO'YICHA BO'YICHA
SAVOL-JAVOB O'TKAZISH, MASHQLAR, TEST
TOPSHIRIQLARI BAJARISH**
(amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Ot so‘z turkumi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash bo‘yicha savollar.

1. Morfologiyada nimalar o‘rganiladi?
2. So‘z shakllari deganda nimani tushunasiz?
3. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning necha xil belgilar e’tiborga olinadi?
4. Ot so‘z turkumining leksik xususu
5. iyatlari haqida tushuncha.
6. Ot so‘z turkumidagi so‘zlarning sintaktik vazifalari haqida ma’lumot bering?
7. Atoqli va turdosh otlardagi umumiylar farqli jihatlar.
8. Turdosh otlarning ma’noviy bo‘linishi haqida bilganlaringiz.
9. Atoqli otlardagi ichki bo‘linish qanday nomlanadi?
10. Onomastika nimani o‘rganadi?
11. Kategoriya so‘ziga izoh bering?
12. Ot so‘z turkumining kategoriyalarini sanang?
13. Otlarda son kategoriysi nimani anglatadi?
14. Otlarda qarashlilikni ifodalovchi kategoriya qanday nomlanadi?
15. Kelishik kategoriysi nima, kelishik qo‘shimchalarining vazifalarini izohlang.
16. Belgili yoki belgisiz qo‘llanishi qaysi kelishiklarda uchraydi?
17. O‘zbek tilida so‘zlarni gap bo‘laklariga ajratish qaysi qo‘shimchalarga qarab amalga oshiriladi?

18. Kelishik qo'shimchalari vazifasiga ko'ra affikslarning qaysi turiga mansub?
19. Egalik va kelishik qo'shimchalari turlovchi qo'shimchami yoki tuslovchi?
20. Kelishik qo'shimchalarini qisqargan ko'rinishda qo'llash qaysi kelishiklarda kuzatiladi?
21. Yasama ot atamasini qanday izohlaysiz?
22. Morfologik usulda otlarning yasalishiga misollar keltiring.
23. Sintaktik usulda yasalgan otlarga misollar keltiring.
24. Tub ot, yasama ot lisoniy birliklarni izohlang.
25. Sodda otning ko'rinishlari qanday bo'ladi?
26. Qo'shma otlar imloda qanday yoziladi?
27. Abbreviasiya usulida ot yasalishi haqida tushuncha bering.
28. Juft va takror otlarga xos umumiy va farqli xususiyatlar.
29. Qo'shimchalar yordamida fe'ldan yasalgan otlarga misollar yozing.
30. Qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlaridan nechtasi ot turkumida mavjud?
31. Erkalash, kichraytirish qo'shimchalarining ot turkumidagi o'rni?
32. G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Markaziy Afrika, Past Darg'om kabi qo'shma ot qismlarining ajratib yozilishini izohlang?
33. Ot so'z turkumida so'z asosiga yasovchi qo'shimchalarning ketma-ket qo'shilishini misollar asosida tushuntiring?
34. *-xon* qo'shimchasi yordamida ot yasang va ot shaklini hosil qiling.
35. Ot turkumidagi so'z yasovchi qo'shimchalarning ma'nodoshligiga misollar keltiring.
36. *-iy* qo'shimchasi yordamida ham ot, ham sifat yasang.

1-mashq. Gaplarni o'qing. Kelishik qo'shimchalarini va ko'makchilar xato qo'llangan o'rnlarni tuzating.

U shag‘al uyumlaridan oshib, to‘g‘ri Jumanga tomon tez yurib kelardi. Respublikamiz maktablarida o‘z ishining mohir ustalari ko‘payib, sinfda ikki yil qoluvchilar bilan kurashish harakati avj olib ketdi. O‘quvchilik yillarimda mehribon o‘qituvchilarning bizga qilgan yoqimli muomalasini, bilim berish san’ati meni o‘ziga maftun qilgan edi. H.H.Niyoziyni «Boy ila xizmatchi» dramasi 1918-yilda yozilgan. Dostonni o‘qir ekanmiz, Farxodning aqli, idrokli, mehnatsevarligini ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanadi. So‘z ikki tomonlama vazifani bajaradi. Jamila va G‘ofirlarga yaxshi his-tuyg‘ular uyg‘onadi. Solihboyday salbiy obrazlarga nafratlanamiz.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga *-ni* yoki *-ning* qo‘srimchalaridan mosini qo‘ying.

Odam ... hayoti hamisha bir daryodek bo‘lishi kerak: u ... sohilida hamisha yangidan yangi suv oqib turgani yaxshi. – Rahmat! – dedi Matluba chelakdagi chigit ... mashina qutichasiga ag‘darar ekan. Rahmatli bobom o‘sha yili ham, keyingi paytlarda ham xurjun ... ikki ko‘ziga ikki ko‘za ... solib, tepalikka suv tashigani-tashigan edi. Kampir ... hyech narsasi yo‘q ekan-u, hovlisida bir tupgina teragi bo‘lgan ekan.

3-mashq. Kelishik qo‘srimchalari va ko‘makchilarning qo‘llanilishidagi xato o‘rnlarni tuzating. Zarur o‘rinda kelishik qo‘srimchasini ko‘makchi bilan almashtiring.

Ularning dasturning qaysi qismi bilan bog‘lab o‘rgatilishini ham ko‘rsatish kerak. Xalq tili bolada shunday bir qobiliyat yaratadiki, bu esa kishida nutq yaratadi. Shanba kuni Rajab akaning o‘g‘li bilan Yomonqul boboning qizining to‘yi bo‘ldi. Olti yoshli bolalarning yozuvga o‘rgatishning qiyinchiligi hisobga olingan holda, dastlab ular harflarni yozishga o‘rgatiladi. Sening ko‘p uxlasting kerak. Sening, albatta, Samarqandga borib o‘qishing kerak. Buxoroga nima istasangiz, topasiz.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Sifatdan yasalgan otlar qaysi javobda berilgan?
 - a) bebafo, chiroyli, ozoda;

- b) xumdon, kitobxon, qo‘rkoq;

c) go‘zallik, ezgulik, yaxshilik;

d) chidam, totli, ko‘rkam.

2. «Ona bilan bola – gul-u lola» maqolida juft otlarni aniqlang.

a) ona bilan bola;

b) gul-u lola;

c) juft ot berilmagan;

d) ona bilan bola – gul-u lola.

3. Qaysi qatorda fe’ldan yasalgan otlar bor?

a) o‘tloq, qarsak, yo‘ldosh;

b) yog‘in, kiyim, tepki;

c) asrdosh, oromgoh, quvonch;

d) toshloq, misgar, taroq.

4. Qaysi qatordagi so‘zda grammatic ko‘plik ifodalanmagan?

a) yuzlarim;

b) quvonchlar;

c) asallar;

d) barchasida grammatic ko‘plik ifodalanmagan.

5. Atoqli ot asosida paydo bo‘lgan turdosh otlar qatorini belgilang.

a) asal, rayhon; c) rentgen, amper;

b) anor, lola; d) turdi, ra’no.

6. Mavhum otlar berilgan qatorni aniqlang.

a) bino, erkinlik, zilzila; c) sevgi, sezgi, baxt;

b) bayram, suv, ekin; d) tuproq, ezgulik, qumloq.

7. Qaysi javobda yasama ot berilgan?

a) yuksak; c) sevin;

b) butunlik; d) yolg‘onlar.

8. Ikkita so‘z yasovchi qo‘shimchali so‘zni toping.

a) aylanma; c) kesatiq;

b) bostirma; d) bog‘lam.

9. Qaysi qo‘shimchalar turlovchi qo‘shimchalar deyiladi?

a) ko‘plik; c) egalik va kelishik;

b) erkalash-kichraytirish; d) ko‘plik, egalik.

10. Turlanish hodisasi qaysi so‘z turkumlariga xos?

- a) ot, olmosh; c) ot, sifat;
b) ot, fe'l; d) ot, ravish.

11. Quyidagi gapda nechta mavhum ot bor? Uyg‘oqlik uzayib ketsa, uyqusizlik paydo bo‘lib, nafslarda g‘am va bezovtalikni vujudga keltiradi.

a) 2 ta; b) 4 ta; c) 3 ta; d) 5 ta

12. Kelishik qo‘sishimchalari qanday vazifani bajaradi?

a) yangi so‘z hosil qiladi;
b) yangi so‘z shakli hosil qiladi;
c) so‘z birikmalari va gaplarda so‘zlarni bog‘laydi;
d) juft so‘zlarni hosil qiladi.

13. Qaysi qatordagi so‘zda *-lik* qo‘sishimchasi noto‘g‘ri qo‘llangan?

a) bolalik; c) tepalik;
b) mardlik; d) vijdonlik.

14. Juft so‘zlar, takroriy so‘zlar, qo‘shma so‘zlardan qaysi birining tarkibi ikki xil so‘z turkumiga oid so‘zlardan tuzilishi mumkin?

a) juft so‘zlar; c) qo‘shma so‘zlar;
b) takroriy so‘zlar; d) juft va qo‘shma so‘zlar.

15. O‘roq (ot), qo‘rqqoq (sifat), tepki (ot), kechki (sifat) so‘zlaridagi qo‘sishimchalarni shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday qo‘sishimchalar deb ataymiz?

a) ko‘p ma’noli; c) sinonim;
b) bir ma’noli; d) omonim.

16. Otlarga egalik qo‘sishimchasi qo‘shilganda, tovush o‘zgarishining qaysi turi yuz beradi?

a) tovush tushishi;
b) tovush almashishi;
c) tovush orttirilishi;
d) tushish, almashish, orttirilish kuzatiladi.

17. Tushum kelishining qisqargan shakli berilgan gapni toping.

a) Har oila o‘chog‘in o‘z qutlug‘ tarixi bor;
b) Olmazorlar gulin to‘kadi;

- c) Meva bog‘lar shoxini bukadi;
d) Botirlari kanalni qazadi.
18. Un, yog‘, suv, bug‘doy kabi so‘zlarga *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilsa, qanday ma’no ifodalanadi?
a) kuchaytirish va ta’kid; c) xil, nav, tur;
b) ko‘plik; d) jamlilik, to‘da.
19. Otlarning grammatik kategoriyalaridan qaysi biri uning sintaktik vazifasini belgilashda asosiy rol o‘ynaydi?
a) kelishik; c) egalik;
b) ko‘plik; d) birlilik.
20. Turdosh otning asosiy xususiyati nimada?
a) ayirib ko‘rsatishida;
b) umumiylit ifodalashida;
c) kichik harf bilan yozilishida;
d) narsa nomini bildirishida.
21. Otlarga *-lar* qo‘shimchasi egalik qo‘shimchalaridan keyin qo‘shilsa u qanday ma’no anglatadi?
a) grammatik ko‘plik;
b) tur, xil, nav ma’nosini;
c) hurmat ma’nosini;
d) kesatiq, piching.
22. Quyidagi juft so‘zlardan qaysi birining o‘rnini almashtirib qo‘llab bo‘ladi?
a) aka-uka; c) idish-tovoq;
b) oshna-og‘ayni; d) eson-omon.
23. «Bilimdonlikdan» so‘zida ot yasovchi qo‘shimchalar miqdori qancha?
a) 1 ta; c) 3 ta; d) 4 ta
24. *Andalib bir savt ila bo‘ldi giriftor qafas.* Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ma’nodoshini toping.
a) to‘ti; c) sa’va;
b) qumri; d) bulbul.
25. Ham sinonimi, ham antonimi, ham paronimi mavjud so‘zni toping.

- a) dars; b) yot; c) urush; d) unim
26. Ot yasovchi qo'shimchalar qatorini aniqlang.
- a) -don, -kash, -im, -kor; c) -lik, -chi, -man, -kash;
b) -imiz, -in, -i, -n; d) -zor, -lik, -im.
27. Yasama so'z berilmagan javobni toping.
- a) qo'lqop; c) sotib olmoq;
b) o'yna; d) buzoq.
28. Mirzacho'llar obod bo'ldi gapidagi -lar qo'shimchasining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- a) sof ko'plik; c) hudud - joy ma'nosida;
b) hurmat; d) kuchaytiruv.
29. Kelishik qo'shimchalarining miqdori qancha?
- a) 6 ta; b) 5 ta; c) 4 ta; d) 3 ta
30. So'z yasovchi qo'shimchalar:
- a) yangi so'z yasamaydi;
b) gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi;
c) asosga qo'shilib yangi so'z yasaydi;
d) so'z shakli yasaydi.
31. Qarsak so'zining asos qismini toping.
- a) qars; b) qarsa; c) qar; d) qarsak.
32. Ot so'z turkumidagi so'zlarning gapda ega vazifasida kelishi uchun qaysi kelishikda bo'lishi talab qilinadi?
- a) tushum; c) bosh;
b) qaratqich; d) o'rin-payt
33. Ot turkumidagi so'zlarning ega vazifasida kelishi uchun tarkibida qaysi qo'shimchalar bo'lishi mumkin?
- a) egalik; c) ko'plik;
b) kelishik; d) egalik va ko'plik.
34. Qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlaridan nechtasi ot turkumida bor?
- a) 1 tasi; b) 3 tasi; c) 2 tasi; d) 4 tasi
35. Tepalik, shodlik, ko'rpalik so'zlaridagi -lik qo'shimchasi ma'no jihatdan qanday?

- a) omonim; c) ko‘p ma’noli;
b) sinonim; d) paronim.

36. Otlardagi sintaktik shakl yasovchi qo‘sishimchalarga qaysilari mansub?
a) egalik; c) kelishik;
b) erkalash; d) egalik va kelishik.

37. Shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar qatorini toping.
a) –dor, –soz, –paz; c) –loq, –dosh, –iston;
b) –k, –oq, –gich; d) –ch, –lik, –liq.

38. Aniqlovchi-aniqlanishi munosabatida hosil bo‘lgan qo‘shma otni toping.
a) muzyorar; c) iskabtopar;
b) belbog‘; d) urto‘qmoq.

39. To‘ldiruvchi-kesim munosabatida hosil bo‘lgan qo‘shma otni toping.
a) otboqar; c) beshotar;
b) olibsotar; d) qoryog‘di.

40. Kelinchak, kitobcha, qizaloq so‘zlaridagi qo‘sishimchalar vazifasiga ko‘ra qanday qo‘sishimcha?
a) so‘z yasovchi; c) sintaktik shakl yasovchi;
b) lug‘aviy shakl yasovchi; d) omonim qo‘sishimchalar.

**SIFATNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI, SIFATLARNING MA'NO JIHATDAN
TURLARI, SIFATLARDAGI DARAJA KATEGORIYASI,
SIFATLARNING MODAL SHAKLLARI. SIFATLARNING
YASALISHI, SIFATLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI
BO‘YICHA BO‘YICHA SAVOL-JAVOB O‘TKAZISH,
MASHQLAR, TEST TOPSHIRIQLARI BAJARISH**
(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni mustahkamlash yuzasidan savollar.

1. Sifat turkumidagi so‘zlarning leksik xususiyatlarini sanang?
2. Asliy sifatlarga misollar keltirib, izohlab bering.
3. Nisbiy sifatlarga misollar keltiring?
4. Asliy va nisbiy sifatlarni bir-biridan farqlash bo‘yicha fikrlaringiz.
5. Sifat darajalari haqida tushuncha.
6. Darajaning morfologik usulda ifodalanishini izohlab bering.
7. Darajaning leksik usulda ifodalanishini misollar asosida tushuntiring.
8. Sifatlarning gapda asosan qaysi turkumga bog‘lanib kelishini misollar bilan tushuntiring.
9. Sifat turkumidagi –mtir (-imtir), –roq, –gina (-kina, qina) qo‘sishimchalari vazifasiga ko‘ra affikslarning qaysi turiga kiradi?
10. Sifatlarda modal shakllarning hosil qilinishiga misollar keltiring?
11. Morfologik usulda yasalgan sifatlarga misollar keltiring.
12. Sintaktik usulda yasalgan sifatlarga misollar keltiring.
13. Tub sifatlarga misollar yozing.
14. Ot va fe'l turkumidagi so‘zlardan sifatlar yasang.
15. Qo‘shma sifat qismlari qanday yoziladi?
16. Qo‘shma sifatlarning tarkibiy qismlarini izohlang.
17. Juft va takror sifatlarning o‘xshash va farqli tomonlari.

18. Sifatlar ko‘proq qaysi so‘z turkumlaridan qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
19. Sifatlar turlanadimi yoki tuslanadimi? Javoblariningizni asoslang.
20. Sifatlarning otlashishi qanday xususiyat?

1-mashq. Sifat yasovchi qo‘shimchalarni ajrating. Uning o‘rniga sinonim qo‘shimchani qo‘yib ko‘ring.

Onasiz ishq ham bo‘lmaydi – qahramon ham, shoir ham. Shu qadar serma’no ona tilimsan, Tarjimon, eng dono ona tilimsan. Ayniqsa, qiz bola uchun hayoli, iffatli, sehrli-sirli, iboli va ochiq chehrali bo‘lishdan ham ulug‘roq husn yo‘q. Bizning jamiyatda bolalarning unumli o‘qishi eng katta siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy hamda iqtisodiy mavqye kasb etadi. Abdulla Qodiriy o‘z romanlariga barcha sharqona axloqiy fazilatlarni yuksak badiiy mahorat bilan olib kirdi. Dunyoda tillar ko‘pdir, hammasi ham serjarang, Yolg‘izim, sen ulardan ustun demasman, aslo... Sobit ishonch, bepisand karvonim – ona tilim, Ne qo‘yma tafakkurlar, ne olim, zakiy zotlar, Izlab topa olmadi chashi ibtidoingni, Mangulik yo‘llarida sarbonim – ona tilim!

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga *–li* yoki *–lik* qo‘shimchalaridan mos kelganini qo‘yib, farqini yozma izohlang.

Mayin..., andisha, or-nomus..., pokiza..., orasta..., hushyor..., mehribon..., idrok... bo‘lish, farosat bilan sayr qilish qiz bolaga ko‘rkam... bag‘ishlaydi. Men senga, deydi o‘pka, bir lolazordan bir umrga toza havo yetkazib beraman. Biroq menga zarar... moddalar, tutunlar, noxush hidlar yomon ta’sir ko‘rsatadi. Tilingga bol-ey, bo‘talog‘im, juda aql... gap aytding. Ko‘plarning baxtiga o‘z...ni jamlab, Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas, Umr o‘tajak har lahza uchun Qudrat... qo‘l bilan – qo‘yaylik haykal. Bu foniyl dahr aro gar shod... istarsan, ko‘ngil, Gado... noniga xursand bo‘l-u shohga bo‘lma hojatmand. Qani qondosh...ning qadim Turoni, Temur adolati, Navoiy qoni, pok...i, rost...i, idroki, shoni, Kim bo‘lib qoldik, aytgil, birodar. Noshukur... bois uchdi baraka, Ukalar akadan olur intiqom,

Qarindosh... tamom, qondosh... tamom, O'zing kechirgaysan bizni, Allohim. Aql..., es-xush..., tadbir... inson So'z boshlar, suhbatdosh jim bo'lgan zamon.

2-topshiriq. Har bir sifat yasovchi qo'shimcha ishtirokida kamida 3 ta so'z yozing.

-li, -siz, -gi, -ki, -qi, -iy, -viy, -chan, -dor, ser-, ba-, bo-, be-, no-, -choq, -chak, -qir, -kir, -g'ir, -gir, -q, -k, -iq, -ik, -simon, -ag'on, -ma.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlari

1. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor?

Katta-kichik oldida yakkayu yagona farzand onasini tabrikldadi.

- a) 1; b) 2; c) 4; d) 3

2. Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon. Ushbu gapdag'i kesim bo'lib kelgan sifatlarni toping.

- a) yaxshidir, yomon; c) yaxshidir;
b) yaxshidir, achchiq, yomon; d) yomon.

3. Qaysi turkumga oid juft so'zlar asosan antonimlardan hosil bo'ladi?

- a) ot; b) son; c) sifat; d) fe'l

4. Qaysi qatordagi qo'shma sifat «ravish+ot» tarzida yasalgan?

- a) xomkalla; c) mingoyoq ;
b) kaltafahm; d) hozirjavob.

5. Qaysi qatorda yasama sifat berilgan?

- a) ziyrak; c) achchiq;
b) tansiq; d) qoramtir.

6. Sifat turkumiga oid so'zlar berilgan qatorni toping.

- a) teshik, tuzoq, o'roq;
b) qo'rkoq, yumuq, siniq;
c) kichik, chiniq, yutuq;
d) kurak, egik, taroq.

- a) ozaytirma; c) qiyosiy;
b) orttirma; d) oddiy.

17. –mtir (-imtir), –ish qo‘shimchalari yordamida qanday sifatlardan daraja hosil qilish mumkin?
a) rang bildiruvchi; c) shakl bildiruvchi;
b) xususiyat bildiruvchi; d) ta’m bildiruvchi.

18. Sifat turkumidagi so‘zlarning gapdagi asosiy sintaktik vazifasi qanday?
a) kesim; c) hol;
b) aniqlovchi; d) ega.

19. Sifat gapda qachon hol vazifasida keladi?
a) fe’lga bog‘lansa; c) songa bog‘lansa;
b) otga bog‘lansa; d) ravishga bog‘lansa.

20. Sifat oldidan juda, nihoyatda, g‘oyat, sal, hammadan singari so‘zlarni keltirish orqali daraja hosil qilish usuli qanday nomlanadi?
a) morfologik usul; c) leksik-morfologik usul;
b) leksik usul; d) fonetik usul.

21. Sifat turkumidagi old qo‘shimchalar kelib chiqishi jihatdan qaysi tildan o‘tgan?
a) arab; c) fors-tojik;
b) uyg‘ur; d) qadimgi turk.

22. Fe’ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar qatorini aniqlang?
a) –choq, –iq; c) ser-, –viy;
b) –siz, –chan; d) –qi, be-;

23. Sifat yasalishida tovush o‘zgargan so‘zlar qatorini aniqlang.
a) tarqoq, qaynoq; c) taroq, qiynoq;
b) qo‘rroq, bo‘yoq; d) angla, sanoq.

24. Sifat yasovchi sinonim qo‘shimchalar qatorini aniqlang.
a) ser-, –dor; c) ba-, be-;
b) –iy, –viy; d) bo-, –siz.

25. aro so‘zini qaysi turkumdagi so‘zlarga qo‘shish orqali qo‘shma sifatlar yasaladi?
a) fe’lga; c) otga;

b) ot va fe'lga; d) olmoshga.

26. Lotin yozushi imlo qoidasiga ko'ra qo'shma sifat qismlari qachon qo'shib yoziladi?

- a) hamma vaqt qo'shib yoziladi;
- b) hamisha ajratib yoziladi;
- c) tarkibiga ko'ra qo'shib yoki ajratib yoziladi;
- d) hamma vaqt chiziqcha bilan yoziladi.

27. Juft sifat qismlariga urg'u qo'yiladimi?

- a) Ikki qismiga ham urg'u tushadi;
- b) Birinchisiga urg'u tushadi;
- c) Ikkinchisiga urg'u tushadi;
- d) Ikki qismiga ham urg'u tushmaydi.

28. Sifat otlashganda qaysi sintaktik vazifani bajaradi?

- a) ega, qaratqich aniqlovchi;
- b) kesim, aniqlovchi;
- c) ega, qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi, undalma;
- d) kesim, hol.

29. Sodda tub sifatlar qatorini aniqlang.

- a) qizilroq, sarg'ish;
- b) tinch, hozirjavob;
- c) siniq, qo'rkoq;
- d) aylanasimon, yashil.

SONNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI BO'YICH A SAVOL-JAVOB O'TKAZISH,
MASHQLAR, TEST TOPShIRIQLARI BAJARISH
(amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Son so'z turkumi yuzasidan olingan bilimlarni nazorat qilish bo'yicha tuzilgan savollariga javob bering?

1. Son so'z turkumining so'z yasalishi jarayonidagi ishtiroki qanday?
2. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarini sanang va misollar keltiring.
3. Chama son hosil qiluvchi qo'shimchalar ishtirokida so'z birikmalarini hosil qiling.
4. Son uslubiy jihatdan asosan qaysi so'z turkumiga bog'lanadi?
5. Son gap tarkibida asosan aniqlovchi vazifasida kelishini asoslab bering.
6. Son gap tarkibida hol vazifasida kelishi mumkinmi, misollar bilan dalillang?
7. Otlashgan sonning ega vazifasida kelishini misollar bilan asoslang?
8. Otlashgan sonning qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishini misollar bilan asoslang.
9. Sonning leksik xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
10. Sonning grammatik xususiyatlari haqida tushuncha bering.
11. Tilimizda faol sonlar miqdori qancha?
12. Necha xil raqamdan foydalanasisiz?
13. Bir sonining alohida xususiyatlarini sanang.
14. Qanday sonlarga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shish mumkin?
15. Dona sonni takroriy qo'llash asosida sonning qaysi turini hosil qilish mumkin?
16. Hisob so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?
17. Tartib son narsalarning tartibidan tashqari yana qanday ma'nolarni ifodalaydi?

18. Tartib sonning gapdagи sintaktik vazifalari qanday?
19. Bir so‘zining yuklama va bog‘lovchi vazifasida kelishiga misollar yozing.
20. Asosi son bo‘lgan yasama so‘zlarga misollar ayting.

1-mashq. Sonning gapda qaysi bo‘lak vazifasida kelganini aniqlang.

Haydovchi cho‘ntagidan ikkita olma chiqazdi-da, bolaga berdi. Volga daryosining uzunligi 3690 km. Ikki beka mehmondo‘stlik bilan parvona: biri choy qo‘yib uzatsa, biri non ushatib dasturxonga taklif etadi. O‘n beshning uchdan biri – besh. O‘zi bitta, ko‘zi mingta. Sakson bir to‘qqizga qoldiqsiz bo‘linadi. Zaynabning qaramog‘ida o‘n uch kishi ishlaydi. Sobir Rahimov birinchi o‘zbek generali edi. O‘quv yilining ikkinchi choragi tamom bo‘ldi, hozir uchinchi chorak davom etyapti. Qorabuloqqa birinchi qor tushdi. Shunday qilib, har tomoshaga o‘n besh – yigirma ming odam to‘planadi. Yoshi ellik beshlarda, lekin hali yuziga ajin tushmagan.

2-mashq. Matndagi sonning turlarini aniqlang. Sonni bog‘langan so‘zi bilan birgalikda gap bo‘laklariga ajrating.

Insonning yuragi yigirma to‘rt soat ichida yuz ming martaga yaqin uradi. Yigirma kun bo‘ldi, Ahmad Husayn qishloqda yashaydi. Qishning nami qirq gaz ketadi. Opam institutda ikkinchi kursda o‘qiydi. Yer sharining o‘rtacha diametri – o‘n uch ming kilometr. Kombinatda minglab ishchilar ishlaydilar. Yer Quyosh atrofida minutiga bir ming yetti yuz qirq uch kilometr tezlik bilan aylanadi. Jamoa xo‘jaligi idorasida faqat ikki kishi o‘tirgan edi.

2-topshiriq. Quyidagi arab raqamlarini rim raqamlariga to‘g‘ri o‘zgartiring.

2881 — ...

2913 — ...

3023 — ...

2929 — ...

2566 — ...

2481 — ...

2328 — ...

2799 — ...

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Sanoq sonlar juft holda qo‘llanganda qanday ma’noni bildiradi?
 - a) hurmat ma’nosini;
 - b) taxmin, chama ma’nosini;
 - c) grammatik ma’nolarni;
 - d) tartib ma’nosini.
2. *–ala* qo‘shimchasi qaysi sonlarga qo‘shilib kelishi mumkin?
 - a) yetti, to‘qqiz, o‘ttiz; c) bir, sakkiz, uch;
 - b) besh, yetti, o‘n; d) o‘n besh, qirq, ellik.
3. Qaysi atama son turkumida qo‘llanmaydi?
 - a) yasama son; c) juft son;
 - b) sodda son; d) otlashgan son.
4. Son so‘z turkumining o‘zgarmaslik xususiyati nimada?
 - a) turlanmasligida;
 - b) yasalishida;
 - c) otlashmasligida;
 - d) hisob so‘zlarning mavjudligida.
5. Qadimgi o‘zbek tilidagi *tuman* so‘zi hozirgi qaysi miqdorga teng?
 - a) yuz ming; c) o‘ttiz ming;
 - b) o‘n ming; d) olti ming.
6. Navoiy asarlarida uchraydigan *lak* so‘zi hozirgi qaysi miqdorni ifodalagan?
 - a) o‘n besh ming; c) yuz ming;
 - b) million; d) yigirma uch ming.
7. Sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra affikslarning qaysi turiga mansub?
 - a) so‘z yasovchi;
 - b) lug‘aviy shakl yasovchi;
 - c) sintaktik shakl yasovchi;
 - d) sinonim qo‘shimchalar.
8. *–lab*, *–larcha* qo‘shimchalari ravish va son turkumida bor, ularni qanday farqlaymiz?
 - a) qo‘shilgan asosiga qarab;

- b) ular omonim qo'shimcha;
c) ular faqat sonda mavjud;
d) urg'u olishi yoki olmasligiga ko'ra.

9. Son qaysi so'z turkumidagi so'zlarga bog'lanishiga qarab, aniqlovchi bo'lib keladi?

a) fe'lga; c) otga;
b) sifatga; d) ravishga.

10. Son qaysi so'z turkumidagi so'zlarga bog'lanishiga qarab, gapda hol bo'lib keladi?

a) fe'lga; c) olmoshga;
b) otga; d) sifatga.

11. Sonning gapda ega bo'lib kelishi uning qaysi vazifasiga kiradi?

a) leksik; c) sintaktik;
b) morflogik; d) uslubiy.

12. Nutqimizda faol qo'llanadigan sonlar miqdori qancha?

a) 26 ta; b) 22 ta; c) 10 ta; d) 18 ta

13. O'nta-o'nta, yuzta-yuzta takror sonlar mazmunan sonning qaysi turiga mansub?

a) dona son; c) chama son;
b) jamlovchi son; d) taqsim son.

14. *O'n beshga bo'linadi.* Ushbu gapdag'i sonlarning sintaktik vazifasi qanday?

a) ega, bo'ldiruvchi; c) to'ldiruvchi, to'ldiruvchi;
b) ega, aniqlovchi; d) ega, kesim.

15. Suyuqlik miqdorini bildiruvchi hisob so'zlar qatorini toping.

a) qoshiq, kosa, piyola; c) metr, chelak, litr;
b) botmon, qadoq, pud; d) hektar, arava, stakan.

16. Hamma sonlarga ham qo'shilavermaydigan qo'shimchani toping.

a) -ov; b) -ta; c) -lab; d) -larcha

17. Son so'z turkumida qaysi qo'shimcha vazifasini chiziqcha bajarishi mumkin?

a) -ala; b) -ta; c) -nchi (-inchi); d) -lab

18. Son va sifat bir paytning o‘zida otning aniqlovchisi bo‘lsa, otga eng yaqini qaysi biri bo‘ladi?
- a) son; c) o‘rni o‘zgarib turadi;
b) sifat; d) bunday holat kuzatilmaydi.
19. Tartib son gapda kesim bo‘lib kelgan javobni belgilang.
- a) U chopishda birinchi.
b) Birinchi, meni qanday eshitayapsiz?
c) U maydonda bo‘lgan chopishda hammadan birinchi keldi.
d) Birinchi mashq ancha murakkab edi.
20. Tartib son chiqish kelishigida bo‘lib undan keyin vergul qo‘yilishini qanday izohlaysiz?
- a) kirish so‘z; c) so‘z-gap;
b) undalma; d) kirish gap.

**OLMOSHNING TA'RIFI VA LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI BO'YICHA SAVOL-JAVOB O'TKAZISH,
MASHQLAR, TEST TOPSHIRIQLARI BAJARISH**
(amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Olmosh so'z turkumidan olingan nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazish yuzasidan savollar.

1. Olmoshlar nima sababdan ilmiy adabiyotlarda «ichi bo'sh» so'z turkumi deyilgan?
2. Olmoshlarni nutqda qo'llashdan uslubiy maqsad nima?
3. Olmoshlarning so'z yasalish jarayonidagi ishtiroki qanday?
4. Olmoshning o'zgaradigan so'z turkumi ekanligi nimada?
5. Olmoshning qaysi turiga egalik qo'shimchalari qo'shilmaydi?
6. Olmoshning qaysi turiga kelishik qo'shimchasini qo'shish uchun egalik qo'shimchasi oldin qo'shilishi shart?
7. Olmoshning qaysi turlari juft holda qo'llana oladi?
8. Olmoshning qaysi turlari tarkibida so'roq olmoshlari ishtirok etadi?
9. Olmoshning qaysi turi egalik qo'shimchasini ketma-ket qabul qiladi?
10. Olmoshning qaysi turlari turlanganda fonetik o'zgarish yuz beradi?
11. Olmosh gapning qaysi bo'laklari bo'lib keladi?
12. Mustaqil so'z turkumlarining so'roqlari olmosh hisoblanadimi?
13. Olmoshlardan yasalgan so'zlarga misollar keltiring.
14. Takroriy tarzda qo'llanish olmoshning qaysi turlarida bor?
15. Guman olmoshining yasalishi haqida ma'lumot bering.
16. *Har* so'zini *hyech* so'zi bilan almashtirish orqali olmoshning qaysi turi hosil bo'ladi?
17. Omonim olmoshlar bormi?
18. Egalik qo'shimchalarini olib uch shaxsdagি kishilik olmoshlariga ishora qiladigan olmosh turi haqida bilganlariningiz.

19. Olmoshning turli so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llanishiga misollar keltiring.
20. Guman olmoshlariga egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalarining qo‘shilish holati haqida ma’lumot bering.

1-mashq. Olmoshlarni topib, qaysi so‘z o‘rnida qo‘llanganini yozma izohlang.

Shu paytda uzoqdan ikki otliq ko‘rindi. Ularning qo‘llarida qizil bayroqlar hilpirar edi. G‘o‘za bebahо xazinadir. Uning ildizi, poyasi, bargi va tolasidan xo‘jaligimiz uchun zarur bo‘lgan ko‘pgina narsalar tayyorlanadi. Volga daryosi juda chuqur, suvi ham juda ko‘p. Katta paroxodlar unda bemalol yuraveradi. Uning suvi sekin va tinch oqadi. Kishining ishi to‘g‘rilik bo‘lsa, bu uning uchun eng yaxshi maqtovdir.

2-mashq. Olmoshlarni topib, turini ayting.

Siz ertaga yomg‘ir yog‘ish-yog‘masligini, shamolning qachon to‘xtashini bilishni istaysiz. Siz kechasi harorat necha daraja bo‘lar ekan deb qiziqasiz. Obu havoni tekshiruvchi olimlar – meteorologlar – bularning hammasini bila oladilar. Buning uchun ular ob-havoning qayerda qandayligidan, baland tog‘larda, tekisliklarda va dengiz bo‘ylarida qandayligidan xabardor bo‘lib turadilar. Biz istaymiz: barcha ellar, elatlar, bir-biri-la bo‘lsin yana yaqinroq.

3-mashq. Olmoshlarning turini aniqlab, gapdagi sintaktik vazifasini toping.

Birdan allaqanday ovoz eshitila boshladi. Shu onda nimadir qars etdi. Shunday odamlar bo‘ladiki, ularni hyech qachon unutib bo‘lmaydi. Abdulla Qodiriy ham shunday odamlardan biridir. U barchaning sevimli yozuvchisi. Hyech kimning beli ham og‘rimadi, yuragiga hyech narsa sig‘maydigan vaqt ham bo‘lmadi. Hamma uning yana nimalardir gapirishini kutar edi. Bu haqda hyech kimga, hatto onasiga ham bir nima demagan edi. Sizning taklifingiz go‘yo hammaning nomidan bo‘ladi. Bog‘chamizdagи gullarning bari ochildi. Nima yozganimni men o‘zim sizga tushuntiraman. Bu o‘lkada har narsa bordir. Siz bir oz dam oling.

Men yana turib qochdim, yana o'sha narvonga tirmashib, arang o'zimni tomga yetkazib oldim. Bu ovoz unga juda tanish tuyuldi. Hammasingin bir istagi bor, hammasi ham xursand, baxtiyor.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Jamlash, umumlashtirish ma’nosini ifodalovchi olmoshlar berilgan qatorni aniqlang.
 - a) har kim, har qaysi;
 - b) qay bir, hyech nima;
 - c) barcha, bari, hamma;
 - d) allaqaysi, butun, allakim.
 2. Qaysi so‘roq olmoshi kelishik qo‘srimchasi qabul qilmaydi?
 - a) Necha?
 - b) Nega?
 - c) Qachon?
 - d) Qancha?
 3. Juft holda ishlatiladigan olmosh turini belgilang.
 - a) kishilik va ko‘rsatish;
 - b) o‘zlik va so‘roq;
 - c) belgilash va gumon;
 - d) so‘roq va bo‘lishsizlik.
 4. Takror holda ham qo‘llana oladigan olmoshlarni toping.
 - a) barcha olmoshlar;
 - b) kishilik, ko‘rsatish;
 - c) so‘roq, o‘zlik;
 - d) bo‘lishsizlik, gumon.
 5. Olmoshlarda tovush tushishi hodisasi qaysi kelishik qo‘srimchalari qo‘srimganda ro‘y beradi?
 - a) bosh, jo‘nalish;
 - b) tushum, o‘rin-payt;
 - c) qaratqich, tushum;
 - d) chiqish, tushum.
 6. Berilgan gapdagi olmoshning ma’no turini aniqlang: Xalq amaliy san’ati nihoyatda serjilo va sertarmoq ekanligiga shashubha yo‘q.
 - a) ko‘rsatish;
 - b) belgilash;
 - c) so‘roq;
 - d) olmosh ishtirok etmagan.
 7. Olmoshga xos bo‘lmagan xususiyat qaysi javobda berilgan?
 - a) turlanadi;
 - b) tuslanadi;
 - c) gap bo‘lagi vazifasida keladi;
 - d) egalik qo‘srimchasi oladi.
 8. Quyidagi olmoshlardan qaysi biri egalik qo‘srimchasi bilan qo‘llanmaydi?
 - a) nima;
 - b) kim;
 - c) biz;
 - d) o‘z
 9. Saida bunga ham e’tibor qildi. Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo‘llangan?

- a) kishilik; c) o‘zlik;
b) ko‘rsatish; d) belgilash.

10. *Meni, seni* olmoshlari qaysi kelishik shaklida qo‘llangan?
a) tushum; c) bosh;
b) qaratqich; d) chiqish.

11. Olmoshning yasalish xususiyatiga ega bo‘lgan turini aniqlang.
a) gumon; c) o‘zlik;
b) belgilash; d) ko‘rsatish.

12. Umumlashgan belgi bildiruvchi olmoshlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?
a) shu, o‘sha, qanday; c) kim, nima, allakim;
b) shuncha, uncha, qancha; d) qaysi, kim, o‘z.

13. Umumlashgan miqdor bildiruvchi olmoshlar qaysi javobda berilgan?
a) shu, kim, qancha; c) shuncha, o‘shancha,
necha;
b) shuncha, qanday, kim; d) hamma, nima, kim.

14. Kamina, faqir, qulinqiz so‘zlari qaysi olmoshga sinonim bo‘la oladi?
a) men; b) o‘z; c) u; d) siz

15. *Men, sen* kishilik olmoshlariga –*niki* qo‘shimchasi qo‘shilsa, qanday fonetik hodisa kuzatiladi?
a) tovush ortishi; c) tovush tushishi;
b) tovush almashishi; d) tovush ikkilanishi.

16. Olmoshning qaysi turi ishora qilingan narsa bilan so‘zlovchi orasidagi masofaga qarab qo‘llaniladi?
a) so‘roq; c) ko‘rsatish;
b) o‘zlik; d) gumon.

17. Gumon olmoshini yasaydigan qo‘shimchani toping.
a) -day; b) -niki; c) alla-; d) -chi

18. Gumon olmoshi yasaydigan –dir qo‘shimchasi ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalaridan oldin qo‘llana oladimi?
a) har doim keyin;

- b) har doim oldin;
- c) ko‘plikdan oldin, egalikdan keyin;
- d) egalikdan oldin, kelishikdan keyin.

19. Olmoshning sintaktik vazifasini aniqlang: *Bunda bulbul kitob o‘qiydi.*

- a) aniqlovchi; c) to‘ldiruvchi;
- b) hol; d) kesim.

20. Predmetning nomi oldida joylashgan ko‘rsatish olmoshining gapdagi vazifasi qanday?

- a) aniqlovchi; c) hol;
- b) to‘ldiruvchi; d) kesim.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Y O T L A R:

- 1.Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirga qzbek adabiy tili. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti. 1992.
- 2.Abdurahmonov G‘. Rustamov H. Ona tili (10 -11-sinflar uchun) Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1995.
- 3.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish –Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1992.
- 4.Nomozov A. Matndagi iboralarni aniqlash va ularning xususiyatlarini yozma izohlashga o‘quvchilarni o‘rgatish “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2020 yil 2-son 25-bet.
- 5.O‘zbek tili grammatikasi 1-jild,Toshkent, FAN,1975.
- 6.A.Hojiyev.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ davlat ilmiy nashriyoti .1995.
- 7.”Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun (1995 yil 6-may).
- 8.”Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun (1995-yil 6-may).
- 9.”O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (1995-yil 24-avgust).
- 10.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ davlat ilmiy nashriyoti.2006-2008.
- 11.И.Рахматуллаев.Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.Тошкент.”Ўқитувчи” нашриёти.1978.
- 12.A.Nurmonov.,N.Mahmudov.,A.Sobirov.,SH.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2003.
- 13.G.Abdurahmonov.,H.Rustamov. Ona tili. O‘qituvchi, 2004.
- 14.G.Abdurahmonov.D.Xo‘jayeva.Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti,2003
- 15.Sh.Rahmatullayev.A.Hojiyev. Uzbek tilining imlo lugati. Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti,1995.

16.B.To‘xliyev.M.Shamsiyeva,T.Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoi,2006.

17.N.Mahmudov,A.Nurmonov,
A.Sobirov,V.Qodirov,Z.Jo‘rabyeva. Ona tili (5-sinf),
Toshkent,”Ma’naviyat”, 2007.

18.N.Mahmudov,A.Nurmonov,A.Sobirov,I.Xojaliyev,O‘Husanov,
G.Ziyodullayeva.Ona tili (7-sinf), Toshkent, “Tafakkur”
nashriyoti,2011.

19.X.Muhiddinova, Y.Ablakulova, D.Nuriddinova. O‘zbek tili (7-sinf), Toshkent, “O‘qituvchi”, 2017.

20.Ш.Раҳматуллаев,Н.Маматов,Р.Шукров. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати, Тошкент,”Ўқитувчи”,1960.

21.Ш.Раҳматуллаев.Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи 1984.

22.Ш.Раҳматуллаев.Ўзбек тилининг этимологик луғати.-Т.: Университет,2003.

23.М.Миртоҗиев.Ўзбек тилида полисемия. Т.: ФАН, 1975.

24.А.Абдуазизов.Ўзбек тилининг фонологияси ва морфологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1992.

25.Б.Йўлдошев.Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, СамДУ нашри 1996.

26.А.Абдуазизов.Тилшуносликка кириш.2-қисм, -Т.: 1999.

27.Ҳ.Арзиқулов,М.Болтаев. Ўзбек тилини ўрганамиз. – Самарқанд,1992.

28.Н.Абдураҳмонов.Ўзбек тили тарихи. Самарқанд,2003.

29.M.Boltayev.Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlosi. –Т.: O‘qituvchi, 2003.

30.O’zbek tilining imlo lug‘ati. – Т.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1996.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-MAVZU: UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA'LUMOT.	
FONETIKA VA FONOLOGIYA.....	4

A.Nomozov, N.Allayorova

ONA TILI

(o‘quv qo‘llanma)

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

O. Sharapova
N. Isroilov
B. Egamberdiyev

ISBN 978-9943-7276-9-4

2021-yil 17 dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2021-yil 23 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturasi.
Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i – 9,25.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №584

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

